

Achilova Emina Sa'dulloyevna

**O'TKIR HOSHIMOV
ASARLARIDA
BADIY PSIXOLOGIZM
MUAMMOSI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ACHILOVA EMINA SA’DULLOYEVNA

**“O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARINING BADIY PSIXOLOGIK
TAHLILI”**

Monografiya

CHIRCHIQ – 2025

UO‘K:

KBK:

D

Achilova Emina Sa'dulloyevna. O'tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosi [Matn] A.S. Achilova - Toshkent: « », 2022.-100 b.

Mas'ul muharrir:

DAVLATOVA ADIBA RAHMATOVNA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Tadjibayev Musa Sabirovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Jabborov Nurboy Abduhakimovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Monografiyada O'tkir Hoshimovning badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati uning hikoya va romanlari misolida yoritilgan. Asar qahramonlari poetikasi ruhiyat nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Yozuvchining obraz yaratish borasidagi badiiy mahorati tadqiq etilgan.

Ushbu monografiya adabiyotshunoslik yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchilar, magistrant va bakalavr talabalari uchun muhim manba sifatida xizmat qila oladi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2022 yil 21-noyabrda 2-sonli majlis bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-24-464-1

© E. Achilova, 2023

© "----" 2023

KIRISH

Bugun milliy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-baranglashib bormoqda. Ijtimoiy tafakkur eskicha qarash va yondashuvlardan xalos bo‘lib borayotgan bir davrda ilm-fanning barcha sohalari qatori adabiyotshunoslikning ham muhim nazariy masalalarini har tomonlama teran tadqiq etish borasida keng imkoniyatlar ochilmoqda. Adabiyotshunoslik va uning tadrijida ijodkor badiiy mahorati, asar qurilishi, qahramonlar ruhiyati tahlili masalasi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki “busiz milliy badiiy-estetik tafakkurni boyitib, yangilab, rivojlantirib bo‘lmaydi”.¹ Bunda, ayniqsa, hayotni badiiy yorqin tasvirlash, betakror obrazlar yaratish, milliy adabiyotimiz xazinasini yangi poetik kashfiyotlar, badiiy psixologizm tahlili bilan boyitishga muvaffaq bo‘lgan yozuvchilar ijodini tadqiq etish beqiyos o‘rin tutadi. Shu ma’noda XX asr o‘zbek nasrining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan bo‘lgan O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘rganish, yozuvchining o‘ziga xos uslubi va badiiy mahoratini tadqiq etish muhimdir. Zero, O‘tkir Hoshimov so‘zni san’at darajasiga olib chiqqan, uning har bir qatidan yangilik, badiiy yuksaklik axtargan va ana shu yuksaklikni ijod o‘zagi deb bilgan yozuvchidir. Asar qahramonlari hayotning murakkabliklariga sabr bilan turib bergan, turfa xil ruhiyat aks etgan insonlar taqdiri haqida yozadi. Biz ushbu monografiyamizda O‘tkir Hoshimovning hikoyalari va “Tushda kechgan umrlar” romani misolida asarlarning badiiyati, qahramonlar ruhiyati, psixologizm masalalarini kengroq, batafsilroq yoritib bermoqchimiz.

Adabiyotshunoslik ilmida doimo muhim sanalgan badiiy mahorat, syujet, uslub masalalari borasida ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgani ma’lum. Tadqiqot ishimizning o‘rganish obyekti bo‘lgan badiiy psixologizm tushunchasi hamda O‘tkir Hoshimovning hikoyalari va “Tushda kechgan umrlar” romani ko‘plab adabiyotshunos olimlar ham nazariy fikrlar bildirishgan. Adabiyotshunoslik tarixida O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat, 2000. 27-bet

davr ilmiy aspekti kesimida munaqqidlar U.Normatov, D.Quronov, A.Samad, M.Sharofiddinova, Sh.Ismatova, S.Ahmad, M.Imomqulova, D.To‘rayev, Q.Norqobilov nazariy qarashlarida muayyan darajada umumlashtirilgan. Bundan tashqari O.Duysenbayevning “O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi” nomli nomzodlik dissertatsiyasi, G.Imomkarimovanning “O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar talqini” mavzusida nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan.

O‘tkir Hoshimov ijodining ko‘p qirralari tadqiq etilgan bo‘lsa-da, yozuvchining badiiy mahorati, zamonaviy o‘zbek nasri taraqqiyotida tutgan o‘rni, badiiy jihatdan o‘ziga xosligi, badiiy psixologizm va ruhiyat tasviri uning betakror hikoyalari va “Tushda kechgan umrlar” romani misolida alohida o‘rganilmoqda. Yozuvchining badiiy mahoratini baholash asosida romandagi ijtimoiy hayotni badiiy aksi, qahramonlar ruhiyati, romandagi syujet, obraz va uslub xususiyatlarini psixologizm yondashuvlari asosida tadqiq etish ishning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi O‘tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosini tadqiq qilishdan iborat. Ushbu maqsadidan kelib chiqib, yozuvchining ijtimoiy voqelikni aks ettirishdagi badiiy mahorati, qahramonlar shaxsiyatini ochishdagi o‘ziga xos uslubi, badiiy haqiqatni hayot haqiqatiga mos tarzda ifodalanishini aniqlashda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- psixologizm masalalarini davr, makon, qahramonlar misolida tahlil qilish;
- asarda tasvirlangan davr ijtimoiy muhitini o‘rganish;
- yozuvchi asarlarining badiiy xususiyatlarini tekshirish;
- yozuvchining badiiy psixologizm borasidagi poetik mahoratini ochib berish.

Adabiyotshunos olimlarning badiiy mahorat, syujet, uslub mavzusiga bag‘ishlangan asarlaridan, ilmiy-nazariy tadqiqotlaridan metodologik asos sifatida foydalanildi. Xususan, I.Sulton, O.Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov, N.Karimov, B.Nazarov, P.Qodirov, U.Normatov, I.G‘afurov, A.Rasulov, B.Akramov, B.Sarimsoqov, I.Haqqul, N.Rahimjonov, Suvon Meli, A.Ulug‘ov, U.Hamdamiy, U.Jo‘raqulov kabi o‘zbek olimlarining badiiy adabiyot poetik mohiyati, badiiy so‘z

estetikasi masalalariga bag‘ishlangan asarlaridagi mushohadalar ilmiy-metodologik asos vazifasini o‘tadi.

Tadqiqotimizga O‘tkir Hoshimovning hikoyalari va “Tushda kechgan umrlar” romani asosiy obyekt qilib belgilandi. Yozuvchi badiiy mahoratini yoritishda obraz va timsollar, psixologizm, badiiy nutq unsurlariga tayanildi.

Monografiyadan kelgusida badiiy adabiyotda psixologizm masalalari tahlilida, muallif asarlarining yangi o‘rganilmagan tomonlarini tadqiq etishda, BMI va referatlar, ma’ruza mantlari tayyorlashda, foydalanish mumkin.

I BOB. BADIY PSIXOLOGIZM MUAMMOLARI

1.1. Badiiy psixologizm masalasining nazariy jihatlar

Badiiy asar – ijodkor tafakkuri mahsuli bo‘lib, unda inson va jamiyat hayoti, uning taqdir yo‘li va qismati o‘z tasvirini topadi. Har bir badiiy asarda hayotimizda sodir bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea -hodisalar muallif tomonidan o‘quvchi-kitobxoniga badiiylik qonuniyatlariga asoslanib yetkazilar ekan, mazkur badiiylik qonuniyatlari turli davrlarda sayqallanib, an'anaviylik va novatorlik orasida muntazam shakllanishda davom etadi. Badiiy asarlarda ko‘tarilayotgan muammolar, o‘quvchi e‘tiboriga va hukmiga havola qilinayotgan masalalar – badiiy asar mavzusi va mazmuni bevosita asar yaratilgan davr ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’lum bir davr va uning vakillari haqida qiziqarli va muhim voqealarni to‘xtovsiz so‘zlash mumkin, ammo voqealarning shunchaki bayoni badiiy asar darajasiga ko‘tarilishi uchun ijodkor turli badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda voqealar bayonini san’at asari darajasiga olib chiqadi.

Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o‘rni benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o‘ylari, kechinmalari, kayfiyatlari hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san’ati yotadi. Uning mohiyatini esa, qahramon xarakteriga xos hislatlarning, ruhiy olamining qay holda, qay vaziyatda ochilishi belgilaydi. Yozma adabiyotda psixologik tasvir anchagina chuqur va ko‘p qirralidir, ya’ni ruhiy-psixologik tasvir, ruhiy tahlil hukmronlik qilish darajasiga yetadi. Ruhiy tahlil kuchli bo‘lgan adabiy-badiiy asarlarda har bir detal, xatti-harakat, epizod, har bir voqea u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga bo‘ysundiriladi.

Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to‘liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib

borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – “badiiy psixologizm” deb yuritiladi.

Adabiyotda – “badiiy psixologizm” nima? Ushbu savolga javob berishdan oldin psixologiya terminiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Psixologiya – inson shaxsi, uning ichki dunyosi haqidagi bilimlar tizimidir. Psixologiya har kimga o‘z tajribasidan ma’lum bo‘lgan sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, his-tuyg‘u va insonning qobiliyati, iste’dodi, temperamenti, xarakteriga xos ruhiy hodisalar haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olgan sohadir. Psixologiya haqidagi dastlabki fikrlar bundan ikki yarim ming yil avval paydo bo‘lgan. Psixologiya fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmigacha falsafa fanining tarkibida rivojlangan. Ilmiy psixologiyagacha bo‘lgan davrda psixologiya dastlabki og‘zaki fan sifatida, keyin esa yozma fan sifatida paydo bo‘ldi.

Adabiyotda psixologiya qahramonning ichki dunyosini turli xil vositalar yordamida tasvirlashdir. Muallif badiiy texnika tizimidan foydalanadi, bu unga chuqur va batafsilroq xarakterni ochib berish imkonini beradi.

Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog‘liq. A.B.Yesin ta’biri bilan aytganda, badiiy psixologizm – bu asar personajining xayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berish san’atidir². Rus adabiyotshunoslik ilmida ruhiyat mavzusida birinchilardan bo‘lib tadqiqot olib borgan N.G.Chernishevskiy psixologik tahlil xilma-xil bo‘lishi mumkin deydi va bir muallif xarakter qirralarini ochib berishga urinsa, boshqasi – xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush ta’sirini ko‘rsatib beradi; uchinchi – xatti-harakatlarning his-tuyg‘ular bilan aloqadorligini; to‘rtinchi – ehtiroslar tahlili tasvirlaydi³. Rus adabiyotshunosligiga psixologizm tushunchasi qariyb ikki yuz yil avval kirib kelgan. Badiiy psixologizm va psixologik tahlil muammosi I.V.Straxov,

² 7. <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html>

³ 5. Н. Г. Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Литературная

S.G.Bocharov, A.N.Iyezuitov, L.Ya.Ginzburg, V.V.Kompaneys, M.B.Xrapchenko, A.B.Yesin, M.M.Baxtin, R.Uellek va O.Uorren, P.Rikyor, R.Brat, V.V.Vinogradov, L.Kolobayeva, V.M.Jirmunskiy, A.Zis, D.Zatonskiy, D.Lukich, A.V.Kovalev kabi amerika va rus olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Badiiy asarda psixologizm muammosi bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida ham muayyan tajribalar to'plangan, nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Adabiyotshunos H.Umurov badiiy psixologizmning milliy romanchilikda, A.Xolmurodov esa qissachilikda qaror topishini maxsus tadqiq etishgan. Bundan tashqari, XX asr so'nggi choragi va undan keyingi davrda yaratilgan o'nlab romanlar ilmiy-adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otib, bahs va munozaralarga sabab bo'lgan. Bu haqda I.Sultonov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, H.Umurov, I.Mirzayev, B.Nazarov, N.Karimov, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, Y.Solijonov, H.Boltaboyev, T.Jo'rayev, D.To'rayev, S.Meliyev, Z.Pardayeva, U.Jo'raqulov, I.Yoqubov, D.Quronov, Sh.Doniyorova kabi adabiyotshunoslarning salmoqli tadqiqotlari mavjud. Zamonaviy o'zbek romani ko'z o'ngimizda yangilanib bormoqda, yangi-yangi poetik qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Mustaqillik davrida roman janrida qalam tebrata boshlagan yosh adib Ulug'bek Hamdam romanlari ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, D.To'rayev, S.Sodiq, Q.Husanboyeva, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, I.Yoqubov, Z.Pardayeva, Sh.Doniyorova, M.Pirnazarova, M.Qo'chqorova, X.Tulibayev kabi taniqli olim va tadqiqotchilar adib ijodini turli nuqtai nazardan tadqiq etishgan. Adabiyotda psixologizmning rivojlanish tarixini tavsiflab, adabiyotshunos olim L.Y.Ginzburg "mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo'lmish – kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janrlarda psixologizm allaqachon o'rnashib paydo bo'lgan edi"⁴. O'z o'rnida psixologizm atamasi turlicha

⁴ Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiya, 2000. – 630 b.

ta'riflarga ega. Rus adabiyotshunolsik terminlari qomusida "Psixologizm (adabiyotda) – qahramonlar ichki olami: ularning o'y-xayollari, orzu-umidlari, iztiroblarining chuqur va batafsil tasviri" ⁵. L.Y.Ginzburg esa "ko'ngil olami ziddiyatlarining chuqur tadqiqi" deya ta'riflasa, A.B.Yesin psixologizmni keng va tor ma'nolari mavjud ekanligiga to'xtalib o'tadi – keng ma'noda inson hayotini tarannum etuvchi va xarakterini tasvirlab beruvchi barcha san'at turlarining xususiyati tushunilsa, tor ma'noda esa inson ichki olamidagi hayot va jarayonlarning tasviri deyiladi ⁶.

O'zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlari lug'atida badiiy psixologizm atamasiga "badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jamlanmasi"⁷ deya ta'rif berilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalasi ilmiy maydonga o'tgan asrning o'rtalarida kirib kelib, milliy adabiyotshunosligimizda bu atama sintez bo'lgan holda o'zining ruhiyat (psixologizm), ruhiyat tasviri (psixologik tasvir), ruhiyat talqini (psixologik talqin), ruhiyat tahlili (psixologik tahlil)-kabi nomlariga ega bo'ldi. "Ruhiyat" atamasining "psixologizm" (yun. psyche–qalb; logos–o'rganmoq) termini bilan sinonim sifatida qo'llanilishini joiz deyish mumkin, sababi 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"⁸ da ruhga – "jon", ruhiyatga esa – "jonning holati", deya izoh berilgan. Bu izoh albatta adabiy termin uchun nomukammal bo'lsada, ammo ma'no jihatdan ikkila termin ham bir mazmunni beradi.

⁵ 2. Литературная энциклопедия терминов и понятий; под ред. А.Н.Николюкина. М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/>).

⁶ 3. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. - М.: Флинта: Наука, 2011.

⁷ 4. Д.Куронов ва б. Адабиётшунослик лугати. Т.Академнашр, 2013.

⁸ Н. Г. Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Литературная критика. Библиотека "Огонек". М.: "Правда", 1974 (http://az.lib.ru/c/chernyshevskij_n_g/text_0240.shtml).

O'zbek adabiyotshunos olimlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalasiga bag'ishlangan izlanishlar olib bordilar. Jumladan, A.Rasulovning "Xarakter molodeji v sovremennix uzbekskix sovetskix povestyax", N.Shodiyevning "Abdulla Qahhorning asarlarida psixologik tahlil mahorati", N.Yuldashevning "Problemi psixologicheskogo analiza v uzbekskoy proze (Vnutrenniy monolog v romanax A.Kadiri, Aybeka, A.Kaxxara, A.Yakubova) nomzodlik dissertasiyalari, X.Umurovning "O'zbek romanlarida ruhiy tahlil muammosi" doktorlik dissertasiyasi, A.Xolmurodovning "Odil Yoqubov romanlarida psixologizm", P.Kenjayevarning "Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari" nomzodlik dissertasiyasi hamda monografiyasi, M.Boboxonovning "Hozirgi o'zbek qissachiligida badiiy psixologizm" nomzodlik dissertasiyasida, M.Sheraliyevaning "Hozirgi o'zbek nasrida kinoya (ijtimoiy-psixologik omillari, poetik tizimdagi o'rni)", Y.Eshmatovanning "Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini", Sh.Botirovanning "Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida)" filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissersiyalarida badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalalarini turli aspektlarini tadqiq etgan bo'lsalar, M.Qilichevaning "Ingliz va o'zbek adabiyotida psixologik holatlar talqinida adabiy ta'sir muammosi (yolg'izlik motivi misolida)", N.Qobilovanning "Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissersiyalarida badiiy psixologizm va ruhiyat mavzularida qiyosiy tadqiqot olib borganlar. Garchi, o'zbek adabiyotshunosligi ilmiy davrlarida psixologizm hamda ruhiyat bilan bog'liq tushunchalar XX asrning o'rtalarida e'tirof etila boshlangan bo'lsada, shaxs ruhiyati talqini va tahlili Sharq mumtoz adabiyoti vakillari ijodida ham yetakchi o'rinni egallagan. Birgina o'zbek adabiyotining o'zida Alisher Navoiy tomonidan epik dostonlarda, lirik asarlarda inson ruhiyatining qavat-qavat sirlari ochilgani,

Sharqning buyuk shoiri tomonidan badiiy psixologizmning xilma-xil usul va vositalari qo'llangani ham haqiqat⁹ Ammo, ayrim adabiyotshunos olimlarning fikriga ko'ra, adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm masalasi hali-hanuz to'liq nazariy asoslab berilmagan va "adabiyotshunoslik ilmida semantik jihatdan yetarli darajada aniq emas"¹⁰. Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uchta asosiy prinsiplari—dinamik prinsip, analitik prinsip va tipologik prinsip ajratib ko'rsatiladi. Dinamik prinsipda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, mimika va qiliqlari, turli hayotiy vaziyatlarda o'zini tutishi va gap-so'zlari orqali ifodalab beriladi, "mohiyatan bu dramatik asar personajlari ruhiyatini ochish usuliga o'xshash, shu boisdan dinamik prinsip ba'zan psixologik tahlilning dramaturgik usuli deb ta'riflanadi"¹¹. Tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'lab tasvirlab beriladi. Analitik prinsipda qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg'ulari, tafakkur va mulohazasi, o'y-fikrlari dinamikasi tasvirlanadi. "Bunda bir hisdan boshqa his, bir o'ydan boshqa fikr o'sib chiqadi, ular bir-birini to'ldiradi, sifat jihatidan o'zgartiradi"¹². Bu shakl personajlar taqdiri va tafakkurida keskin burilishlarni ko'rsatib berishga imkon beradi, shu sababli ham ayrim tadqiqotchilar "qalb dialektikasi" shakli deb ham ataydilar. Ta'kidlab o'tish joizki, muallif badiiy obraz xarakteri va uning ruhiyatini ochib berishda yuqorida zikr etilgan uchchala shakldan birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi mumkin. Bunda prinsiplardan biri yetakchi bo'lsa, qolgan ikkitasi uni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Umuman olganda, badiiy psixologizmga oid tadqiqotlarda "xarakter"

⁹ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. — Т.: Фан. 1983; яна: "Хамса"да бадий психологизм типлари // Алишер Навоий "Хамса"си (тадқиқотлар). — Т.: Фан, 1986.

¹⁰ 9. Машрабова Г. Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" достонида руҳият тасвири // Навоийга армуғон. — Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2003.

¹¹ Золотухина, О. Б. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу для студ. спец. -Гродно: ГрГУ, 2009. 49 ст

¹² 10. Золотухина, О. Б. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу для студ. спец. -Гродно: ГрГУ, 2009. 49-53 ст

tushunchasi yetakchi o'rinni egallaydi. Sababi, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik ilmiga oid bo'lsada, bir tomondan ruhiyatshunoslik ilmi bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur ikki soha kesishmasiga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida "xarakter" tushunchasini ham adabiyotshunoslik, ham ruhiyatshunoslik nuqtai nazaridan aniqlashtirib olishni taqazo etadi.

Adabiyotshunoslik terminlar lug'atida "xarakter" (yun. character–belgi, farqlovchi xususiyat) tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan—"muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi"¹³. Rus olimlari taqdim etgan adabiyotshunoslik terminlari ensiklopediyasida esa xarakter atamasiga ta'rif berib, uni quyidagicha toifalarga ajratib ko'rsatadi:—xarakter bu adabiyotda va san'atda obrazning aniqligidir: ijtimoiy, milliy, maishiy, psixologik.

Agar tip bu – umumiylikni individuallikda ko'rsatib berish bo'lsa, xarakter – eng avvalo individuallikni namoyon qiladi. Yuqoridagi ta'riflarning ikkisi ham xarakterning ruhiyatshunoslik nuqtai nazarini ta'kidlamoqda; ruhiyatshunoslik lug'atlarida xarakter—"shaxsning xatti-harakati va atrof muhitga munosabatida namoyon bo'ladigan individual xususiyati"¹⁴ deya ta'riflanadi. Rus ruhiyatshunoslik ilmi darg'asi S.J.Rubinshteyn "Xarakter haqida gapirganda, u odatda shaxsning barcha ko'rinishlarida ma'lum bir iz qoldiradigan va unga dunyoga, avvalambor, boshqa odamlarga nisbatan o'ziga xos munosabatini bildiradigan xususiyatlar jamlanmasini anglatadi"¹⁵ deb ta'rif beradi va "shaxsning ichki xususiyatlari" deya terminga yanada aniqlik kiritadi.

Shunday qilib, ruhiyatshunoslik fani shaxs axloqiy asosining xarakter shakllanishidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Badiiy adabiyotda asarning g'oyaviy-

¹³ Золотухина, О. Б. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу для студ. спец. -Гродно: ГрГУ, 2009.352 ст

¹⁴ 12. С.Л. Рубинштейн. Учение о характере/Отрывок из монографии С.Л.Рубинштейна "Основы общей психологии" (<https://www.psychologyonline.net/articles/doc-451.html>)

¹⁵ 12. С.Л. Рубинштейн. Учение о характере/Отрывок из монографии С.Л.Рубинштейна "Основы общей психологии" 231-232 ст (<https://www.psychologyonline.net/articles/doc-451.html>)

estetik ahamiyatini personajlar xarakteri ochib bersa, personaj xarakterining yozuvchi tomonidan ochib berilishi psixologik tahlil vositasi hisoblanadi. Badiiy asarda asosiy urg'u qahramon ichki olami, botiniy hayoti, o'y-kechinmalariga qaratilmagan bo'lsa, u holda har qanday obraz xarakteri ham badiiy psixologizm namunasi bo'la olmaydi. Chunki, "psixologizm – adabiy asar badiiyatining asosiy, ammo yagona bo'lmagan mezon¹⁶" hisoblanib, "psixologizm – agar badiiy asar uchun botinan zarur bo'lsagina, u asarning yutug'i bo'la oladi". Yozuvchi personaj xarakterini yaratar ekan, uni ruhiyatini bevosita yoki bilvosita ochib berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatini uning xatti-harakatlari, gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruhiy tasvirning bu ikki ko'rinishi bir-birini to'ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning har ikkisidan ham o'rni bilan unumli foydalanadi¹⁷.

Badiiy psixologizm tushunchasi bilan psixologik tahlil yoki psixologik tasvir kabi tushunchalarning o'zaro aloqasi bor-ki, olimlar va tadqiqotchilar o'rtasida bahsli holatlarni yuzaga keltiradi. Ammo bu savollar nazariy jihatdan bugunga qadar ochiq qolmoqda – ayrim tadqiqotchilar bu terminlarga aniqlik kiritsalar, boshqa guruh olimlar bu nazariyani chetlab o'tishga harakat qiladi. Psixologizm – Abdulla Qahhor tili bilan aytganda "Yozuvchi mahoratining muhim jihatidir". Bunda yozuvchi qahramon ichki dunyosini, psixologiyasini o'z uslubi orqali ochib beradi. Unda yozuvchi ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, gallyusinatsiya, tush kabi psixologik tasvir vositalaridan foydalanib, qahramon

¹⁶ 13. Барабаш О.В. Психологизм как конструктивный компонент поэтики романа Л.Н. Толстого "Анна Каренина": диссертация кандидата филологических наук.-Москва, 2008 (<http://www.dslib.net/russkaja-literatura/psihologizm-kakkonstruktivnyj-komponent-pojetiki-romana-l-n-tolstogo-anna.html>).

¹⁷ 14. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – А.: Ҳаёт нашриёти, 2002.67-bet

ichki olamini ochib beradi. Bunda yozuvchi qahramon tashqi dunyoga faqatgina ichki dunyosini yoritib berish uchungina murojaat qiladi. O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida "psixologizm" va "psixologik tahlil" terminlari farqlanmay ishlatiladi. Ammo bu ikki terminni bir ma'noda qo'llash noo'rindir, deya e'tirof etadi professor H.Umurov. Psixologizm "psixologik tahlil" tushunchasiga nisbatan keng bo'lib, u o'zida bevosita avtorning psixologiyasini qamrab oladi. U adabiyotning o'ziga xos qonuniy hodisasi bo'lib, yozuvchining xohishiga bog'liq bo'lmagan holda namoyon bo'ladi. "Psixologik tahlil" esa, inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli tuman "ohang"lar rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir. Shuningdek, psixologizmga nisbatan psixologik tahlil o'zining ichki monolog, o'ziniki bo'lmagan nutq, psixologik portret, ikki syujetli diolog kabi aniq belgilariga ega.

Shunday qilib, psixologizm adabiyotning qonuniy badiiy hodisasi, psixologik tahlil esa ana shu qonuniy badiiy hodisaning murakkab ko'rinishi (kategoriyasi)dir. Bundan tashqari, yuqoridagi terminlarning o'zbekcha variantlari ham ko'p bo'lib, ularning hammasi ham bir xil ma'noda qo'llanadi. Masalan, "Adabiyot nazariyasi"da "psixologizm", "ichki dunyo tasviri", "psixologik analiz"; M.Abdurahmonova esa – "ruhiy dunyo tasviri", "ruhiy tahlil", "psixologik tasvir"; N.Shodiyevning "Ruhiyat rassomi" risolasida – "psixologik tahlil", "ichki hayot tasviri" kabi¹⁸ izohlar berilgan. Bizningcha, psixologik tahlil obraz ruhiyatini, ichki olamini, kechinmalarini ochib berishda vosita bo'lsa, psixologizm uning yanada takomillashgan, chuqur hamda mukammalroq ishlangan va tugallangan ko'rinishidir. "Psixologik analiz", "psixologik tahlil", "ruhiy tahlil" atamalari ham o'zaro ma'nodosh. Ammo "psixooanaliz" terminini "psixologik analiz" ning qisqartmasi tarzida bu qatorga qo'shib bo'lmaydi. Chunki bu so'z XIX asr oxiri – XX asr boshlarida avstriyalik vrach-psixoterapevt Zigmund Freyd asos solgan

¹⁸ 15. Умuroв Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.Фан, 1983.17-б

nazariy qarashlar tizimini anglatadi. Psixozanaliz – termindir¹⁹. Psixologik tahlil hamda psixologik tasvir vositalariga keladigan bo‘lsak, ijodkor personaj ruhiy holatini, uning ichki kechinmalari va ichki hayotini ko‘rsatib berish uchun badiiyat qonuniyatlarga tayangan holda odatiy va noodatiy tasvir vositalaridan foydalanishi mumkin.

Ichki monolog (monolog muhokama, monolog xotira, monolog-mulohaza), nutqiy xarakteristika, takror so‘zlar, kechinmalar, psixologik portret (dinamik portret, statik portret), ramzlardan unumli foydalangan holda, noodatiy badiiy tasvir vositalari gallyusiyatsiya, shaxsiyatning ikkilanuvi, o‘zi bilan suhbat, maktub va kundaliklari, tush kabilardan ham foydalanishi tez-tez kuzatiladi. Adabiyotshunoslikda bugungi kunda badiiy psixologizmni tadqiq qilishning metodologiyasi to‘liq ishlab chiqilgan. Bu masalaga bag‘ishlangan deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlari adabiy asar yozilgan davr tarixiy-ijtimoiy jarayonlari, yozuvchining shaxsiy uslub va metodi inobatga olgan holda bajarilgan.

Rus adabiyotshunos olimasi M.J.Bedrikova o‘z tadqiqoti doirasida “psixologizm darajasi” atamasini kiritadi hamda uni quyidagicha kriteriyalar asosida tasniflaydi:

-matnda psixologizmni kuchaytiruvchi vositalar (psixologik detal, psixologik tafsilot, personajlarning psixologik hatti-xarakatlari, psixologiklashtirilgan (psixologizirovanniy) tavsif);

-qahramonlarni tavsirlash vositalari (psixologik portret, psixologik xarakteristika, psixologik konflikt, psixologiklashtirilgan syujet, "qalb dialektikasi";

-xarakter va vaziyat nisbati (qahramon tomonidan xronotopning “qalban” o‘zlashtirilishi, qahramonnig o‘z-o‘zini anglashi, vaziyat taqazosi bilan qahramonni ruhan o‘zgarishi)²⁰.

¹⁹ 16. Н.Қобилова. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)дисс. – Бухоро, 2020. 20-б

²⁰ 17. Qurbonov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

Badiiy asar psixologik darajasini belgilashda adabiy tur va janrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, lirika – inson qalbi va ichki his-tuyg‘ulari kuychisi ekanligi ma’lum, demak u bevosita ruhiyat tasviri bilan bog‘liq holda shoir psixologiyasi va ichki olamini tarannum etadi.

Dramatik turda ruhiyatni tasvirlash dinamik prinsip asosiga qurilishi haqida yuqorida batafsil to‘xtalib o‘tgan edik. Epos – inson ruhiyatini tasvirlashning xilma-xil vositalari, usullaridan iborat keng imkoniyatlarga ega. Epik turda lirika va dramadagi barcha usul va vositalar o‘ziga xos ravishda sintezlashadi.

Yozuvchi lirikadagi singari o‘z qahramonining ichki dunyosidan turib ham, qahramonning o‘z nutqi vositasida ham, tashqi xarakteristika va holatlar tasviri orqali ham ruhiyat dunyosiga dahl qilaveradi. Ayni paytda badiiy psixologizmdan foydalanish epik tur janrlararo ham farqli xususiyatlarga ega.

Epik janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o‘rni bugungi kun adabiy jarayonlarida yetakchilik qilmoqda. Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to‘liq ochib berish yozuvchidan katta mahorat va iste’dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o‘rta hajmdagi nasriy asarlarda qahramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ochib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko‘proq bo‘ladi²¹.

Badiiy psixologizm masalasi tarixini rus va o‘zbek adabiyotshunosligi doirasida ko‘rib chiqar ekanmiz, o‘zbek adabiyotshunosligida bu masalada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda dolzarb va zarur ekanligining guvohi bo‘lamiz. Rus adabiyotshunos-olimlarining ilmiy tadqiqotlarida badiiy psixologizm muammosi nisbatan ancha chuqur o‘rganilgan bo‘lib, mazkur nazariyaga oid qarashlari batafsil ochib berilgan. Jahon adabiy

²¹ 16. Н.Қобилова. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)дисс. – Бухоро, 2020.19-б

jarayonlari shiddat bilan rivojlanib, o'sib va kun sayin o'zgarib borayotgan modern adabiyoti namunalari orasida psixologik roman, psixologik qissa va psixologik hikoya kabi nasriy janrlarni har bir xalq adabiyoti doirasida tadqiq etish va o'rganish bugungi kun fani oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

Inson ruhiyati juda keng olam bo'lib, undagi hissiyot va tuyg'ular ham anglab bo'lmaz darajada cheksizdir. Xuddi shu his-tuyg'ular insonda ikki xil shaklda o'z ifodasini topadi: birinchisi anglangan, ma'lum mantiqqa ega bo'lgan, tashqi dunyoga nisbatan o'zining qat'iy xulosa va yo'nalishiga ega bo'lgan tuyg'ular. Bu tuyg'u insonning jamiyatga, odamlarga, atrof-muhitga munosabati va bular haqidagi ma'lum tushunchaga ega bo'lgan qarashlarni ifoda etadi. Bularning hammasini ong sintez qilib beradi, ya'ni ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari, ongga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud bo'lgan, obyektiv olam bilan tinimsiz aloqaga kirishib turuvchi hislar. Bu kabi hislar inson ruhiyatining asosini tashkil etadi. Garchi biz biror ishni qilganda, gapirayotganimizda, o'zimizni tutishimiz, holatlarimiz bizga anglangan, ma'lum bo'lgan va xuddi biror mantiqqa bo'ysunganday bo'lib tuyulsa-da, ammo, shu hislarni yuzaga chiqaruvchi, shu tushunchalarga turtki beruvchi asosiy narsa-ong osti hislaridir. Inson ruhiyatida ongli faoliyat, ongli hislardan ko'ra anglanmagan hislar ko'lam jihatidan cheksizdir. Masalan, biz oldimizdan o'tib ketgan mushukni payqamay qolsak-da, ong osti hislari uni o'ziga qabul qiladi va ma'lum vaqtdan so'ng uni o'zi qabul qilgan ramzlar orqali tushimizga uzatadi. Shuning uchun ham tushimiz bizga hamisha g'ayritabiiy tuyuladi. Tushdagi voqea, hodisa, holat yoki obraz aynan ong osti hislarining tashqi dunyoni qabul qilish ramzlari bo'lib, odam ongli faoliyatdan to'xtagan, ya'ni uyqu paytida bu hislar inson miyasiga o'zi qabul qilgan ramzlarni tarqata boshlaydi. Har qanday adabiy-badiiy asar bilan o'quvchi tanishar ekan, uning oldida eng birinchi va asosiy vazifa-badiiy asarni tushunish masalasi ko'ndalang bo'ladi. Asarni tushunish uchun esa, o'quvchi uni o'qish asnosida muayyan qoidalar, qonuniyatlar asosida ish ko'rishi zarur bo'ladi. Bu qonuniyatlar asarga tegishli bo'lgan va u bilan bog'liq bo'lgan, tushunish

masalasini osonlashtiruvchi bir qator omillardir. Bu omillardan biri, badiiy asarning ruhiyatiga kira olish, uning ruhiy olamini, qahramonlarning harakterlari, ichki kechinmalari, o'y-xayollari, ruhiy dunyosini anglash, demakdir. Badiiy asardagi har bir xarakter, xatti-harakatlar, detallar, voqealar rivoji, epizodlar orqali asar ruhiyati anglashiladi. Bu, nisbiy tushuncha. Chunki, badiiy asar ruhiyatini faqat yuqoridagi vositalar orqaligina tushunish mumkin, degan hukm noto'g'ri. Biroq, bu narsalar asarni to'laroq tushunishda vosita rolini o'ynaydi, xolos.

Adabiyotda psixologiya – bu belgilarni, qahramon ichki olami, dunyoqarashini o'quvchilariga topshirish. Tuyg'u va hissiyotlarni yetkazish va boshqa san'at turlariga ega bo'lish qobiliyati. Ammo psixologizm adabiyoti uning tasvirlari tufayli insonning ruhini eng kichik detallarga namoyish etish xususiyatiga ega. Qahramonning ichki dunyosini tasvirlashga harakat qiladigan yozuvchining tashqi qiyofasi, xonaning ichki qismlari haqida ma'lumot beradi. Odatda adabiyotda harflar psixologik holatini o'tkazish uchun manzara kabi bir usul ishlatilgan.

So'zning har qanday badiiylashtirilgan shakli, u og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'iy nazar, inson ma'naviy-psixologik olamiga ta'sir o'tkazishi jihatidan muhimdir. Badiiy asar tayyor holga kelgan taqdirda ham, o'quvchisini topmaguniga qadar, o'zining yetakchi estetik vazifasini bajara olmaydi. Faqat badiiy asarning o'quvchi bilan "muloqoti" boshlangan nuqtada u jonlanadi, retseptiv mohiyat kasb etadi. Xuddi shu nuqtada badiiy psixologizm mexanizmi ishga tushadi. So'zlovchi yoki yozuvchi badiiy bayoni, tasvir usuli, psixologik ifodalash uslubi jonlanadi. So'z ilmining yetakchi namoyondalari asarlarida qayd etilishicha: "obrazli qilib aytilgan so'z kishi ruhini o'ziga bo'ysundiradigan bir holat kasb etadi. Bu shundayki, ma'lum bir ishlar kishiga ko'rinmasdan, ular haqida biror fikr yuritilmasidan va uni e'tirof etilmasdan turib, ular kishiga xush keladi, ba'zilaridan esa kishi o'zini tiyadi. Bir so'z bilan aytganda, bunday narsadan odam bezovtalanadi, lekin bu bezovtalik ongli ravishda bo'lmay, balki nafsoniy – psixologik ta'sirlanganlik natijasida bo'ladi". Ibn Sinoning ushbu

fikrida soʻzning tinglovchi va oʻquvchiga taʼsiri undagi maʼnaviy-psixologik taʼsirlanish bilan bogʻliqligi, yaʼni retseptiv jarayon ekaniga alohida diqqat qaratilgan. Badiiy soʻz hodisasi insonlar jamiyatiga aynan ularning oʻzlarini oʻzlariga tavsiflash, taʼriflash, tasvirlash, koʻrsatish orqali taʼsirlantirish sanʼatidir. Bu serkulyativ jarayon boʻlib, ijtimoiy-tarixiy, maishiy-biografik, individual-psixologik hodisa va holatlarni kuzatish, ulardan taʼsirlanish, shu taʼsir doirasidan chiqmagan holda yoki shu holatga tushib tasvirlash, bayon etish, pirovard natijada boshqalarni ham taʼsirlantirishi kabi murakkab bosqichlardan tashkil topadi. Ayni serkulyativ jarayonni ilmiy-nazariy tushunchalar tarzida qayd etadigan boʻlsak, birinchisi “ijodiy jarayon”, ikkinchisi “retseptiv jarayon” deb nomlanadi. Badiiy psixologizm dialogik hodisa boʻlib, shu ikki jarayon oʻrtasida sodir boʻladi. Abdurauf Fitrat bu jarayonni quyidagi jumlada qisqa va aniq tarzda shunday ifodalaydi: “Adabiyot – fikr, tuygʻularimizdagʻi toʻlqunlarni soʻzlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu toʻlqunlarni yaratmoqdir”. A.Fitrat bunday shaklan loʻnda, usluban sodda, ilmiy jihatdan aniq taʼrifga tasodifan kelib qolgan emas, albatta. U bir mutafakkir sifatida Sharq nazariy adabiyotshunosligiga oid bilimlarni oʻziga singdirgan, ularni zamonaviy gʻarb adabiyotshunosligi bilan uygʻunlashtirgan edi. Darhaqiqat, badiiy soʻz hodisasi, ijodiy jarayon oʻzbek mumtoz adabiyotida azaldan mavjud hodisa edi. Eng qadimgi turkiy toshbitiklardagi monologik nutq orqali personajlar psixologiyasidagi vatantarvarlik, hayotsevarlik, kurashchanlik gʻoyalari badiiy vositalar orqali koʻtarinki pafosda bayon etilgan. Masalan, Kul tegin epitafiyasida oʻz davrining epik tasviri bilan birga, qadim ajdodlarimizning olamni qanday tasavvur qilganlari, bundagi psixologik holatlarning oʻziga xos badiiy tasviriga duch kelamiz. Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” asaridagi sheʼr, maqol, qoʻshiqlar, qasida, munozara kabi sheʼriy parchalarda ham oʻsha davr kishilariing individual-psixologik holatlari, xatti-harakatlari, idroklash va munosabatlari oʻziga xos tarzda aks ettirilganiga guvoh boʻlamiz. Oʻzbek xalqining “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli” kabi turkum eposlarida obrazlar ichki olamini

yoritish uchun qo'llangan psixologik usullar asar badiiyatini ta'minlashi bilan birga, badiiy psixologik tasvir takomili uchun bir muhim bosqich vazifasini o'tagan. "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida bu jihat juda ochiq ko'rinadi. Har bir obraz boshqa obrazlar bilan muloqot jarayonida xarakter xususiyatlarini yanada kengroq namoyon etadi. Ularning keskin burilishlar, favqulodda vaziyatlardagi holatlarini aks ettirishda bu jihat yaqqol ko'rinadi. Ayniqsa, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida qahramonning chiltonlar g'orida Xizr alayhissalom bilan uchrashuvi, "antaxur sharobi"ni ichishi, xalq qahramoniga aylanishiga oid epizodidagi psixologik tasvir har qanday yozuvchiga namuna bo'larlik darajada mukammalligi bilan o'quvchini hayratga soladi

Xususan, "Alpomish" eposidagi qator badiiy psixologik unsurlar Boybo'ri, Boysari, Alpomish, Barchinoy, Qaldirg'och, Qorajon, Maston kampir, Toychaxon kabi obrazlarning ruhiyatini, ichki olamini ifodalashga xizmat qilgan. Jumladan, Alpomishning Murodtepaga chiqish oldidan o'z-o'ziga aytgan monologida uning psixologik holati, ikkilanishi tasvirlangan. Folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori Sh.Turdimovning quyidagi xulosasi ushbu fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi: "Epos syujeti xalqning ko'ngil mulkida pishib yetiladi. Tilga ko'chadi. Bu yerda hukmbardor xalqning ruhi. "Alpomish" buning tasdig'i". Demak, badiiy psixologizmning kelib chiqishi adabiyot inson obrazini tasvirlay boshlagan davrlarga borib bog'lanadi. Aynan o'sha davrlardan boshlab adabiy qahramon xatti-harakatlarining asosini tashqi holatlarigina emas, balki uning ichki holatlari, intilish va ehtiyojlari tashkil eta boshlagan. G'arb adabiyotshunosligida bu hodisa psixopoetika (badiiy psixologiya) deb ataladi. Zamonaviy dunyo adabiyotshunosligida badiiy adabiyotni psixopoetik nuqtai nazardan tahlil va talqin qiluvchi bir qancha nazariy qarashlar, usul va metodlar ishlab chiqilgan. Ular orasida A.A.Potebnya, D.I.Ovsyaniko-Kulikovskiy, Z.Freyd, J.Lakan, K.Yung qarashlari keng tarqalgan. A.Potebnyaning fikricha, badiiy asarlarda obrazlar muhim bo'lib, har qanday obraz o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Zigmund Freyd shaxsning individual harakatlari uning faoliyatini

psixologik tahliliga asos bo'lishi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Jak Lakanning "psixoanaliz struktura"sida esa butun asar yaxlit psixologik tuzilma degan qarashlar yetakchilik qiladi. Bundan tashqari Alfred Adler, Karl Yung, Rene Uellek, Ostin Urren kabi olimlar badiiy asar va undagi poetik obrazlar yaratilishida psixologik mexanizmlarning o'rniga alohida e'tibor qilishgan. Olimlarning fikricha, psixologizm «yozuvchi shaxsini tip va betakror individuallik sifatidagi psixologik tahlili ijodiy jarayoni bo'lib, u yoki bu badiiy asarning yaratilish qonuniyatlari va tipologiyasi, nihoyat, adabiyotning o'quvchiga ta'sirini o'rganadi» Demak, badiiy psixologizm uch asosiy yo'nalishda rivojlanuvchi nazariy masalalarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, bu masalalarga e'tibor badiiy adabiyotda, xususan, nasrda so'nggi yillarda ancha faollashdi. Buning bir qancha ijtimoiy, badiiy-falsafiy hamda psixologik omillari mavjud. Birinchidan, ijtimoiy hayotimizda ro'y bergan qator o'zgarishlar, mustaqil o'zbek jamiyatining shakllanishi, inson omiliga, avvalgidek ulkan mexanizmning bitta vinti deb emas, balki individual sub'ekt, shaxs sifatida qarash kuchaydi. Ikkinchidan, badiiy-estetik qarashlarimizda yangi estetik idealni shakllantirishga intilish, dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji paydo bo'ldi. Uchinchidan, globallashtirish jarayonini boshdan kechirayotgan inson omiliga munosabat masalalari, jahon adabiyotida bo'lgani kabi, o'zbek nasrida ham qator o'zgarishlarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, dissertatsiyamizning o'zak muammosi sifatida tadqiq etilayotgan badiiy psixologizm masalasi madaniy-tarixiy, falsafiy-psixologik, badiiy-estetik mohiyat kasb etishi bilan birga, muhim nazariy tushuncha sifatida zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi takomili uchun xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiyoti materiallari asosida ayni badiiy hodisaga xos nazariy kriteriylarni umumlashtirish, yangi qirralarini aniqlash zaruratini ko'rsatadi. Zamonaviy adabiyotshunoslik ilmidagi "badiiy psixologizm" tushunchasi bugungi kunda semantik jihatdan yetarlicha aniq emasdek taassurot uyg'otadi. Tadqiqotchilar umumiy va amaliy xarakterdagi ishlarida bu terminni bot-bot qo'llaydilar. Ammo unga xos kriteriylarni belgilashda fikrlar mazmuni

ba'zan qarama-qarshi kelib qolgan holatlar ham uchrab turadi. Chunki badiiy psixologizm adabiyotshunoslar diqqat markazida turgan nisbatan murakkab hodisalardan biri hisoblanadi: uning o'ziga xos xususiyatlari va ko'p jihatlilik, bir tomondan, muammoni o'rganish jarayonida ko'pgina fanlarga oid bilimlarni talab etishida (psixologiya, falsafa, estetika, adabiyotshunoslik fanlari sarhadlarini qamrashida) namoyon bo'lsa, boshqa tomondan—adabiyotshunoslikning barcha asosiy muammolari bilan bevosita aloqadorligida ko'rinadi.

Mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy ijoddagi psixologizm masalasi ko'p marta ko'tarilgan. Mazkur muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarning seroblighi va uni ko'p jihatdan (nazariy, adabiytarixiy, analitik nuqtai nazarlardan) o'rganish mumkin ekanligigiga qaramasdan, bugungi kunda quyidagilarning yetishmasligi yaqqol sezilib qolmoqda:

- badiiy psixologizmga xos nazariy kriteriyalar to'la-to'kis aniqlanmagan; - badiiy psixologizm prinsiplarining o'zgarib borishi, har bir davr, adabiy muhit, individual ijodkor asarlarida uning nisbatan farqli ko'rinishlarda namoyon bo'lish tabiati e'tibordan chetda qolib keladi;

- terminologik aniqlik yetishmaydi. Turli tadqiqotlarda bu terminning xilma-xil shakl o'zgarishlariga uchrashi kuzatiladi;

- metodologik jihatdan badiiy psixologizm hodisasiga nisbatan turli tahlil metodlarining umumlashtirilgan kompleks talqin shakli mavjud deya olmaymiz.

Demakki, konkret ijodkor, konkret badiiy asar psixologik tahlilini amalga oshirish uchun dastlab ushbu nazariy-metodologik muammolar xususida bir to'xtamga kelib olish zarurati bor. A.B.Yesin: "Psixologizm – bu adabiyotning o'ziga xos vositalari ko'magida xayoliy (to'qilgan) shaxs (adabiy personaj) his-tuyg'u, fikr va kechinmalarini yetarlicha to'liq, batafsil va chuqur qilib tasvirlash", degan ta'rifni beradi. L.Ya.Ginzburgning ta'kidlashicha, psixologizm personaj ichki dunyosining ratsional, soddalashtirib tasvirlanishi bilan baqamti emas, balki: "Badiiy psixologizm qahramonning o'zini tutishidagi xayolga ham kelmagan, nogahoniy, tasodifiy qarama-qarshiliklardan boshlanadi". V.V.Kompaneyes

tomonidan psixologizm tasvir usulidan ko‘ra, muallif psixologiyasini badiiy aks ettirish vositasi deb tushuniladi. “Asarda psixologik tahlilning paydo bo‘lishi, – deya qayd etadi V.V.Kompaneyes, – uning shakli va tipologiyasi ko‘pincha yozuvchi dunyoqarashiga, maqsadiga, iste’dodi va shaxsiy fazilatlarining xarakteriga, asardagi vaziyatga qaramdir. Ayni chog‘da, aftidan, psixologik tahlilni onglilikka asoslangan estetik prinsip sifatida baholay turib, uning u yoki bu xususiyatlari so‘z rassomi tomonidan atay tanlanganligini nisbiylashtirish shart emas”.

A.Iyezuitov esa adabiyotda psixologizm muammosini o‘rganar ekan, mazkur tushunchaning ko‘p ma’noli ekanligini qayd etadi. Ularni uchga bo‘lib ta’riflaydi: “1) so‘z san’atining tug‘ma belgisi, uning uzviy xususiyati, badiiyatining isboti; 2) badiiy ijod mahsuli, muallif, uning personajlari va yanada kengroq – yozuvchi shaxsiyati va u yaratgan qahramonlar obrazi orqali ochiladigan jamiyat psixologiyasining (sinf, tabaqa, ijtimoiy guruh, davr va h.k.) ifodasi va aksi; 3) ongli va belgilovchi estetik tamoyil”. R.Uellek va O.Uorrenlarning “Adabiyot nazariyasi” kitobida: “adabiyot psixologiyasi” termini ostida, asosan, “u yoki bu badiiy asar yaratilishining psixologik tipologiyasi va qonuniyatlarini o‘rganishni tushunish mumkin”. Binobarin, “Badiiy psixologizm bu qahramonlarning g‘oyaviy-psixologik izlanishlarini o‘zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishini, shaxs dunyoqarashidagi asoslarni adabiyot tomonidan o‘zlashtirilish shaklidir. Psixologizmning ma’rifiy-muammoviy va badiiy qimmat, eng avvalo, shunda ko‘rinadi”. Ba’zi tadqiqotchilar: “qahramonlar psixologik hayotini uning chuqur ziddiyatlari fonida tekshirish”ni tushungan holda, muallif, kitobxon va qahramon psixologiyasini bir-biridan farqlash zarurligini taklif qilishadi. Masalani izohlashdagi xilma-xillikni, adabiyotshunoslikda psixologizm muammosiga yondashuvlar har tomonlama kechayotganini va bu terminning keng va tor ma’nolari borligini ko‘rsatadi. Bizningcha, psixologik tahlil bobidagi mahoratni belgilashda mazkur ta’riflardan badiiy asar tabiatidan kelib chiquvchilarigina eng muhimlari hisoblanishga loyiq. Aynan shu xususiyat va

kriteriylarni belgilab olish va ularni badiiy psixologizmga xos yangi xossalari bilan boyitish u yoki bu badiiy asar yaratilishining qonuniyatlarini o'rganishda qo'l keladi. Masala mohiyatini uzil-kesil belgilab olishning murakkabligi psixologizmning mazmuniy-shakliy sifatlari bilan izohlanadi. Agar adabiyotshunoslarning aksariyati qahramonlar ichki olamini badiiy tasvirlash usulini psixologizm deb hisoblashsa, uning bugungi adabiy-nazariy tushunchalar va asar ko'p qatlamliligi tizimida tutgan o'rnini belgilashga bo'lgan urinishlar yetarli samarani bermaydi. Modomiki, muhokama doirasiga badiiy tasvir va ifoda vositalari (portretlar, psixologik peyzaj va detallar) hamda "predmetlar olami bilan bog'lanmagan, tasviriyligi yaqqol ko'rinib turmaydigan narsalar – personajlar ruhiyatini ifodalash" ham kiradi. Personajlar ruhiyatini ifodalashning o'zini ba'zilar uslubga (A.B.Yesin), ayrimlar obrazli mazmunga (I.I.Vinogradov), boshqa birovlar shakliy-mazmuniy sifatga xos xususiyat deya tushunishgani uchun ham bu borada aniq bir to'xtamga kelish murakkablashadi..

Professor X.Umurov haqli ravishda: O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida "psixologizm" va "psixologik tahlil" terminlari farqlanmay ishlatiladi, deb yozadi. Bundan tashqari, yuqoridagi terminlarning o'zbekcha variantlari ham ko'p bo'lib, ularning hammasi ham bir xil ma'noda qo'llanadi. Masalan, "Adabiyot nazariyasi"da (quyidagi nashr nazarda tutilgan: Adabiyot nazariyasi. II tom. -T., 1979) "psixologizm", "ichki dunyo tasviri", "psixologik analiz"; M.Abdurahmonova – "ruhiy dunyo tasviri", "ruhiy tahlil", "psixologik tasvir"; N.Shodievning "Ruhiyat rassomi" risolasida – "psixologik tahlil", "ichki hayot tasviri" kabi²².

Bizningcha, "ichki dunyo", "ichki hayot", "ruhiy dunyo", "psixologiya" terminlarni sinonim sifatida ishlatish mumkin. Chunki bularning barchasi insonning sub'ektiv dunyosini, shaxs hayotining boshqalarga ko'rinmaydigan nomoddiy, faqat shu shaxsning o'zigagina aniq ma'lum bo'lgan - boshqalarga esa

²² 22. Umurov H. - Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi – Toshkent. Fan, 1983 – 11-12-b

ishora, belgi, ramz tarzida namoyon bo'ladigan ruhiy-ma'naviy tomonini ifodalaydi.

“Psixologik analiz”, “psixologik tahlil”, “ruhiy tahlil” atamaları ham o‘zaro ma’nodosh. Ammo “psixoanaliz” terminini “psixologik analiz”ning qisqartmasi tarzida bu qatorga qo‘shib bo‘lmaydi. Chunki bu so‘z XIX asr oxiri - XX asr boshlarida avstriyalik vrach-psixoterapevt Zigmund Freyd asos solgan nazariy qarashlar sistemasini anglatadi, psixoanaliz - termindir.

Psixoanaliz - meditsinaning psixiatriya va psixologiya sohalaridagi yangi yo‘nalish. O‘tgan asrda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda maydonga kelgan ko‘pgina yangiliklar psixoanalizga borib taqaladi. Psixoanaliz inson va uning ruhiyati haqidagi shu paytga qadar qat’iylashgan ratsional qarashlarni sindirdi; inson ruhiy olamining aqlga sig‘maydigan, tasavvurga sig‘dirish esa qiyin bo‘lgan murakkab farqlarini ochib berdi. Unga ko‘ra, insonning xatti-harakatlari va intilishlari aql va ongdan ko‘ra, irratsional - ya’ni aqldan tashqari unsurlar bilan - ong ostida yotgan xohish-istaklar bilan ko‘proq bog‘langandir. Mana shu jihati, ya’ni irratsional unsurlarga urg‘u berishi bilan psixoanaliz - odamzod o‘zining dastlabki asosiga aql bilan emas, ko‘ngil bilan qaytadi, degan g‘oyaga asoslangan tasavvufni eslatadi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida dunyo miqyosida ro‘y bergan ijtimoiy to‘lqinlar, qonli kurashlarning avj olishi, turli tabaqaga mansub odamlar barchasining bu kurashlarga tortilishi va mana shu voqea-hodisalarning marksizm ta’limotida iqtisodiy bazaga asoslanib talqin qilinishini psixoanalizning maydonga keltirgan eng muhim ijtimoiy-siyosiy faktorlar (1-ilova) deb hisoblaymiz.

“Adabiyot ham psixoanaliz kabi inson borlig‘iga universal yondashish xususiyatiga ega”²³. Bu fikrda jon bor. Ayni paytda psixoanalizning badiiy adabiyot bilan aloqasi juda ko‘p tomonlama bo‘lib, uni konkret shakllarda quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

²³ 21. Jo‘raqulov U. - Hududsiz jilva - b53

- psixoanaliz ruhiy jarayonlarni tekshiradi, badiiy adabiyot esa ruhiy jarayon hosilasi;

- badiiy asar - muallifning ong osti istaklari ro'yobi, muallifning reallasha olmagan xohishlarining boshqacha shaklda reallashuvi, sublimatsiyadir;

- yozuvchi o'z asarida psixoanalitik hodisalarni aks ettiradi, bu uning inson ruhiyati qavatlariga chuqur kira olganligini ko'rsatadi;

- ayrim yozuvchilar psixoanaliz yutuqlaridan xabardor, ular ataylab o'z asarlariga shunday ruhiy hodisalarni tasvir etadilar, yozuvchi ham o'z qahramoni ruhiyati qavatlarini ochib borar ekan, psixoanalitikka o'xshab ketadi;

- psixoanalitiklar juda ko'p hollarda badiiy adabiyotga murojaat qilganlar, o'z nazariyalari tasdig'ini badiiy adabiyotdan qidirganlar;

- badiiy asar tahlilida psixoanalitik metodlardan foydalanish mumkin;

- psixoanalitiklar ayrim yozuvchilar ijodi sirlarini uning shaxsiy hayoti, ruhiyati bilan aloqadorlikda ochib berganlar;

- Freyd o'z asarlarida quyuq obrazlilikdan foydalangan.

Umuman, har ikki sohani tadqiqot obyekti birlashtirib turadi. Chunki psixoanaliz ham, badiiy adabiyot ham inson, uning ruhiyati bilan qiziqadi. Adabiyot inson va uning hayotini badiiy umumlashtirish asosida aks ettiradi. Badiiy asarda psixologik jihatdan asoslanmagan voqea-hodisalarni aks ettirish kitobxonni ishontirmaydi, asarning san'at asari sifatidagi qimmatini tushiradi. Chunki badiiy adabiyotning muhim talablaridan biri hayot haqiqatlarini to'g'ri aks ettirishdir. Ammo hayot haqiqatlarini to'g'ri aks ettirishni hayotni naturalistik illyustratsiya qilish deb ham tushunish kerak emas. Chunki adabiyot hayotda aynan bo'lgan voqealarni emas, hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarni hayotda bo'lishi mumkin tarzda (tipiklik) ifodalaydi. Chinakam san'atkorlar hamma davrlarda inson ruhiyatining chuqur bilimdonlari bo'lganlar. Shu boisdan ham psixoanalitiklar ayrim masalalarda badiiy adabiyotdan javob izlaganlar.

Umuman, "psixoanaliz"dan tashqari, yuqoridagi "psixologizm", "ichki dunyo tasviri", "psixologik analiz", "ruhiy dunyo tasviri", "ruhiy tahlil", "psixologik

tasvir”, “psixologik tahlil”, “ichki hayot tasviri” kabi teminlarning barchasi bir jarayonning turli bosqichlari va mahsulini anglatadi. Ya’ni ijodkor dastlab inson psixologiyasini o‘rganadi, uni idrokida tahlil qiladi. Keyin tanlash prinsipi asosida inson ruhiyatini badiiy matn talabiga ko‘ra tasvirlaydi, aks ettiradi.

Badiiy psixologizm masalasi adabiyotshunoslik uchun yangilik emas. Professor X.Umurov kuzatishlariga ko‘ra, inson psixologiyasi tasvirining badiiy adabiyotdan o‘z qonuniy o‘rnini egallashi nemis sentimentalizmi va ingliz "gotik romani"ning maydonga chiqishi bilan bog‘liq; to bunga qadar - Aristotel davri uchun tashqi hodisalarni badiiy tasvirlash - mimesis; klassisizm davri uchun esa "tafakkur qonuni" birinchi o‘rinda bo‘lgan. Akademik Izzat Sulton fikriga ko‘ra, badiiy adabiyot taraqqiyotining realizm va tanqidiy realizm bosqichi (XIX asrdan boshlab) odam tasvirida ikki muhim prinsip: sotsiologizm (yoki sotsial determenizm) va psixologizm (yoki psixologik determenizm)ni tasdiqlash bilan jahon adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi; “psixologik determenizm insonning xulqi va harakatiga uning dunyosi, psixologiyasi ham sababchi ekanini tasdiq etdi va insonning ichki dunyosiga chuqur kira bilishni - mahoratning yana bir, juda muhim faktori va talabi sifatida olg‘a surdi”²⁴. Albatta, bu fikrlar chin haqiqat. Ammo Sharq adabiyotida, birgina o‘zbek adabiyotining o‘zida Alisher Navoiy tomonidan epik dostonlarda, lirik asarlarda inson ruhiyatining qavat-qavat sirlari ochilgani, Sharqning buyuk shoiri tomonidan badiiy psixologizmning xilma-xil usul va vositalari qo‘llangani ham haqiqat²⁵.

Badiiy psixologizmni so‘z san’atining muhim kategoriyalaridan biri sifatida o‘rganish rus adabiyotshunosligida XIX asrdayoq N.Chernishevskiyning tadqiqotlari bilan boshlangan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunosligida bu bosqich XX asrning 60-yillariga to‘g‘ri keladi²⁶. So‘z san’atida badiiy psixologizm hodisasi

²⁴ 20. Sulton I. – Metodning imkoniyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1974 – 5-son 12-b

²⁵ 18. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. – T., Fan. 1983; shu muallif. “Xamsa”da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy “Xamsa”si (tadqiqotlar). – T., Fan, 1986. – 63-81-b

²⁶ 22. Umurov H. - Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi – Toshkent. Fan, 1983

ancha chuqur ildizlarga ega bo'lgani singari, adabiyotshunoslikda ham bu masalani o'rganish yangilik emas. Shunday bo'lishiga va badiiy psixologizm masalasi ilmiy tadqiqotlarda ancha-muncha o'rganilganiga qaramasdan, badiiy psixologizmga munosabat nazariy adabiyotlarda aks etmagan.

Professor X. Umurov to 1983- yilgacha yaratilgan nazariy adabiyotlarda: "Badiiy psixologizm haqidagi fikr-mulohazalarga duch kelmaymiz. Bu esa o'z navbatida nazariya bilan praktika o'rtasida katta "uzilish"ni yuzaga keltirmoqda"²⁷. Shuningdek, keyingi yillarda nashr qilingan nazariy adabiyotlarda ham bu masala nazardan chetda qolgan²⁸. Lug'atlar alifbo tartibida tuziladi, ularda "badiiy psixologizm" tushunchasini berish qiyin emas. Ammo badiiy psixologizm adabiyot nazariyasining qaysi masalasi ichida tavsiflanishi va o'rganilishi kerak?

Aslida badiiy psixologizm masalasiga obraz, ijodiy metod, yozuvchi uslubi, hayot haqiqati va badiiy haqiqat, badiiy mahorat kabi masalalar ichida duch kelaverish, shuning uchun bu masalani shu o'rinlarda qisman-qisman yoritaverish mumkin, lekin bitta masalani turli joylarga sohib yuborish ham durust emas. Bizningcha, badiiy psixologizm, garchi keng qirrali masala bo'lsa-da, uning ko'proq inson xarakteri bilan bog'liq ekanligidan kelib chiqib, "badiiy obraz" haqidagi bo'limda tavsiflash maqsadga muvofiq. Alisher Navoiy "Xamsa"sida badiiy psixologizm tiplarini o'rgangan olim Yoqubjon Is'hoqov "Badiiy adabiyotda inson xarakterini yaratishda, inson ruhiy olami bilan bog'liq murakkab jarayonlarni tadqiq etishda psixologizmning roli katta. Psixologizm xarakter yaratishning muhim vositalaridan biri" deb hisoblaydi²⁹.

L.Tolstoy dramaturgiyasini tadqiq qilgan rus adabiyotshunosi V.Osnovin qarashiga ko'ra esa, qahramon xarakteri uning ruhiyatining lahzalik

²⁷ 22. Umurov H. - Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi – Toshkent. Fan, 1983 – -b

²⁸ Барабаш О.В. Психологизм как конструктивный компонент поэтики романа Л.Н. Толстого "Анна Каренина": диссертация кандидата филологических наук.-Москва, 2008 (<http://www.dslib.net/russkaja-literatura/psihologizm-kakkonstruktivnyj-komponent-pojetiki-romana-l-n-tolstogo-anna.html>).

²⁹ 14. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – А.: Ҳаёт нашриёти, 2002. 29-30 б

voqelanishlarini ko‘plab marta qayd etish (tasvirlash) vositasida hosil qilinadi. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, badiiy psixologizm, asosan, badiiy obraz bilan chambarchas bog‘langan hodisadir.

Badiiy psixologizm adabiy tur va janrlar kesimida ham farqli jihatlarga ega. Masalan, lirika bus-butun holda insonning ichki dunyosi, ruhiy olami tasviriga yo‘naltirilgan. Lirik asarlarda kitobxon olamni sub’ekt - lirik qahramonning his-tuyg‘ulari prizmasi orqali idrok etadi. Shunga ko‘ra, lirikada badiiy psixologizm markaziy o‘rinni ishg‘ol qiladi, badiiy psixologizmsiz lirika mavjud bo‘lolmaydi. Badiiy psixologizm - lirikaning mavjudiligi shartidir. Lirikaning inson qalbi kechinmalarini tasvirlashdan, ichki dunyoning qavat-qavat sirlarini ochishdan boshqa vazifasi yo‘q³⁰.

Badiiy psixologizm asosini inson ishtirokidagi hayotiy voqea tashkil qilgan epik va dramatik asarlarda xarakter yaratish vositasi sifatida amal qilsa-da, bu adabiy turlarning har birida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ya’ni dramatik asarda xarakter yaratishning asosiy vositasi qahramonning nutqi, monolog va dialoglardir. Shuning uchun ham dramatik asarlarda qahramon ruhiy dunyosini ochishning ham asosiy vositasi dialog va monologlar; voqealar rivojiga bog‘liq ravishda maktubdan foydalanish mumkin. Badiiy psixologizmning portret, peyzaj psixologik detal, psixologik tafsilot kabi ko‘rinishlarini qo‘llash imkoniyatlari dramada juda cheklangan: tush, gallyutsinatsiya kabi vositalardan foydalanish ham o‘ziga xos murakkabliklariga ega.

“Psixologizm – bu aniq adabiy vositalar yordamida xayoliy odamning (adabiy belgi) his-tuyg‘ulari, fikrlari va tajribalarini yetarlicha to‘liq, batafsil va chuqur tasvirlash”, deb ta’kidlaydi³¹. V.V.Yo‘ldosh psixologizmni texnika sifatida emas, balki badiiy adabiyotning xususiyati, shu jumladan muallif psixologiyasining aksi

³⁰ 14. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – А.: Ҳаёт нашриёти, 2002. 100-102 б

³¹ 19. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Т.: Маънавият, 2000. 27-бет.

deb biladi.³² Yuqoridagi hukmlar turli xil talqinlarni tugatmaydi, ammo ular 70-80-yillarda sovet adabiyotshunosligida psixologizm muammosiga yondashuvlarning noaniqligini isbotlaydi. va atamaning hech bo‘lmaganda keng va tor ma’nolarining mavjudligi. Masalan, psixologizm tushunchasini Jezuitlar³³ uchta asosiy ma’noga qisqartiradi:

1. umumiy so‘z san’ati, badiiylik dalili;

2. badiiy ijodning natijasi, muallifning o‘zi, uning personajlari va kengroq qilib aytganda, ijtimoiy psixologiya (sinf, mulk, ijtimoiy guruh, davr va boshqalar) psixologiyasini ifodalash va aks ettirish, bu o‘z navbatida rassomning shaxsiyati va u yaratgan qahramonlarning obrazlari orqali ochib beriladi;

3. estetik prinsip. Psixologizmning obykti psixologizmning badiiy natijalari sifatida badiiy ijodning maxsus, birlamchi va bevosita maqsadi va vazifasi sifatida ishlaydi.

Badiiy psixologiya – insonning ichki hayotini badiiy-majoziy, tasviriy va ifodali qayta qurish va aktuallashtirish, muallifning qadriyat yo‘nalishi, uning shaxsiyati va aloqa strategiyasi haqidagi g‘oyalari. Psixologik obraz ruhiy sohaga kirib boradigan haraktnng fiziologik sohasini (his-tuyg‘ulari, holatlari) va uning shaxsiy tajribasini badiiy o‘rganish.

Psixologik romanning tadqiqotchisi Zababurova asarni bosqichma-bosqich tahlil qilishni nazarda tutgan holda psixologizmni o‘rganishga kompleks yondashishni taklif qildi:

1.psixologik muammolarning turi. U muallifning badiiy tafakkurining dunyoqarashi va xususiyatlarini belgilaydigan adabiyotdan tashqari (ijtimoiy-tarixiy, falsafiy, ilmiy) va adabiy (adabiy an’analar, ma’lum bir adabiy yo‘nalishning estetik kontseptsiyasi va boshqalar) ta’sirini aks ettiradi. Ushbu

³² 23. Straxov I.V. Psixologicheskiy analiz v literaturnom tvorchestve: posob. dlya stud. /V 5 ch./ - Saratov: Izd. Saratovskogo universiteta, 1973. –CH. 1. S. 14

³³ 24. Nazarov B. Davr va qahramon // O‘zbek adabiy tanqidchiligi. –T.: Fan. 1979. 96, 215 – betlar.

masala asosan psixologizm tabiati uchun zarur bo'lgan asarning janr dizaynini belgilaydi;

2.ma'lum bir davrga va ijtimoiy muhitga xos bo'lgan shaxs tushunchasi (badiiy tarkib va ichki hayotning shakllanishida amalga oshiriladi);

3.badiiy tizim va ijodiy usul (badiiy psixologizm shakllarining tarixiy tipologiyasi ijodiy uslublar evolyutsiyasi bilan o'zaro bog'liq);

4.poetikaning darajasi.

V.A.Maslova³⁴ tahlili esa quyidagicha:

1.asarning ayrim elementlarining o'ziga xos xususiyatlarini va ularning yaxlitligini ochib berish;

2.matnga lingvistik va adabiy yondashuvlarni birlashtirish;

3.“matnni yaratgan muallif bilan, ushbu matnni o'qigan o'quvchi bilan” o'zaro bog'lash. Yangi asrning badiiy nasrida psixologizmni sifat jihatidan modifikatsiyalash g'oyasidan (harakterlar parchalanishi, xronotopik, ramziy, mifologik usullar) yangi asrning badiiy nasridan boshlab, asarning turli darajalarida va ularning o'zaro bog'liqligida (tizimida) psixologik xususiyatlarni ochib berishga imkon beradigan tadqiqot yo'lini tanlash mumkin.

Estetik obyekt va hissiy-tafakkur tajribasini “sifat kompleksi” da ko'rib chiqishni taklif qilgan R.Ingarden³⁵ ga ergashib, biz matnning psixologik mazmunini funksional ahamiyatga ega nuqtai nazardan tahlil qilishni tabiiy deb bilamiz.

Adabiyotda psixologizm – bu adabiy qahramonning his-tuyg'ulari, fikrlari va tajribalarini to'liq, batafsil badiiy tasvir yordamida ochib berish san'atidir. Psixologizm – muallifning qahramon ichki dunyosini badiiy vositalar bilan tasvirlashi natijasida yuzga kelgan asardir. Badiiy adabiyotning asosiy jozibali xususiyatlaridan biri bu insonning ichki dunyosi sirlarini ochish, ma'naviy harakatlarni inson kundalik, oddiy hayotda qila olmaydigan darajada aniq va

³⁴ Гинзбург, Л.Я. О психологической прозе. О литературном герое. СПб.: Азбука, 2016. 48-56 ст

³⁵ 25. Quronov D va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. –T.: «Akademnashr» 2010 y. 277-bet.

ravshan ifodalash qobiliyatidir. Psixologizm - bu adabiy asarlarga xos uslub bo'lib, unda personajlarning ichki dunyosi batafsil va chuqur tasvirlangan, ya'ni ularning hissiyotlari, fikrlari, aqliy hodisalar va xulq-atvorning nozikliklari psixologik tahlilda beriladi.

A.B.Esinning³⁶ fikriga ko'ra, psixologizm - bu qahramonning hissiyotlari, fikrlari, tajribalarini (adabiy belgi) o'ziga xos badiiy vositalar yordamida yetarlicha to'liq, batafsil va chuqur tasvirlashdir". Badiiy asarda psixologizm kitobxonga asar qahramonlari ruhiyati va ichki olamini his qilishiga, asarning mazmun-mohiyatini ravshan tushunishiga xizmat qiladi.

1.2. Qahramon ichki olami va uni kashf etish vositalari

Har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi badiiy asarlar salmog'i bilan tayin etiladi. Chunki badiiy asar millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Badiiy asardagi qahramonlar taqdiri orqali millat ruhiyati, qarashlari, o'y-fikrlari ochib beriladi.

Qahramon atamasiga adabiyotshunoslik atamalari izohli lug'atida shunday ta'rif beriladi:

Adabiy qahramon – asar personajlari tizimida yetakchi bo'lib, g'oyaviy-badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalashda muhim ro'l o'ynovchi shaxs obrazi. Terminni bu ma'noda tushunish epik yoki dramatik asar personajlarini darajalashni ko'zda tutadi: syujet voqealari qahramon atrofida birlashtirilib, boshqa personajlar u bilan bog'liq holda asar voqeligiga kiritiladi; ular qahramon bilan integrativ aloqada (hokim-tobe) bo'lib, unga nisbatan yordamchi funksiyalarni bajaradi. Ko'p chiziqli murakkab syujet qurilishiga ega yirik hajmli asarlarda bir emas, bir nechta qahramon harakatlanishi ham mumkin. Bu holda personajlar sistemasi o'z ichida mikrosistemalarga ajralib, ularning markazida qahramonlardan biri turadi³⁷. Darhaqiqat, badiiy asar roman va qissa yoki hikoya bo'ladimi – har

³⁶ Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. - М.: Флинта: Наука, 2011. 56-59 сг

³⁷ 25. Quronov D va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lufati. –T.: «Akademnashr» 2010 y. 277-bet.

bir asarning o‘z qahramoni bor. Shunday ekan bularning namoyon bo‘lish qirralarini tasniflab o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nasrning bugunini tushunish va istiqbolini bashorat qilish uchun bu janrning nima uchun, qachon va qayerda paydo bo‘lganini aniqlash hamda unga xos yetakchi belgilarni tayin etish lozim bo‘ladi. Bugungi kunda o‘zbek nasri o‘z taraqqiyotining polifonik bosqichiga yetib keldi. Endilikda, mavzuning dolzarbligi, voqealarning qiziqarli yoxud tilning shirali ekani asarni o‘qishli qilgani holda, uning umrboqiyiligini ta’minlay olmasligi mumkinligi anglab yetildi. Zamonaviy o‘zbek nasri muallifidan har bir qahramonini tushunish va aks ettirishning birovnikiga mutlaqo o‘xshamaydigan konsepsiyasiga ega bo‘lish talab qilinadi. Bu borada faol qalam tebratayotgan U.Hamdam, I.Sulton kabi nasrnavislar ijodini keltirish mumkin. Ma’lumki, badiiy asarni tahlilga tortayotib, psixologik tasvirning turli asarlarda turlicha vazifalarni bajarishini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Ba’zi asarlarda ruhiy tahlil va psixologik detallar unchalik ko‘p emas, faqatgina muallif niyatini amalga oshirishga yordamlashib yuborish uchun ishlatiladi. Bunday hollarda biz faqat psixologik tasvir elementlari haqida gapirishimiz mumkin. Ayrim hollarda esa, psixologik tasvir matnning salmoqli qismini band etish barobarida boshqa unsurlarga nisbatan mustaqillik kasb etadi va asar mazmunini tushunishning favqulodda muhim jihatiga aylanadi. Bizningcha, bunday asarda alohida badiiy sifat – psixologizm yuzaga keladi. Psixologizm bu badiiy tasvir vositalari ko‘magida qahramon ichki olami:uning fikrlari, kechinmalari, xohishlari, hissiy holatlarini batafsil tasvir orqali kashf qilishdir. Psixologik tasvirning uch asosiy formasi mavjud bo‘lib, ichki olam tasviridagi barcha konkret usullar alal-oqibat o‘shalarga borib taqaladi. Bu uch formaning ikkitasi nazariy jihatdan rus adabiyotshunosi I.V.Straxov tomonidan ajratib ko‘rsatilgan edi³⁸: “Psixologik tahlilning asosiy formalarini xarakterlar tasvirining “ichki” – harakatdagi shaxslarning ichki dunyosini ularning ichki nutqlari, xotira obrazlari va

³⁸ 23. Straxov I.V. Psixologicheskiy analiz v literaturnom tvorchestve: posob. dlya stud. /V 5 ch./ - Saratov: Izd. Saratovskogo universiteta, 1973. –CH. 1. S. 14

tasavvurlari ko‘magida badiiy ifodalash;“tashqi” – yozuvchining nutqni, nutqiy o‘zini tutishning ifodaviy xususiyatlarini, mimika va psixikaning boshqa tashqi ko‘rinishlarini ruhiy tahlil qilishi kabilarga ajratish mumkin”. Psixologik tasvirning birinchi shaklini shartli ravishda bevosita, ikkinchisini esa bilvosita deb ataymiz. Chunki uning ko‘magida biz qahramon ichki olamini bevosita emas, balki ruhiy holatning tashqi belgilari orqali bilib olamiz. Psixologizmning asosiy usullari haqida gap ketganda, birinchi navbatda, yozuvchining hikoya qilish usuliga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Inson ichki olamining tasviri birinchi shaxs tilidan ham, uchinchi shaxs tilidan ham berilishi mumkin. Bu hikoya qilish shakllarining har biri turlicha imkoniyatlarga ega. Birinchi shaxs tilidan hikoya qilish qahramon ruhiy suvratining haqiqatga yaqin illyuziyasini yuzaga keltiradi. Chunki o‘zi haqida insonning o‘zi gapirayapti. Ko‘p hollarda birinchi shaxs tilidan hikoya iqror xarakterida bo‘ladiki, bu o‘z navbatida ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Hikoya qilishning bu shakli ko‘pincha asarda bosh qahramon bitta bo‘lib, muallif va kitobxon uning ongi va ruhiyatidagi o‘zgarishlarni kuzatib borayotgan hollarda qo‘llaniladi. Qolgan personajlar ikkinchi darajali bo‘lib, ularning ichki dunyosi aytarli tasvirlanmaydi. Uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish ichki dunyo tasviri bobida kengroq imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu shunday usulki, uning yordamida muallif kitobxonni hech qanday cheklovlarsiz personaj ichki dunyosiga olib kiradi va ruhiyat iqlimlarini chuqurroq, batafsilroq ko‘rsatadi. Qahramon qalbida muallif bilmaydigan sir yo‘q – u qahramon haqida hamma narsadan voqif, muallif ichki jarayonlarni miridan-sirigacha tahlil qilishi, tuyg‘ular, fikrlar, kechinmalar o‘rtasidagi sabab-shart aloqalarini tushuntirishi ham mumkin. Hikoyachi qahramonning o‘z-o‘zini tahlil qilishini sharhlab o‘tishi, hatto qahramon o‘zi ilg‘amagan yoki tan olishni istamagan ruhiy kechinmalar haqida so‘zlashi mumkin. Bir vaqtning o‘zida roviy qahramonning tashqi o‘zini tutishini, mimikasi, plastikasini psixologik tahlil predmetiga aylantirishi ham ehtimoldan xoli emas. Uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish asarga psixologik tasvirning turli usullarini jalb etish imkonini beradi. Bunday hikoya to‘qimasiga ichki monologlar, oshkora

iqrorlar, kundalik va maktublardan parchalar, tushlar, gallyutsinatsiyalar yengilgina qorishib ketaveradi. Uchinchi shaxs tilidan hikoya badiiy vaqt bilan erkin munosabatga kirisha oladi, qahramon ruhiyatida kechadigan oniy holatlar tahlili chog'ida vaqt uzoq muddatga to'xtab qolishi yoki asarda tasvirlanayotgan uzoq muddatli voqealar haqida qisqa ma'lumot berilishi mumkin. Bunga syujet tarmoqlarining aloqasini misol keltirish mumkin. Bu muallifga umumiy hikoya qilish tizimida psixologik tasvirning salmog'ini orttirish, kitobxon e'tiborini voqealar tafsilotidan his-tuyg'ular tafsilotiga ko'chirish imkonini beradi. Shuningdek, bunday sharoitda psixologik tasvir o'zining maksimal detallashtirilgan darajasiga ko'tariladi: daqiqalar va hatto soniyalar ichida yuz beradigan ruhiy o'zgarishlar tasviri bir necha sahifani egallaydi. Nihoyat, uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish orqali bir emas, bir necha qahramonlar ichki olamini tasvirlashga erishiladi.

“Badiiy asarda bosh qahramon asarning asosiy g'oyasi va umumiy ruhini pafos darajasida ushlab turishi lozim. Yo'qsa, asar pafosiga ham, qahramon jozibasiga ham putur etadi”, - deb yozadi akademik B.Nazarov³⁹.

Qahramon hayoti davomida ko'rgan kechirganlaridan xulosa chiqara-chiqara, odamlardan “begonalashib” boradi. Asrlar mobaynida yechimini topmagan masalalardan charchagan paytlari “o'ziga qamalib olgisi” keladi. Xuddi shu yerda tasvirlanayotgan barcha voqea-hodisalar ruhiylashadi va ruhiy tahlil foydasiga ishlaydi. Voqealar tasviri ichida ham yozuvchi shaxsi yaqqol ko'rinib turadi. Faqat ijodkorning mahorati shundaki, u yaratgan obrazlarning hammasi har xil, biri ikkinchisiga o'xshamaydi, individual, o'ziga xos. Ular she'riyatdagi lirik qahramon yoki timsollar prototipi emas. Ammo shu bilan birga yozuvchi o'sha qahramonlari ichida, qalbida, ular bilan maslakdosh. Yozuvchining personajlar ichki dunyosini ziddiyatlar, tangliklar, azob-og'riqlardan iborat ruhiy holatlar, og'ir kechinmalar orqali chizishi ham shundandir. Biroq bu qahramonlarning o'zlari uchun emas,

³⁹ Nazarov B. Davr va qahramon // O'zbek adabiy tanqidchiligi. –T.: Fan. 1979. 96, 215 – betlar.

balki ularning g‘oyaviy-ma‘naviy izlanishlarining intensivligi va inson tabiati bitmas-tuganas sinoatlar makoni ekaniga urg‘u berish maqsadida qilingan. Qahramonlarining ichki dunyosi hamisha ikki qutb, bir-biriga zid ikki hol ko‘lamida harakatlanadi. Ruhiyat murakkabliklariga bunday–iloji boricha ko‘lamdor yondashish, chuqurroq kirib borishga intilishlik uni mutlaq anglab bo‘lmaslikni to‘la tushunish orqali yuzaga chiqadi.

Psixologik detallar inson ichki dunyosini gavdalantiradi. Qalb tebranishlari – fikrni to‘liq aytolmasdan, faqat ishora bilan cheklanish usuli yoki “og‘zaki bo‘lmagan dialogga mansub unsurlar:kinesik holatlar – xatti-harakat, mimika va pantomima elementlari hamda kulgi, yig‘i, nutq tempi kabi paralingvistik elementlar psixologik detal shaklini ifodalaydi yoki personaj dinamik portretining detallari (mimika, plastika, ma‘noli harakatlar, tinglovchiga qaratilgan nutq, fiziologik o‘zgarishlar) deya nomlanadi. Ruhiy tavsifning umumlashma-belgili shakliga nisbat beradigan bunday detalni adabiyotshunos A.P.Skaftimov “hislarning verbal (og‘zaki) belgilanishi” deb ataydi⁴⁰. Misol uchun, U.Hamdamning “Isyon va itoat” romanidagi ijobiy obrazlardan biri tabib inson DNKsi ustida tadqiqotlar olib borayotib, o‘zi ishlaydigan bo‘lim boshlig‘i, professorning g‘alamisligini, insoniyatga dushmanligini sezib qoladi. Shuning ortidan qamoqqa “yo‘llanma” olgan bo‘lishiga qaramay, keyinchalik professorning “Grippning davosini topishga umrni sarflab o‘tirishning hech hojati yo‘q. Odamzod dardini olaman, deb ovorai sarson bo‘lib, alal-oqibat na boshqalarga, na o‘ziga yordami tekkanlarni ko‘p ko‘rganmiz. Ha endi, odamlarning o‘zi ham bunga arzimaydi-da. Qaytaga grippga o‘xshagan kasalliklarni vaqti-vaqti bilan kuchaytirish, tarqatib borish kerakki, o‘shanda mo‘rtroqlar-u zaifroqlardan tozalanib turardik. Bu yog‘i dori-darmondan ancha-muncha pul ishlab olish mumkin bo‘ladi” degan gaplaridan achchiqlanmay ham qo‘yadi. Bu yerda umr

⁴⁰26. Skaftimov A. P. Nравственные искания русских писателей. – М., 1972. S 437.

bo‘yi o‘z-o‘zi bilan kurashib kelgan insonning itoatga kelishi, psixologik detal yuz ochganini ko‘rishimiz mumkin.

Personaj portreti – bu uning tashqi ko‘rinishi: yuzi, jussasining statik yoki dinamik (yuzdagi ifoda, ayniqsa ko‘z, mimika, xatti-harakat, qiliq va yurishidagi o‘ziga xoslik) tasviridir; personaj libosi – portretning bir qismidir. Personaj portreti asosida qahramonning ruhiy olami yorqinroq tasvirlanadi. Portretning ba’zi bir tabiiy qirralari badiiy asarda muhim o‘rin tutadi. Ular kitobxonda personajning qaysi millatga mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishi haqida dastlabki tasavvurlarni uyg‘otadi. Bunda uning liboslari, ma’naviyatidan dalolat beruvchi manerasi katta ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchi tasvirlanayotgan voqelik ichida, qahramon shaxsida yashar ekan, u hech vaqt o‘zligini (yaratuvchi shaxsligini) yo‘qotmasligi kerak. Chunki yozuvchi tasvirlanayotgan personaj emas, u personajning hamma kechinmalarini aslida boshidan kechirgan ham emas. Lekin yozuvchida personaj yuragini o‘z qalbiga joylab olmoq san’ati, inson ruhiyati, his-hayajoni va iztiroblarini tasvirlay olish qudrati bor. Ham yaratish, ham baholash holati izchil bo‘lishi uchun ijod jarayonida yozuvchiga osoyishtalik va ruhiy tiniqlik kerak. Agar charchash, toliqish natijasida xayol har yoqqa olib qochar ekan, u diqqatini bir markazga to‘play olmaydi. Agar u kuchli hayajon, iztirob, kechinma ta’sirida ekan, u bu holatlarni to‘liq sezadi, his qiladi, lekin qog‘ozga tushira olmaydi. Bu o‘z navbatida qahramonlar xatti-harakatlarini, qalb kechinmalarini yetarli baholay olmaslikka olib keladi. L.Tolstoy ta’biri bilan aytganda, yozuvchi «dilidagi tanqidchi» uyg‘onmaydi.

Xullas, tasavvur materialni bunyod etadi, hissiyot uni harakatga soladi, aql esa boshqarish va nazorat qilish vazifasini o‘taydi.

Psixologizm (uning dinamik, analitik, sintetik prinsiplari) hamma realist yozuvchilar uchun umumiydir. Har bir yozuvchining bu boradagi o‘ziga xosligi – psixologizmning turli vositalaridan qanday va qay darajada foydalanishiga

bog'liqdir.⁴¹ N.G.Chernishevskiy "Psixologik tasvir turli ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkinligi" haqida gapirib, uning quyidagi shakllarini ko'rsatgan edi:

- 1) bir yozuvchini xarakteming qirralari ko'proq qiziqtiradi;
- 2) ijtimoiy munosabatlar va maishiy to'qnashuvlarning xarakterlarga ta'siri;
- 3) hislar bilan faoliyat orasidagi aloqa;
- 4) ehtiroslar tahlili;
- 5) "qalb dialektikasi" qiziqtiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, muayyan yozuvchining ijodini yoki uning ma'lum romanini psixologizmning konkret bir shakli bilan cheklash mutlaqo mumkin emas. Adabiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir yozuvchi o'z ijodida (yoki ma'lum bir romanda) psixologizmning turli shakllaridan keng foydalanadi. Biroq bu formalardan birontasi yetakchilik qilishi tabiiydir. Chunki psixologizmni yuqorida aytganimizdek, san'atkorning shaxsidan ajratib tasavvur qilish mumkin emas. Har qanday asardagi psixologizm tasvirida, o'sha asarni yaratuvchi yozuvchining o'ziga xos psixikasi imkoniyatlari namoyon bo'ladi. "Uslub – bu odam" ekan, o'z navbatida "Yozuvchi ichki dunyosining yorqin ifodasi-uning uslubi"dir. Shu nuqtai nazardan yondoshsak, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida xarakterning qirralarini tahlil etish yetakchi psixologik shakldir. Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida esa qalb dialektikasi asosiy shakl hisoblansa, Oybekning "Qutlug' qon" romanida ijtimoiy munosabatlar va maishiy to'qnashuvlarning xarakterlarga ta'sirini tahlil qilish birinchi o'ringa chiqadi. Demak, xarakterlar olamini yaratish yozuvchining o'zligini tanishiga, ruhiyati qatlamlaridagi sirlarni bilishiga, uni tadqiq va tahlil qila olishiga va g'oyaviy-badiiy niyatini ochib beradigan qilib tasvirlash sifatiga bog'liqdir. Yana bir haqiqatni aytish lozim: inson qalbini kashf etish mahoratini batafsil ochib berishda polifonizm (ko'p ovozlik) hodisasi – adabiyotning umumbashariy xususiyati ham asqotadi. Garchi bu hodisa xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham juda

⁴¹ Н. Г. Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Литературная критика. Библиотека "Огонек". М.: "Правда", 1974 (http://az.lib.ru/c/chernyshevskij_n_g/text_0240.shtml).

uzoq tarixga ega bo'lsa-da, uni F.M.Dostoyevskiy o'z romanlarida birinchi bor tip darajasiga ko'tardi, dunyoni badiiy mushohada etilishining polifoniya modelini yaratdi. M.M.Baxtin esa shu asarlarga tayangan holda uning nazariyasini ishlab chiqdi. Uningcha, bu o'ziga xos dialogik nuqtai nazardir, ya'ni qahramon mustaqilligini, ichki erkinligini tasdiqlaydigan, kamalak rangidek qalb tovlanishlarini obyektiv ko'rsatadigan va hamma "ranglar"ni ham yorqin namoyon etadigan, ko'p tomonlama yondoshishni yoqlaydigan prinsiplardir. Muallifning qahramon haqidagi so'zi ishtirokchi, eshituvchi sifatida qatnashadi va muallifning o'zligini ham tashiydi (Jumladan, Ahmad Yassaviyning har bir hikmatida muallifning ovozi bilan bir vaqtda ham oshiqning, ham darveshning, ham donishmandning ovozi yangraydi, ularning har biriga xos ma'no durlari bo'y ko'rsatadi va bu ko'p ovozlilik – qalb va hayot haqidagi haqiqatni mushohada etishga yetaklaydi). Qahramon so'zi (uning dunyoqarashi) muallif so'zi bilan bir qatorda turadi va u bilan hamohang bo'ladi hamda boshqa obrazlar ovozi ham teng bahoda qatnashadi. Har bir munosabatdan turli odam turlicha ohang his qilishiga, taassurot olishiga yetaklaydi va ayni paytda, asar bir butunligini ta'min etadi.

Asar yozuvchidan unib chiqadi: farzandiday unda tug'iladi, ulg'ayadi, kamol topadi. U farzandini avaylaydi; himoya qiladi. Asar yozuvchining taqdiri, kerak bo'lganda yozuvchi qurbon bo'lishga ham tayyor. Uning bu g'ayritabiiy sadoqati, yozmasdan turolmasligi, ruhiyatga, falsafaga, mushohadaga moyilligi, shaxsi, fe'li, uslubi, qarashlari, dardi, qiynalishlari hech kimni qiziqitirmaydi. Yozuvchi o'z shaxsi va o'zgalarning shaxsi bilan birikib ketgan asar uning subyekti. Har birimizda butun odamzod shu vaqtgacha boshidan kechirgan insoniy xususiyatlarning kurtagi yashirin tarzda mavjud. Ular har bir qalbning chuqurida yota beradi. Lekin, ulardan birortasini uyg'otish zarurati tug'ilsa, shunga tashqi talab, ehtiyoj bo'lsa, tasavvurimizda jonlanishi mumkin. Xuddi ana shu sababli yozuvchi xohlagan qiyofaga, yoshga, holatga kira bilishi mumkin. Xohlagan kechinma, hissiyot, ruhiyatni tasavvur eta olishi mumkin. Shunday ekan, yozuvchi-san'atkor xasislik va jinoyatni ham, qo'rquv va mardlikni ham, o'lim va jasoratni

ham, ayol va yigitni ham, chol va kampirni ham, muhabbat va oriyatni ham tushunarli va yorqin tasvirlay olish qudratiga egadir. Lekin, bu qudrat samimiy va ta'sirchan, ishonarli va "yuquvchan" bo'lishi uchun yozuvchi o'z xalqining farzandi, Vatanining fidoyisi, qaynoq hayotning faol ishtirokchisi, ilg'or dunyoqarashning egasi sifatida katta shaxsiy va ijodiy tajribaga ega bo'lishi lozim. Chunki yozuvchining shaxsiy tajribasi, biografiyasi "oltin fond" (A.Muxtor) bo'lib, u hayotda, shu jumladan, asarda ro'y berayotgan voqea va hodisalarni tushuntiruvchi kalitdir. Shu bois, G'.G'ulom: "Yozuvchi kishining ichki dunyosini tasvirlar ekan, o'z tajribasiga suyanadi. Shuning uchun ham bu tajriba qanchalik keng bo'lsa, qahramonning ichki dunyosi ham shu qadar boy bo'ladi", deb yozgan edi. Darvoqe, shaxsiy tajriba – o'zgalar qalbini to'g'ri anglashning yo'lchi yulduzidir. Garchi, insoniyatga tegishli hamma narsa har bir shaxsga ham tegishli bo'lsa-da, har bir inson o'zicha his qilib, o'zicha o'ylaydi, o'zicha yashaydi, o'zicha o'rtanadi, o'zicha mulohaza qiladi, o'zicha gapiradi. Shu sabab "Bir shoirning "sir"i boshqa shoir uchun sira ham ish bermaydi. Uni hamma qulfga tushadigan kalitdek deb o'ylashi mumkin emas.

Poetik ijodning "sir"ini faqat shoirning o'zigina topa olishi, shunda ham faqat o'zidan topa olishi mumkin. Har bir yangi shoir bu "sir"ni o'zi uchun yangidan "ochishi" kerak, deb aytsak to'g'riroq bo'ladi. Poetik "sirni" bilib olish – bu hammadan oldin ijodda mustaqil bo'lish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, sen bir she'r yozginki, bu she'rning yozilishi faqat o'zingga, boshqa shoirga emas, faqat sening o'zinggagina xos bo'lsin, ya'ni bu she'rda o'zingga xos ovozing bo'lsin, biror mavzuda mustaqil o'zing nima ayta olsang, faqat shuni, o'z fikringni ayt. Chunki turmushdan olgan bir voqeani o'zing ko'rgansan, o'ylagansan, uni o'zing his qilgansan, o'zing anglagansan va o'zing undan xulosa chiqargansan. Shuning bilan birga bu voqea, faqat shoir va ma'lum doiradagi odamlar uchungina ahamiyatli bo'lmay, balki, eng muhimi, keng o'quvchilar ommasi uchun ahamiyatli bo'lishi kerak».

Ruhiyat murakkab voqelik sifatida o‘zida ham rahmoniy, ham shaytoniy hislatlarni, ham fazilat, ham qusurlarni, ham tabiiy-irsiy, ham atrof-muhit ta’siridagi holatlarni aks ettirsa, ma’naviyat shaxsning, millatning insoniy fazilatlarini, uning qalbidagi ilohiy nur in’ikosini namoyon qiladi»⁴².

Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir. Darvoqe “Adabiyot-xarakterlar yaratish san’ati”⁴³. Ayni chog‘da, ana shu xarakterlar “dilini bilish, uning sirlarini bizga ochib ko‘rsatish, asarlarini biz maroq bilan qayta-qayta o‘qiydigan yozuvchilarning har biriga beriladigan ta’rifdagi birinchi so‘zlar shular-ku, axir”. O‘zbek romanchiligida birinchi bor Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida psixologizmning analitik prinsipi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qahramonning ruhiy jarayoni, bu jarayonning betinim o‘zgaruvchanligi, fikrlar, hislar va kechinmalarning rivoji va o‘quvchanligi keng tahlil etiladi. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor “Sarob” romanida qahramonning o‘z shaxsidagi qarama-qarshi fikrlar jangiga, his-tuyg‘ular kurashiga asosiy diqqatni qaratadi. Qahramon qalbi dialektikasining ochilishi-o‘sha qahramonni tug‘dirgan va o‘stirgan muhit ko‘p qirrali panoramasining realistik tasviriga olib keladi.

Psixologizmning dinamik va analitik prinsiplari garchi bir-biriga qarama-qarshidek tuyulsa-da, lekin, ularni o‘zaro zid qo‘yish ham noo‘rindir. Bu prinsiplar ba’zi romanlarda uyg‘unlashgan, qo‘shaloqlashgan holda ko‘zga tashlanadi. Bunday asarlarda qahramonlarning ruhiy dunyosi ularning xatti-harakatlari, qiyofalari orqali yechilishi bilan birga, ayni paytda, shu qahramonlarning fikr va hissiyotlari dialektikasi oqimi va rivoji ham beriladi. Bu xil romanlarda psixologizmning bu ikki prinsipi dialektik birlikda tahlil etiladi. Bu psixologizmning sintetik prinsipidir. Oybekning «Qutlug qon» romani bu prinsipda yaratilgan o‘zbek romanchiligining to‘ng‘ich, go‘zal namunasidir.

⁴² 27. Ishoqov Y. “Xamsa”da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy “Xamsa”si (tadqiqotlar). – T., Fan, 1986. – 64b.

⁴³ Skaftimov A. P. Nравственные искания русских писателей. – М., 1972. S 437.

I BOB YUZASIDAN XULOSALAR

1. Bubungi kunda badiiy asarni turli rakurslardan turib talqin etishga imkon beradigan turli-tuman metodlardan foydalanilmoqda. Psixoanaliz, xarakterologiya, psixopoetika kabi insonshunoslik sohalarining har bir inson ichki olamini tasvirlashning yangi versiyalarini taklif qilmoqda. Shunday ekan bunday turli-tuman metodologiyalarning adabiyotdagi psixologik tasvir tamoyillari rivojiga ta'siri borasidagi imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish juda muhimdir.

2. Psixologizm bevosita-muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o'z-o'zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita –qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko'rsatish formasida amalga oshiriladi . Ijod mahsuli qaysi janrda yozilganidan qat'iy nazar, badiiy asar strukturasi ham, uning g'oyaviy-obrazli mazmundorligida ham o'zini namoyon qilish orqali psixologizm matnni badiiy jihatdan uyushtirishning barcha qatlamlarini ich-ichiga singib ketadi. Bu esa, psixologizm-badiiy asar poetikasining konstruktiv komponenti ekanligidan dalolat beradi.

3. Psixologizm orqali yozuvchi qahramon ichki dunyosini, psixologiyasini o'z uslubi orqali ochib beradi. Unda yozuvchi ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, galyutsinatsiya, tush kabi psixologik tasvir vositalaridan foydalanib, qahramon ichki olamini ochib beradi.

4. Psixologizm ijodiy niyatni ochish yo'lidagi muallif urinishlarini nozik badiiylashtiradi, asardagi qahramon tasvirida ichki bir zaruratdeknamoyon bo'ladi, kitobxonga xolisona tarafdorlik hissini uyg'otadi. Eng muhimi, badiiy asarda

qahramon ruhiy olamining rang-barang, ayni paytda, kitobxon anglashi zarur bo'lgan asosiy, yetakchi qirralarini ochadi.

II BOB. O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BADIY PSIXOLOGIZM MASALALARI

2.1. O‘tkir Hoshimov hikoyalarida psixologik tasvir

O‘zbek adabiyotining taraqqiyotida, ayniqsa prozachilik rivojida taniqli adib O‘tkir Hoshimovning ham munosib hissasi bor. Uning yuzdan ortiq hikoyalari, o‘nlab qissalari, millatimizning yaqin o‘tmishi va bugungi hayotini bor murakkabliklari bilan tasvirlagan uchta romani nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balki jahondagi ko‘pgina adabiyot muxlislariga tanish. Biz mazkur magistrlik ishimizda ana shu ardoqli adibimizning hikoyalari va “Tushda kechgan umrlar” asari misolida o‘zbek xalqiga xos xarakterlar va ularning qalb kechinmalarining badiiy tafsilotlarini o‘rganishni maqsad qildik. Taniqli adabiyotshunos U.Normatov o‘zining «Umidbaxsh tamoyillar» kitobida shunday yozgan edi: “istiqlol yillarida sho‘rolar davrida ijod qilgan ko‘pgina yozuvchilar o‘zlarining avval yaratgan asarlarini mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan qayta tahrir etishga majbur bo‘ldilar. Ammo O‘tkir Hoshimov asarlari bunday tahrirlarga ehtiyoj sezmadir”. Haqiqatan, O‘tkir Hoshimov ilk ijodidan boshlab o‘sha davrlarda panja orasidan qaralgan masala – millat ma’naviyatiga dahldor muammolarga diqqat qaratdi va yetuk ijodkor sifatida e’tirof etilgan paytlarida ham bu mavzu ijodining markaziy nuqtasi bo‘ldi. Adib dastlabki yillarda o‘z asarlarida, asosan, yoshlarning ma’naviy olamiga, ularning qiziqishlari-yu orzu-armonlarini tasvirladi. O‘zbek adabiyotida 60-yillar vakillaridan birinchilar qatorida O‘tkir Hoshimov inson ichki olami, ma’naviy dunyosi sarhadlariga diqqatni qaratdi. Asarlaridagi quyma obrazlar orqali

ijtimoiy masalalar bilan birga ma'naviyatga, millatimizning asrlar bo'yi saqlab kelgan va avlodlarga meros qilib qoldiradigan milliy an'analarimiz hamda qadriyatlarmizni tasvirlashga harakat qildi. Endi aynan, O'tkir Hoshimov ijodiga kelsak, adib izlanishlariga doir dissertatsiyalar yozilgan. Masalan, tadqiqotchi G.Imomova nomzodlik ishida yozuvchi ijodi asosan, badiiy nutq tabiati, monologik ongning xarakterologik tadrijda tutgan o'rni masalasini o'rganadi. Unda tipik milliy sharoit qahramon psixologiyasini belgilab berishi, til birliklarining uslubiy taomillarga o'rindoshlik qilishi O'.Hoshimov asarlari misolida tadqiq etiladi. M.Imomkarimova tadqiqotida esa xalq og'zaki ijodining yozma adabiyotga munosabati hamda ifodalanish tarzi xususida so'z boradi. Ishdagi ayrim nuqtalar mavzuimiz doirasidagi muammolar bilan to'qnashadi. Biroq bu nazariy manbalarning hech birida O'.Hoshimov ijodi misolida xarakter va milliy qadriyatlar munosabati, qahramon ruhiyatini ochishdagi badiiy vazifalari maxsus o'rganilmagan.

O'tkir Hoshimov olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo'nalishi adib dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo'lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo'lsin, e'tiqod, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. To'g'rirog'i, sog'lom e'tiqod qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi. Tasvirdagi ravshanlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchliligi bilan izohlanadi. O'z navbatida, yozuvchi g'oyaviy munosabati xalq ruhiyati, milliy urf-odatlarini atroflicha tahlil qilish vositasida oydinlashadi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan uslubiy yaxlitlik kasb etadi. Aslida uslubning asl mazmuni ham millat irodasi va maqsad-intilishlarini chuqur o'zlashtirishga borib taqaladi. Chunki mazkur

tushuncha xarakterli belgini axtarish va unga urg'u berish mushtarakligidan oziqlanadi. O'tkir Hoshimov "Cho'l havosi" qissasini yaratgandan so'ng uning kelajakda o'zbek nasrining darg'alaridan biri bo'lishi bashorat qilina boshlandi. Xususan, A.Qahhorning samimiy tilaklari bilan yo'llangan maktubida yozuvchi ijodiy kelajagiga ishonch ruhi aks etgan. Asar janr jihatidan o'ziga xoslikka ega bo'lib sujet chizig'ini qahramon xatlari va unda tasvirlangan voqealar munosabati tashkil etadi. Garchand g'oyaviy mundarija sotsialistik realizm talablari asosiga (qo'riq yerlarni o'zlashtirish) qurilgan bo'lsa-da, qissa shakliy ishlanishlar yo'lidagi dastlabki qadam bo'lib, ijodkor uslubi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Keyinchalik badiiy shakl va falsafiy uyg'unlik adib ijodiy manerasining yetakchi atributi darajasiga ko'tariladi. 1966-yilda yaratilgan "Odamlar nima derkin" qissasi ikki sevishgan: G'ayrat va Nilufarning taqdiridan bahs yuritadi. Ikkala yosh ham talaba, ular o'rtasidagi samimiy munosabat ancha chuqurlashgan. Biroq, tadqiq sahniga ko'tarilgan muhabbat hayotiy to'siqlarga duch keladi. Nilufarning hayotda hech kamchiligi yo'q, o'ziga to'q xonadon farzandi hisoblanadi. Faqat uning qalbida kamchilik mavjud: onasi erta vafot etgan. To'rt-besh yoshligidan o'gay ona qo'lida tarbiya olgan. Garchi ayol bor mehr-muhabbatini baxshida etsa ham, baribir tuqqan onaning o'rnini bosa olmaydi. Aynan shu vajdan qizning doimo mahzun, ma'yus holatda tasvirlanishi tabiiydek taassurot uyg'otadi. Dadasi esa uni bir zootexnik qarindoshiga uzatmoqchi. Shunda Nilufar sevgilisi G'ayratga shunday deydi: "Onam bo'lganida shunaqa gaplarni eshitmasmidim, -dedi u anchadan keyin o'kinib, -Onamni es-es taniyman. To'rt yoshimdami, besh yoshimdami o'lib ketgan". Ayon bo'lyaptiki, muallif o'z asarida ona va bola munosabati to'g'risida dastlabki tezisni ilgari suradi.

Professor O.Sharafiddinov O'.Hoshimov asarlarini jozibador qilgan, ularga o'ziga xos badiiy tarovat baxsh etgan ikki xususiyatini ko'rsatadi. Ulardan biri, adib badiiy asarni yengil targ'ibot vintchchasiga aylantirmasligi bo'lsa, ikkinchisi, asardan kelib chiqadigan muammolarning hammasi eng murakkab savollarga javob izlash kishini hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga

oshirilishidir. Taniqli adabiyotshunosning mulohazalarini to'ldirgan holda aytish mumkinki, lirik hissiyot ko'lamini adib izlanishlarining tabiiyligi yuzaki bayon, sxematik ifodadan holi bo'lishini ta'minlaydi. Shaklning o'zgaruvchan tabiati ehtirosning yuqori pardalarda berilishi bilan uyg'unlashib O'.Hoshimov ijodining badiiy yaxlitligini ta'minlaydi. Yetmishinchi yillarga kelib adib izlanishlarida ijtimoiy munosabatlar tahlili teranlasha boshladi. Bu teranlik "notarixiy" shaxslar tasviridan oddiy insoniy munosabatlar ifodasiga o'tish orqali quyuqlashgan. Endi ijodkor odamzodning jamiyatga ta'sirini emas, balki jamiyatning inson turmush tarziga bosimini ijod madaniyati markaziga ko'tardi. Ayni paytda milliylik belgilari "ko'zga ko'rinmas a'zolar"da ko'proq uyg'unlashishini e'tiborga olsak, yozuvchi pozitsiyasining xalqchilik nuqtalari bir qadar ayon bo'ladi. Insoniy munosabatlar birligi, optimistik kayfiyat belgilari O'.Hoshimovning barcha asarlarida qizil ip bo'lib o'tadi. Inson ruhiy dunyosining adabiyotdagi tasviri, ifodasi qonuniyatlarini tekshirish bugunning dolzarb ilmiy-estetik muammosi hisoblanadi. Kuzatishlar ko'rsatadiki, inson ruhiyati, ichki olamidagi o'ziga xoslik hamisha ham tashqi dunyoga bog'liq bo'lavermaydi. Inson ko'nglida kechayotgan hissiyotlar, orzu-maqсадlar, intilishlar atrofdagi muhitga kamdan-kam holatlarda to'g'ri keladi. To'g'ri, inson ruhiyatidagi tadrijiylik tashqi muhit vositasida yuz beradi. Odamning ruhiy tushkunligi ham, ko'tarinkiligi ham ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi. Ko'pincha insonning o'zi o'z ruhiy holatini to'g'ri tushunish yoki izohlashga ojizlik qiladi.

Monografiyaning mazkur bobida taniqli yozuvchining tadrijiy tarzda 60-yillarda, keyinroq 70-yillar oxirlarida yaratgan hikoyalarini tahlilga tortdik. Bu hikoyalarda inson hatti-harakatlaridan ko'ra, qalb kechinmalari, ruhiyat tovlanishlariga ko'proq e'tibor berilgan. Odamni ishchi kuchi, mehnat kishisi emas, balki chigal ichki dunyo egasi sifatida tasvirlash O'tkir Hoshimov hikoyalarida bosh yo'nalishga aylanib borgan. Hikoyalarda qahramonlar ruhiyatidagi talotumlar, asosan, ijtimoiy turmush ta'sirida yuzaga kelganligi aks ettirilgan. O'tkir Hoshimov hikoyalari qahramonlari ko'proq kuchli ruhiy

g'alayonlar, cheksiz ma'naviy tanazzullar iskanjasida aks ettiriladi. Asarlarda hayotning achchiq zarbalari, turmushning ayovsiz sinovlari natijasida shaxsligi, ma'naviy olami imtihondan o'tayotgan odamlar hayotini ko'rsatish orqali adib milliy adabiyotda qahramonlar silsilasini yaratgan. yillarida yaratilgan "Odam ovozi" hikoyasida ayol Ona ruhiy kechinmalari, ko'nglining nozik tovlanishlari, dardi va qismati, orzu-armonlari tasviriga e'tibor kuchlidir. Shuni ham ta'kidlash zarurki, matbuotda jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan bu asar bir qarashda, sotsialistik realizm metodiga asoslangan holda yozilgan bo'lsada, unda hukmron mafkura qoliplariga to'g'ri kelmaydigan jihatlar bor. Adabiyotshunos olim M.Sultonova yozadi: "Mastura xolaning (hikoya qahramoni –M.M.) yolg'iz qolishga faqat o'zi aybdor. Axir Yevropa adabiyotida yolg'izlik fojiasi katta sotsial fojia sifatida talqin qilinayotgan bir pallada bizda yolg'izlik tushunchasining nisbiy ekanligi, bunday fojialar chiqib kelishi mumkin emasligini qattiqroq ta'kidlash ham mumkin edi"⁴⁴. Professor N.Karimov M.Sultonova ilgari surgan ilmiy fikrini, olimaning o'zi hayotda yolg'iz yashaganligini, uning ahvoli ham hikoya qahramoni singari bo'lganligi uchun ham kinoya tarzida yozgan, deb hisoblaydi. Chunki, biz hech kim g'arbdagi singari yolg'iz qolmaydigan mamlakatda yashayapmiz, sotsialistik jamiyatda inson yolg'iz bo'lmaydi, ularning kommunistik partiyadek rahnamosi bor, va shu xildagi quruq safsatalarga adabiyotshunos olimaning o'ziga xos isyoni edi. O'tkir Hoshimovning "Odam ovozi" hikoyasida Mastura xola obrazi orqali inson qalbining nozik tovlanishlari, uning hech narsaga bo'ysunmaydigan, ayni paytda hech narsani tan olmaydigan sirli xilqat ekani namoyon bo'ladi. "Kech kirdi. Mastura xola Yo'ldoshali kelsa kerak degandi. Yo'q, daragi bo'lmadi. Avvallari kunora kelib turardi. Keyin kam qatnovroq bo'lib qoldi. Mayli, o'g'ildir-qizdir, o'zidan tinsin. Tavba, keksayganingdan keyin odamga uncha-muncha narsa yoqmay qolarkan"⁴⁵ Yozuvchi mazkur satrlar bilan qarib qolgan kampirning ichki olamini ochishga harakat qiladi, uning muayyan

⁴⁴ Karimov.N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 533 b.

⁴⁵ O'tkir Hoshimov. Saylanma 2 jildlik. Toshkent Sharq, 1998. 439-bet

holatdagi ruhiyatida sodir bo'layotgan evrilishlarni tasvirlaydi. Chunki, Mastura hola o'g'li Yo'ldoshali, kelini, nevarasi Asqarjonni juda sog'ingan⁴⁶. Qolaversa, u Asqarjonni hamisha o'zi bilan olib yotardi. Yozuvchi buni hikoya avvalida shunday asoslaydi: “tizzasini quchoqlab o'tirganicha eshik tomonga qarab qo'ydi. Sekin xo'rsindi. Danagidan mag'zi shirin degandek, nevarasiga o'rganib qolgan ekan. Asqarjon doim uni “achom qilib” yotar, mana shunaqa xayol surib o'tirganida, eshikni taraqlatib ochib kirib qolar, uy bozor bo'lib ketardi”⁴⁷. Adib qahramon ruhiyatini tasvirlar ekan, o'z uslubiga munosib ravishda tabiat tasviridan ham mahorat bilan foydalanadi. “U sekin ayvon zinasidan etakdagi hujraga, undan burchakdagi oshxonagacha cho'zilgan silliq yo'lkaga olma xazonlari to'kilibdi. Gulzordagi rayxonlar shalpayib qolibdi”. Mazkur tasvir orqali adib, hikoya qahramoni Mastura xolaning ruhiy xolatini, hayotining kuz kabi ma'sumlashib borayotganini, bir so'z bilan aytganda, uning biror daldaga muxtojligini ifodalayapti. Darhaqiqat, shu davr adabiyoti tamoyillariga zid tavsir usuli e'tiroz tug'dirishi mumkin: Mastura xola fe'l-atvorida g'alati qaramaqarshilik mavjud. Biroq muallifning maqsadi oddiy o'zbek ayolining mustahkam iymoni, barqaror e'tiqodini ko'rsatishga yo'naltirilgan. Aynan qahramonning eski uyini tashlab ketmasligi ham mazkur xususiyatlar bilan bog'liq. Birinchidan, uy marhum eriga bo'lgan cheksiz muhabbati, sadoqati timsoli. Ikkinchidan, ayol ilk go'dak yig'isini shu xonadonda eshitgan, farzand tuyg'usini shu yerda his qilgan. Ona va bola o'rtasidagi mehr-muruvvat rishtalari milliy mentalitetimizning o'zagini tashkil etishini hisobga olsak, Mastura xolaning telbavor xatti-harakatlari mohiyati oydinlashadi. Hikoyada ona qalbida yashirin samimiy tuyg'ular silsilasi ijtimoiy me'yorlarni tan olmaydi. To'g'rirog'i, Mastura xola jamiyatning baxtli yoki baxtsiz a'zosi ekanligi ta'kidlanmayapti, balki, shaxs quvonch-iztiroblari, his-tuyg'ulari ikkinchi planga chiqib qolganligi illat sifatida baholanayapti. Shu nuqtai nazardan M.Sultonovanning da'vosi bir yoqlama va torroq mulohazani ifodalaydi

⁴⁶ O'tkir Hoshimov. Saylanma 2 jildlik. Toshkent Sharq, 1998. 400-bet

⁴⁷ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.:Фан. 1983; яна: “Хамса”да бадиий психологизм типлари//Алишер Навоий “Хамса”си (тадқиқотлар). –Т.:Фан, 1986.

Hikoyada adib bir dunyo orzu-havaslar bilan yashayotgan, o'z taqdiri uchun kurashga bel bog'lagan, biroq qismat oldida chorasiz va betadbir qolgan, ammo qalbida kelajakka umid ruhi so'nmagani o'zbek ayoli ichki olamini ishonarli tasvirlaydi. Yetmishinchi yillarga kelib adib izlanishlarida ijtimoiy munosabatlar tahlili teranlasha boshladi. Bu teranlik «notarixiy» shaxslar tasviridan oddiy insoniy munosabatlar ifodasiga o'tish orqali quyuqlashgan. Endi ijodkor odamzodning jamiyatga ta'sirini emas, balki jamiyatning inson turmush tarziga bosimini ijod madaniyati markaziga ko'tardi. Ayni paytda milliylik belgilari "ko'zga ko'rinmas a'zolarida" ko'proq uyg'unlashishini e'tiborga olsak yozuvchi pozitsiyasining xalqchilik nuqtalari bir qadar ayon bo'ladi. Insoniy munosabatlar birligi, optimistik kayfiyat belgilari O'.Hoshimovning barcha asarlarida qizil ip bo'lib o'tadi. Jumladan, 1972 yilda yaratilgan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi lirik ifoda va epik ko'lam mushtarakligini aks ettiradi. Aslida ruhiy hissiyot ikki usul – sog'lom e'tiqod va ijtimoiy tartibot darajasi birligiga borib taqaladi. Bu rishtalardan biri uzilsa-chi? Mazkur holatda odamzod hayoti butunlay izdan chiqadi. Shu nuqtai nazardan adib millatning oliy ideallarini turfa nuqtalarda namoyon qilishga urinadi. O'z navbatida milliy ruh, harakter mukammalligi mezon o'lchovi darajasini ifodalaydi. Hikoya ikkinchi jahon urushining insoniyat turmush tarziga, jumladan, millat psixologiyasiga ta'sirini aks ettiradi. Yangicha aspektida yoritilgan asarda katta axloqiy-falsafiy muammoning gumanistik mohiyati badiiy niyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, xarakter mantig'i, qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlashmalar yaratadi. Mazkur xususiyatlar – ichki nutq, xatti-harakat, situatsiyalar, badiiy shtrixlar, hayotiy tafsilotlar birligi tarzida epik makon kategoriyasidan oziqlanadi. Asosiy qahramon - Umri xolaning ikki o'g'li bor. Kattasi Shoikrom o'z oilasi bilan alohida yashaydi. Kichik o'g'il Shone'mat sil dardiga chalingan. Tabib unga qo'y suti buyurgan, lekin ona o'z farzandiga sut olib berishga qodir emas. Shoikromning topgan-tutgani ham o'z oilasidan ortmaydi. Ustiga-ustak erta bahorda xonadon koriga yarab turgan sigir ham o'g'irlab ketilgan. Voqealar dramatizmi 1945 yilning ko'klamida sodir

bo‘ladi. Sho‘rlik onaning qalbi bolaga sut topib berish istagi bilan yonadi. Xatto bu borada mavjud inkonsizlik, nochor ahvol ayolning o‘g‘irlik qilishiga ham monelik etmaydi. To‘g‘ri, katta farzand qulupnayidan so‘rab olinsa ham bo‘lardi, lekin, birinchidan, qaynona kelinidan iymanadi. Ikkinchidan, o‘zaro munosabatlar ham risoladagiday emas. Chunki bir gal kelin Umri xolaga “bobillab bergan”. Asar davomida kuzatiladigan tushkun kayfiyat ustuvorligi alamzada o‘g‘ilning qarori yordamida fojiaiy nuqtaga ko‘tariladi. Shu o‘rinda Umri xola va Shoikrom xatti-harakatlaridagi o‘xshashlik kitobxonni ajablantirmaydi. Ona o‘g‘irlik qilish katta gunoh ekanini o‘ylab ko‘rmaganidek, farzand ham birovning joniga qasd qilish salbiy illat ekanini tushunishni istamaydi. Asosiy aybdor – urush va uning salbiy asoratlaridir. Shu o‘rinda fransuz mutafakkiri D.Didroning “xarakter tipik sharoit bilan belgilanadi”⁴⁸ - deya ta’kidlagan kontseptual fikri haqqoniyligi oydinlashadi. Darvoqe, tipik manzara jamiyat ma’naviy mezonlariga zidlik kasb etsa, ulkan fojialar keltirib chiqaradi. Shu tarzda ijodkorning urush va uning oqibatlariga ruhiy munosabati shakllanadi. Muallif asar to‘qimalariga yeyilib ketgan fojiaiy ruhni yuqori bosimda tutib turadi. Mazkur holat goh badiiy chizgilar, goh nutqiy ritorika vositasida umumlashtiradi. Hikoyada adibning qahramonlariga xayrixohligi har bir nuqtada sezilib turadi. Ayniqsa, ona qiyofasini shakllantirishda yozuvchi lirizm oqimini bir qadar kuchaytiradi. Muqaddimadanoq «rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan» Umri xolaning mahzun holati kitobxon tasavvurida tragik hissiyot uyg‘otadi. Sentimental kayfiyat quyuqligi lirik ifodaning ustuvorligini bo‘rttiradi. “Urushning so‘nggi qurboni” asarida harakter mantig‘ini psixologik jihatdan asoslashga moyillik seziladi. A. Qahhor uslubini eslatadigan aniqlik va dalillanganlik ba’zi o‘rinlarda qavarib ko‘rinadi. Jumladan, onaning «tars-tars yorilib ketgan barmoqlari» chizgisi g‘oyaviy mundarijaning bir nechta nuqtalarini jipslashtiradi. Dehqonchilikdan xabardor kitobxon yaxshi biladi: qo‘l bilan loy ishqalansagina barmoqlar tars yorilishi mumkin. Shu hayotiy kichkina

⁴⁸ <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html>

unsurda ayolning ikkilanishlari iztiroblari, vijdon azobi o'z ifodasini topgan. Mazkur hikoya obrazlar o'rtasida konfliktga emas, balki hayotning joriy muammolari bilan ma'naviy qadriyatlarning azaliy talablari orasidagi qarama-qarshilik asosiga qurilgan. Bu ziddiyatning kuchi tashqaridan ko'ra, personajlar ko'nglida yaqqolroq seziladi. Bu hol obrazlarning fojiaviylik darajasini oshiradi. Fojiaviy voqelikning ochiq tasviri berilgan bu hikoya adib ijodida o'ziga xos ahamiyatga ega. Asar qahramonining ichki olamida ro'y berayotgan dahshatli g'alayonlar kitobxonni tinch qo'ymaydi. Hikoya qahramonlari yetishmovchilik sabali sarsan-sargardon kimsalar. Asarda turmush yo'lida o'zini o'tga-cho'qqa uradigan odamlarning ruhiy dunyosi g'oyat ta'sirli ko'rsatib berilgan. Adib hikoyalarining aksariyatida cheksiz hayotiy sinovlar, kuchli ruhiy iztiroblar girdobidagi qahramonlar tasvirlanadi. Yozuvchi hikoyalarida batafsil bayon qilish yo'lidan bormaydi. "Chunki hikoya janri batafsil bayonni ko'tarmaydi"⁴⁹. Bu hikoyalarda ko'pincha o'ychan, nozik tuyg'uli, serhissiyot ayollar tasvirlanadi. O'quvchi ko'z oldida jonlantirilgan ruhiy g'alayonlar, o'tkir dramatik to'qnashuvlar tasviri ulardan kelib chiqadigan ma'naviy-estetik ma'no salmog'ini oshiradi. O'tkir Hoshimov hikoyalari aksariyatida qahramonlar maishiy muammolar orqali ularning ruhiy dunyosini taftish qiladi. Aynan maishiy muammolar talqinida psixologizmdan foydalanadi. Aslida, buning o'ziga xos uslubiy asoslari ham mavjud. Sababi, adib ko'pincha qahramonlari qiyofasini o'zbek xalqining asrlar davomida ardoqlab kelgan milliy udumlari, qadriyatlari fonida chizib beradi. Shuningdek, jamiyat negizini tashkil etuvchi, uning ustuni bo'lgan oila mavqei har bir millat tomonidan o'ziga xos tarzda tushuniladi. O'zbeklarning oilaga munosabati etnos tayangan ma'naviy-axloqiy asoslarga mutanosib tarzda shakllangan. Shundan kelib chiqib, oila daxl qilib bo'lmas muqaddas qadriyat sanalgan. Chunki o'zbek millatining bugunigina emas, istiqboli

⁴⁹ O'tkir Hoshimov. Saylanma 2 jildlik. Toshkent Sharq, 1998. 440-bet.

ham oilada qaror topadi. Texnik taraqqiyot avj olayotgan hozirgi paytda⁵⁰ oila ma'naviyati bir qadar pasayib borayotgani ko'zga tashlanmoqdaki, bu jarayonni adiblar bor haqqoniyligi va ma'naviy-ruhiy oqibatlari bilan tasvirga olmoqdalar. Ular bu murakkab holatlar tasviri orqali nafaqat alohida bir inson, balki davr dramasini ham ochib berishga harakat qilishmoqda. Hozirgi oilalardagi erkak va ayolning o'zaro munosabatlarida yuz berayotgan tub o'zgarishlar va ular tufayli yuzaga kelgan ruhiy g'alayonlarni butun nozikligi va chigalliklari bilan qalamga olgan O'tkir Hoshimov asarlarida inson qalbi kechinmalari yangicha yo'sinda ifoda etilgan. Adibning aksariyat hikoyalarida oiladagi chigal, sertashvish, ba'zan esa ilojsiz holatlar bor murakkabligi bilan aks ettirilgan. Qahramonlar ruhiy olamidagi kuchli po'rtanalar, o'lchovsiz iztiroblar jo'ngina oilaviy munosabatlar, turmushning oddiygina tashvishlaridan tug'iladi. Masalan adibning "Yanga" hikoyasida aka-ukalar oilalarida yuz bergan voqealar orqali er-xotin munosabatlari, ayollarning ruhiyatidagi qarama-qarshiliklar mahorat bilan ifoda etiladi. Hikoya Akmal obrazi tilidan beriladi. Bu hikoyada Akmal o'z hayotini so'zlaydi, va yangasining unga ko'rsatgan mehribonliklari, onasi erta vafot etib ketgandan (u vaqtlarda Akmal birinchi kurs studenti bo'ladi) keyingi davrida xuddi onasidek uning kiyimlarini yuvishi, vaqtda ovqatini tayyorlab berishi, har kuni ertalab uning cho'ntagiga bir so'm pul solib qo'yishi, "o'qishni tashlayman", deb g'alva qilganida "onamning ruhi chirqillaydi" deb yolvorishlari, Akmalning o'qishi uchun barcha sharoit yaratib bergani aytiladi. Shunday mehribonliklar evaziga Akmal o'qishni tugatib, mustaqil, o'ziga to'q oila bo'lib yetishadi. Bir kuni yangasi ularnikiga ozgina pul so'rab keladi. Akmalning xotini Klara har xil bahonalar bilan uyida pul yo'qligini, bolalariga zarur kiyim-bosh ola olmayotganini pesh qiladi. Ovsinlarning o'zaro suhbatini ishdan charchab kelib, dam olib yotgan Akmal eshitib qoladi. Ovsin uyiga quruq qaytgach, Akmal ruhan eziladi, uning mehribonliklarini eslaydi va xotini Klara bilan janjallashib, uning qarshiligiga

⁵⁰ Jo'raqulov U. - Hududsiz jilva - 53 b

qaramay, uyidagi bor pulni olib akasining uyiga –yangasi yoniga ketadi. Hikoyaning kulminatsiyasi shundaki, yangasi bu pulni o‘zi yoki oilasi uchun emas, vafot etib ketgan qaynonasining vafot etgan kunini qarindosh-urug’ bilan Qur’on chiqartirmoqchi bo‘lganini aytadi: “Klaraning xabari yo‘q, bugun men oylik oluvdim. – U cho‘ntagidan pul chiqarib, dasturxon chetiga qo‘ydi. – O‘zingiz birorta qishlik kiyim olib berarsiz, kelinoyi Akmal yolg‘on gapirayotganini, gaplari sun‘iy chiqayotganini bilib, to‘xtab qoldi. Yangasi yarq etib, uning yuziga qaradi. – Rahmat, Akmalxon, -dedi yangasi ohista tovushda. Uning ovozida zarda ham, o‘kinch ham yo‘q edi. –Bolalarning kiyimi yetarli, dedi u dasturxon popugini o‘ynab. – Boshqa narsaga zarur bo‘lib qoluvdi. Bilasiz, indinga oyim vafot etgan kunlariga o‘n yil to‘ladi. Shunga uzoq yaqin qarindoshlarni chaqirmoqchiydik. Ozroq yetmay turuvdi... Akmal seskanib yangasiga qaradi-yu, haykalday qotib qoldi”⁵¹. Hikoyada yanga obrazining boy ruhiy olami, ko‘pincha qarama-qarshi qutblar tarzida talqin etiluvchi o‘zbekona urf, sof milliy qadriyatlar, sharqona odob-axloq, udumlarga nisbatan chuqur hurmat yuksak badiiy shtrixlar aks ettirilgan. Masalan, Akmal o‘qishni tashlab, zavodga ishga kirmoqchi bo‘ladi: “o‘sha qish tongi aslo esidan chiqmaydi. Akmal uyg‘onganida cho‘yan pechkada o‘t guvillab yonar, yangasi pechka oldida cho‘nqayib o‘tirgancha xayolga tolgan, go‘yo uxlab qolganga o‘xshardi. Akmal pechka g‘irasidan tushayotgan yog‘duda yangasining dog‘ bosgan yuzini ko‘rib, yanayam ozib ketganini, chehrasi g‘amgin ekanini sezdi”⁵². Karavot g‘ichirlaganini eshitib, yangasi yarq etib, unga qaradi. Ammo o‘rnidan jilmadi. – Akmalxon, men eshitdim, - dedi u past tovushda. Keyin bir zum jim qoldi-da, uf tortdi: - Mayli, bizni o‘ylamay qo‘ya qoling. Oyimning arvochini chirqilatgani qo‘rqmaysizmi? Oyim sizni menga topshirib ketganlar. Tushundingizmi?”. Umuman, O‘tkir Hoshimov hikoyalarida konflikt aksariyat hollarda turmush muammolari asosiga qurilgan. Hikoyalarda ko‘proq ichdan eziladigan, o‘z-o‘zini taftish etadigan qahramonlar tasvirlanadi. Hikoya

⁵¹. O‘tkir Hoshimov . Saylanma: 2 jildlik. 1-j. T.; “SHarq”, 1998, 481-bet

⁵²O‘tkir Hoshimov . Saylanma: 2 jildlik. 1-j. T.; “SHarq”, 1998, 484-bet

qahramonlarining ko‘pchiligi ruhan bezovta, ularning taqdiri ham xuddi hayotlaridek dramatik yakunlanadi. Adib asarlar tahlilidan kuzatiladiki, bugungi hikoyalarda tasvirlanayotgan personajlarda ichki taftishga ehtiyoj kuchli. Shuning uchun ham o‘zbek hikoyalarida odam ruhiyatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatish katta mavqega ega bo‘lib bormoqda. Aksariyat holatlarda yozuvchilar qahramonlar ruhiy olamini ochish uchun ichki monologdan, hissiy harakatlardan, psixologik tasvirlardan samarali foydalanmoqdalar.

Darhaqiqat O‘Hoshimov o‘zbek adabiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega.. Shu sababli ham adib 1991-yilda “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni bilan 2001- yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. Adib chindanda salmoqli ijod qilganligi kitobxonlar tomonidan uning asarlari sevib o‘qilishida ko‘ramiz. Biz adibning “O‘zbeklar” hikoyalar to‘plamidagi “O‘zbeklar” hikoyasidagi olg‘a surilgan g‘oyalar haqida to‘xtalmoqchimiz. “O‘zbeklar” hikoyasi shunday boshlanadi. “Otinoyining hovlisi past ko‘chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita derazali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo‘lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo‘lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antennasi bor. Otinoyinikida yo‘q. Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum bo‘ladi” (O‘.Hoshimov 2006:33). Adib bu yerda kambag‘al bir oilani tasvirlagandek seziladi, aslidachi fan kandidati, trest boshqaruvchisi Iskandar Vahobovichning onasining uyi. Har bir xalq yoki millatning o‘z urf-odatlarini, ananalari bor bunday urf-odatlarni Otinoyi va qo‘shni kelin o‘rtasidagi munosabatlarda ochib berganday nazarimizda. Shuningdek Otinoyi obrazida o‘zbek ayolining o‘z umr yo‘ldoshiga, oilaga, farzandiga bo‘lgan kuchli mehri va sadoqati tasvirlanadi, bundan tashqari urushga ketgan umr yo‘ldoshining qaytib kelmaganida, oddiy bir o‘zbek oilasiga yetkazgan sitamlarini u haqda ko‘p to‘xtalmagan holatda kitobxonlar ongiga yetkazib berganini ko‘rishimiz mumkin. Kelinoyi obrazi orqali adib butun o‘zbek kelinlariga xos fazilatlarni nomoyon etgandek, yani qo‘shni kelin bo‘lishiga qaramay Otinoyi unga o‘z kelinidek

muomala qilishida o'zbek xalqining bir-biriga mehrini ko'ramiz. Xalqimizda bir ibora bor "Yaxshisini oshirib yomonini yashiradi" bu ibora Otinoyi uchun aytilgan balki butun o'zbek onalari uchun aytilgan desak aslo adashmagan bo'lamiz. Otinoyining yolg'iz o'g'li Iskandarni katta qilib oliy o'quv yurtida o'qitishi buning evaziga yolg'iz o'g'il Iskandarning uylangandan keyin xotini Gulandomning onasi nomiga aytilgan yomon so'zlariga ham munosib javob qaytara olmaydi. Adib Gulandom obrazi orqali o'zbek kelinlariga xos bo'lmagan fazilatlarni aks ettirgandek hatto qaynonasining dafn marosimiga ham qo'lida oq sumkacha xuddi to'yga borganday yasanib qulog'iga brilliand ko'zli zirak taqib kelganida ko'rishimiz mumkin. Hikoyaning eng kuliminatsion nuqtasi shundaki "Otinoyi sandiqdan birma-bir o'limliklarini olib "ko'z-ko'z" qilyapdi.- Mana bu –kafanlik,- deydi u bejirim o'ralgan dokani ko'rsatib. Muattar xola dokaning bir uchini chimchilab ko'radi. –Yaxshi misqoli doka ekan. Iskandarim ataylab Moskovdan obkelgan. – Otinoyi kerilib qaddini rostlaydi"⁵³. Bir boqishda oddiy bir voqeaday tuyuladi. Adib bu bilan nima demoqchi chuqurroq tahlil qilsak o'zbek xalqi qadriyatlaridan kelib chiqsak qaysi farzand o'z onasiga kafanlik olib keladi. Kafanlik deganimizning o'zida insonning beixtiyor etlari jimirlab ketadi. Otinoyi bironta yangi ko'ylagi bilan maqtana olmaydi faqatgina 3 yil oldin o'g'li olib bergan kovushi va 3 oy oldin 8-martga olib kelgan 4 quti choyni har mehmonlar kelganda qo'shni kelinga Iskandarim olib kelgan dutor chalib turgan choydan damlang deya olardi xolos. Hikoyaning eng kuliminatsion nuqtasi Baxri xola va qo'shnilariga o'limliklarini ko'rsatib o'tirgan holda vafot etishida. Adib bu yerda o'zbek xalqidagi dafn marosimlariga bo'lgan munosabatlarni ham tasvirlaganday ya'ni Otinoyining tobutini katta ko'chaga olib chiqqanda ko'chadagi o'tkinchi odamlarning kim bu kishi deganlarida Otinoyim bo'ladi deyishganda savobi tegsin deyishgancha tobutni ko'tarishga shoshishardi ko'cha to'la boshi ko'rinmas darajada odam to'planganligida ham o'zbek xalqiga xos urf-odat ananalarini

⁵³ 28. Aliev.A. Istiqlol va adabiy meros. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 272 b.

ko‘rishimiz mumkin. Adib deyarli barcha o‘rinlarda xulosani kitobxonning o‘ziga qoldiradi. Adib hech qaysi bir o‘rinda Iskandarni qoralab yoki uni yomonlamaydi uni koyiganda ham buni o‘zining tilidan aytib o‘tadi. Adib Iskandar obrazi orqali o‘z orzu niyatlari, tinchligi yo‘lida onasini unutib qo‘ygan bir shaxs tasvirlanadi. Bu hikoyada o‘zbek xalqining go‘zal urf-odatlar bilan birgalikda inson manaviy olamidagi g‘uborlarni ochib berishga harakat qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Yana shuni alohida takilashimiz lozimki Otinoyi obrazi chin o‘zbek onasi ro‘lida gavdalantiriladi lekin adib hech qaysi bir o‘rinda Otinoyini o‘g‘li tashlab ketgan uch oyda bir xabar oladigan tarzda otinoyining tilidan qoralamaydi hech qaysi o‘rinda Iskandar qoralanmaydi yoki uni yomonlab kitobxonga u to‘g‘risida salbiy fikr uyg‘otishga harakat qilmaydi biz faqat hikoyani o‘qish jarayonida Iskandar va Gulandom o‘rtasida voqealar tizimini o‘qigan kitobxon o‘zi Iskandar va Gulandom haqida o‘zlariga yetarlicha keragidan ziyotroq xulosa chiqarib olishlari uchun Iskandarning o‘zining tilidan ko‘plab holatlarda ayblarini bo‘yniga olgan holda tasvirlanadi. O‘.Hoshimovning “O‘zbeklar” hikoyasida bir o‘zbek ayoli taqdiri batafsil yoritiladi. O‘.Hoshimov o‘z hikoyasi o‘zbek ayoliga xos umumiy ajoyib fazilatlari bilan tasvirlaydi, inson ma’naviy-axloqiy dunyosidagi yuksak fazilatlar bilan birga yomon illatlar shunday ochib beriladiki buni biz Otinoyi va kelini, Otinoyi va Iskandar Vohobovich o‘rtasida bo‘lib o‘tgan voqealarda o‘qishimiz mumkin bu voqealar shunday tasvirlanganki kitobxonga kuchli psixologik ta’sir qiladi. Adib bu hikoyada Iskandar obrazi orqali hozirgi kun adabiy muhiti doirasida kitobxonlar ongiga qanchalar dolzarb masalani ko‘targanini ko‘rishimiz mumkin. Hayotda aytilganidek bir yaxshining bir yomoni bor degan gap bekorga aytilmagan bu hikoyada Kelinoyi obrazida qancha yaxshi fazilatlarni tasvirlagan bo‘lsa Gulandom obrazi orqali buning aksini ko‘rishimiz mumkin. Insonning ma’naviy-axloqiy dunyosidagi illatlarning badiiy va ruhiy talqinini adibning ko‘plab hikoyalarida kuzatishimiz mumkin bunday hikoyalardan yana biri “Insof” hikoyasidir. Bu hikoyada insof so‘zining turli tillardagi aytilishiga to‘xtalib

o‘tiladi. Bu so‘z turli tillarda turli shaklda aytilishiga qaramay bir tushunchani bildiradi. Bu hikoyada hozirgi kundagi eng ko‘p kundalik hayotimizda uchraydigan tushuncha bo‘lib bu tushunchaga insonlar turlicha qarashlari haqida chuqur fikr yuritiladi. Bir do‘kondor va shogirdi o‘rtasidagi voqea keltirib o‘tilgan. Bu shubhasiz ota-bobolarimizning insof haqida qanday dunyoqarashga ega ekanligini bilib olamiz bundan tashqari Yusuf Tovalsiyning “Hikmatlar hazinasi” kitobidan ham rivoyatdagi Hazrat Umarning davlat boyligiga hiyonat qilmaganligi bir sham misolida tasvirlanadi. Adib hikoyada o‘zi bilan bog‘liq dorixonadagi voqeani ham tasvirlaydi. Bunda ikkita dorixonadagi bir xil dorining deyarli ikki baravar qimmatiga sotilayotganligini egasidan so‘raganida aytarli bir izoh keltira olmaganligi tasvirlanadi. Bu hozirgi kun insonining insof haqidagi tushunchasi haqida adib supermarketdagi bir galstukning bozordagi narxdan uch baravar qimmat ekanligini aytib o‘tadi. Bu holatlarni adib bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni bilan izohlashga harakat qiladi, ya’ni bu jarayonni insonlar o‘zlari qanday qabul qilayotganlari tahlil qilib o‘tiladi. Shuningdek bu hikoyada adib Yaponiyalik mehmon bilan bo‘lgan voqeani ham keltirib o‘tiladi.. Adib bu hikoyada insof va insofsizlik o‘rtasidagi chegarani ajratish qiyinligini aytib o‘tadi. Yuqoridagi aytib o‘tilgan voqealar misolida adib insof va insofsizlik o‘rtasidagi chegarani hozirgi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tahlil qiladi. Tahlillar asosida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiyati so‘zlar yordamida adib tomonidan mohirona tasvirlangan.

Badiiy asar katta hayajon bilan, shavq bilan yozilishi kerak. Bu haqda yozuvchi bunday deydi: “Kitob yozayotgan qalamkash hayajoni kitob o‘qiyotgan o‘quvchi hayajonidan o‘n karra kuchliroq bo‘ladi. Kitob o‘qiyotganingizda jinday tabassum qilsangiz, bilingki, o‘sha sahifalarni qalamkash rosmam kulib yozgan. Kitob o‘qiyotganingizda ko‘zingizga bir qatra yosh kelsa, bilingki, qalamkash o‘sha sahifalarni rosmam yig‘lab yozgan”. Adibning fikrlari asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki hayajon, yig‘lash, kulish qahramonlarning ichki kechinmalarini aks ettirish vositasi hisoblanadi. Asar qahramonining ruhiy holati

kitobxonga ko'chadigan bo'lsa, bu jarayonni psixologizm natijalari deb baholashimiz mumkin.

2.2 “Tushda kechgan umrlar” romani qahramonlarining ruhiyati tahlili

O'tkir Hoshimov adabiyotga shaxsga sig'inish barham topa boshlagan 50-yillarning oxiri 60-yillarning boshlarida kirib keldi. O'zining dastlabki asarlari bilan atoqli adib Abdulla Qahhor nazariga tushadi, xalq mehrini qozonadi. Aytish mumkinki O'tkir Hoshimov omadli yozuvchi. U adabiyot maydoniga kirib kelgan davrda ijtimoiy hayotda bo'lganidek, badiiy adabiyotda ham erkinlik shabadasi esa boshlagan vaqt edi. Bu paytga kelib yozuvchilar o'z ko'nglidagilarini ochiq aytmasa ham ancha erkin yoza boshladilar. Xuddi shu davrda O'tkir Hoshimov asarlari birin- ketin dunyo yuzini ko'ra boshladi. Bir qator qissa va hikoyalari bilan xalq mehrini qozongan adib yetmishinchi-yillarning oxirlarida roman janriga qo'l urdi. “Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor” kabi romanlar tajribasidan so'ng O'tkir Hoshimov o'zining so'ngi romani “Tushda kechgan umrlar”ga qo'l urdi. Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o'rni benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o'ylari, kechinmalari, kayfiyatlari hamda intilishlarini yuksak badiiylilik asosida tasvirlash san'ati yotadi. Uning mohiyatini esa, qahramon xarakteriga xos xislatlarning, ruhiy olamining qay holda, qay vaziyatda ochilishi belgilaydi. Yozma adabiyotda psixologik tasvir anchagina chuqur va ko'p qirralidir, ya'ni unda, nafaqat ruhiy-psixologik tasvir, balki ruhiy tahlil hukmronlik qilish darajasiga yetadi. Ruhiy tahlil kuchli bo'lgan adabiy-badiiy asarlarda har bir detal , xatti-harakat, epizod, har bir voqea u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga bo'ysundiriladi. Inson ruhiyati juda keng olam bo'lib, undagi hissiyot va tuyg'ular ham anglab bo'lmas darajada cheksizdir. Xuddi shu his-tuyg'ular insonda ikki xil shaklda o'z ifodasini topadi: birinchisi anglangan, ma'lum mantiqqa ega bo'lgan, tashqi dunyoga nisbatan o'zining qat'iy xulosa va yo'nalishiga ega bo'lgan tuyg'ular. Bu tuyg'u insonning

jamiyatga, odamlarga, atrof-muhitga munosabati va bular haqidagi ma'lum tushunchaga ega bo'lgan qarashlarni ifoda etadi. Bularning hammasini ong sintez qilib beradi, ya'ni ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari, ongga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud bo'lgan, obyektiv olam bilan tinimsiz aloqaga kirishib turuvchi hislar. Bu kabi hislar inson ruhiyatining asosini tashkil etadi. Garchi biz biror ishni qilganda, gapirayotganimizda, o'zimizni tutishimiz, holatlarimiz bizga anglangan, ma'lum bo'lgan va xuddi biror mantiqqa bo'ysunganday bo'lib tuyulsa-da, ammo, shu hislarni yuzaga chiqaruvchi, shu tushunchalarga turtki beruvchi asosiy narsa-ong osti hislaridir. Inson ruhiyatida ongli faoliyat, ongli hislardan ko'ra anglanmagan hislar ko'lam jihatidan cheksizdir. Masalan, biz oldimizdan o'tib ketgan mushukni payqamay qolsak-da, ong osti hislari uni o'ziga qabul qiladi va ma'lum vaqtdan so'ng uni o'zi qabul qilgan ramzlar orqali tushimizga uzatadi. Shuning uchun ham tushimiz bizga hamisha g'ayritabiiy tuyuladi. Tushdagi voqea, hodisa, holat yoki obraz aynan ong osti hislarining tashqi dunyoni qabul qilish ramzlari bo'lib, odam ongli faoliyatdan to'xtagan, ya'ni uyqu paytida bu hislar inson miyasiga o'zi qabul qilgan ramzlarni tarqata boshlaydi. Har qanday adabiy-badiiy asar bilan o'quvchi tanishar ekan, uning oldida eng birinchi va asosiy vazifa-badiiy asarni tushunish masalasi ko'ndalang bo'ladi. Asarni tushunish uchun esa, o'quvchi uni o'qish asnosida muayyan qoidalar, qonuniyatlar asosida ish ko'rishi zarur bo'ladi. Bu qonuniyatlar asarga tegishli bo'lgan va u bilan bog'liq bo'lgan, tushunish masalasini osonlashtiruvchi bir qator omillardir. Bu omillardan biri, badiiy asarning ruhiyatiga kira olish, uning ruhiy olamini, qahramonlarning xarakterlari, ichki kechinmalari, o'y-xayollari, ruhiy dunyosini anglash, demakdir. Badiiy asardagi har bir xarakter, xatti-harakatlar, detallar, voqealar rivoji, epizodlar orqali asar ruhiyati anglashiladi. Bu, nisbiy tushuncha. Chunki, badiiy asar ruhiyatini faqat yuqoridagi vositalar orqaligina tushunish mumkin, degan hukm noto'g'ri. Biroq, bu narsalar asarni to'laroq tushunishda vosita rolini o'ynaydi, xolos. Inson ruhiy borlig'i, uning o'y-kechinmlari, orzu-armonlari, maqsad-intilishlarini tasvirlash hamisha badiiy

adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Tadrijiy takomillashib, rivojlanib kelayotgan o'zbek romani qiyofasi hamda nufuzi kechagidan tubdan tafovutlanadi. Yangilanayotgan badiiy tafakkur miqyoslari yangicha talqinlarni idrok etishni taqozo etmoqda. Har bir davr badiiyat solnomasi mohiyatida millat orzulari aks ettiriladi. Davr hodisalari, zamon o'zgarishlari inson qalbida aks-sado beradi. Ijtimoiy-madaniy, siyosiy-adabiy kayfiyatlar oqimi qalbgga yo'naladi, uning zarblariga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asar qalbning o'ta shaxsiy, shu barobarda o'ta ijtimoiy mahsuli bo'lganligi bois, zamonning o'zgarayotgani, tafakkurning yangilanayotgani unga ham o'z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday o'zgarishlar, o'sishlar tasvir oynasi. Unda g'oya taraqqiyoti, inson ongi va ma'naviyati o'sish tarixi, ijobiy yangilik kasb etish jarayonini kuzatish mumkin. Shunga ko'ra bir davrda yaratilgan qahramon boshqa bir davrda yaratilgan qahramondan farq qiladi, bir ijodkor yaratgan xarakter o'zga ijodkor qayta tiklagan iroda yo'nalishidan tubdan tafovutlanadi. Biroq joriy qahramon tabiatida mushtarak jihatlar ham mavjudki, holat, eng avvalo, tarix falsafiy-badiiy tadqiqoti jarayonida yanada bo'rtibroq ko'zga tashlanadi. Har qanday badiiy asar ham aniq bir hayot haqiqatini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bunda yozuvchining iste'dodi, mahorati va matonati eng muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, iste'dod-murakkab ijtimoiy muhit. Iste'dod-yozuvchining ijodiy kuchlari kompleksi va uning ijod qilish ishtiyoqi, shunga layoqati, qobiliyati. Shuning uchun ham iste'dodi yuksak adiblar asarlarida o'z davrining ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etib turadi. Bu narsa esa asar qahramonlarining faoliyati va xarakter xususiyatlari orqali ifodalanadi. Illo, xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir. Badiiy asarni to'laligicha namoyon bo'lishi uchun qahramon va uning ruhiyati masalasi birinchi o'rindagi masalalardan biri hisoblanadi. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanining voqealari kuz tasvirini berish orqali boshlanadi.

E'tibor qilinsa, ijodkorning badiiy mahorati shunda ko'rinadiki, voqealarni "kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi" tashbehi bilan boshlab,

o‘quvchini keyinroqda yuz beradigan fojiiyaviy vaziyatga ruhiy jihatdan tayyorlab oladi. Bu romanda muallif voqealar tasvirida ularning tabiiy oqimini saqlashga intiladi. Asar voqealari zahirida salmoqli umumlashmalar, insonlar hayotining muhim tomonlarini ifodalovchi teran fikrlar mavjud. Muallif birinchi navbatda inson shaxsi, uning ruhiy dunyosi manzaralarini ustalik bilan chizadi. Ikkinchidan, urush atalmish ofatni qoralaydi, uning g‘ayriinsoniy mohiyatini ochib beradi. XX asrni qaratgan “izm”lar insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar keltirdi. Inson ruhi, qalbi va ma‘naviyati siyosiy mafkuraning quliga aylantirildi. G‘ayriislomiy va g‘ayriinsoniy g‘oyalar doyaligida “pioner”, “komsomol”, “kommunist” singari mavjudotlar tug‘ildi. Mavjud siyosiy mafkura bilan “oziqlanib” ulg‘aygan bu avlodlar go‘yoki odamiyatning ideal vakillariga aylandi. Tabiiyki, ana shunday vaziyatda bu “vakillar” urush maydonlaridan, mehnat lagerlaridan, cho‘lu sahrolardan badiiy kitob sahifalariga ko‘chdi. Adabiy qahramonlarga aylandi. Ayni holat o‘zbek adabiyotida ham shaklan milliy, mazmunan izmlar g‘oyasini tarannum etuvchi asarlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Asarni yaxshiroq anglashimiz uchun Bunda bizga, bu asar qahramonlarining taqdiri bir-biriga chambarchas bog‘langanligi, ular ruhiy dunyosining o‘zaro uyg‘unligi, yaqinligi qo‘l keladi. Darhaqiqat asarda Rustam, Qurbonoy, Komissar, Sanjar, Shahnoza, Grisha kabi qahramonlarning taqdiri bir ipga tizilgandek, go‘yo. Yozuvchi “Tushda kechgan” umrlar romani orqali urush oqibatida inson ruhiyatida qanday g‘alayonlar kutilganligini ko‘rsatgan. Jumladan Rustam va Shaxnozaning Qatortoldagi qo‘shnisinikida bo‘lgan to‘y sahnasi o‘zbek millatiga xos ruhiy sifatlarining namoyon bo‘lish ko‘lami va teranligi jihatidan oldingi romanlardan also qolishmaydi. “Paxta ishi” natijasida yigirma besh mingga yaqin respublikamiz fuqarolari qiynoqlarga solindi, sudsiz tergovsiz qamaldi. Yillar davomida muttassil o‘tkazilib turgan qatag‘onlar, sobiq ittifoq va respublikamizda yuzaga kelgan tang vaziyat, milliy urf-odat va an‘analarning toptalishi, hattoki yaqin qarindoshi vafot etganda uni so‘ngi manzilga kuzatishga borolmaslik va boshqa holatlar kishilarning ko‘zini ocha boshladi. Xalq orasida norozilik kayfiyati paydo bo‘la

boshladi. Bu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, ta’sirlangan O‘tkir Hoshimov bu voqealarni badiiy asarga aylantirdi. Roman kuchli dard bilan yozilgan bo‘lib, unda biz tafakkuri teranlashgan, ijtimoiy dard-alamlari pishib yetilgan ijodkorni ko‘ramiz. Jamiyat hayotiga chuqur kirib borish, kishilar ruhiyatini nozik tasvirlash adibning boshqa romanlariga nisbatan, “Tushda kechgan umrlar”da yaqqol ko‘rinadi. Munaqqid A. Rasulov asar ruhi, mundarijasida mustaqillik samarasi sezilganligini quydagicha izohlaydi: “Tushda kechgan umrlar”da O‘.Hoshimov insonlar xarakterini yoritishda o‘zini zinhor cheklamadi. Sho‘ro davridagiday, buni aks ettirish mumkin emas, insonni asosan, ijtimoiy mohiyatini yoritish kerak degan yozilmagan qonunlar tazyiqi endi yo‘q”.⁵⁴ Bu asar Sho‘ro davrida yozilgan bo‘lganida zinhor chop etilmagan bo‘lardi. Chunki butun umrini Sho‘rolar davlatiga xizmat qilishga bag‘ishlagan, millatimiz farzandlarini o‘z qo‘li bilan «yot unsur»ga aylantirgan Soat G‘aniyevichdek kimsalar mustabid tuzum davrida ko‘kka ko‘tarilgan edi. Soat G‘anievich faqat obraz emas. Yozuvchi uning qiyofasida Sho‘ro davri ijtimoiy tuzumini ham aks ettirgan. Unga din va millat tushunchasi mutlaqo begona. U kezi kelsa, o‘z xotini va bolasidan ham gumon qiluvchi chekist. Mustabid tuzum o‘ziga mana shunday kishilarni tarbiya qilib voyaga yetkazgan edi. Romanda Rustam, uning suyukli xotini Shaxnoza va Rustamning ota-onasini asosiy syujet chizig‘iga yig‘ish orqali real hayot manzaralari tasvirlanadi. Asar Rustamning o‘limi voqeasi bilan boshlanadi. Voqealar rivoji davomida yozuvchi bosh qahramon o‘limi tafsilotini aniqlash barobarida rustamlar fojeasiga sabab bo‘lgan tuzumning mohiyatini ochib beradi. Inson bolasining tariqchalik qadr-qimmatini yo‘qligi, ularning taqdiri tuzum yaratgan komissarlar qo‘lida xal bo‘lishini mahorat bilan ko‘rsatib beradi. Rustam kabi olijanob mard yigitning avji yigitlik pallasida o‘limni tanlab o‘z joniga qasd qilishi mantiqsizlikday ko‘rinadi. Lekin yaxshilab o‘ylab ko‘rilsa, bemaqsad Afg‘on urushi, uning minglab gunohsiz qurbonlari, «o‘zbek ishi» bahonasida xalq boshiga

⁵⁴ Расулов А. Ардокли адиб. Тошкент: Шарк, 2001 йил, 112-бет.

solingan qatag'olar mantiqsiz. Rustam ana shu mantiqsizlikning qurboni. Suhbatlaridan birida yozuvchi bu xususida shunday deydi: "Sho'ro zamoni oxirlab qolgan kezlar edi. Bir tomonda bemaqsad Afg'on urushi boryapti. Ikkinchi yoqda "o'zbek ishi" bahonasida xalqimiz boshida qatag'on qilichi o'ynayapti. Bir kuni Afg'ondan, bir kuni mamlakat ichkarisidan askar yigitlarimizning "temir tobuti" kelib turibdi. Xuddi dahshatli tush kabi..."⁵⁵ Roman nomi ham bejiz bunday tanlanmagan. Adib 70 yil davomida mudroq holatda bo'lgan, uyquda hayot kechirgan millatning ijtimoiy, ma'naviy holatiga ishora beryapti.

Asarda ko'p yillar kommunistik ahdiga sodiq yashagan Rustamning otasi tuhmat bilan qamalgandan so'ng, o'g'liga yozgan xatida aytadi: "O'ylab qarasam o'tgan umrim— umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u tush ko'rib yuraverganman:goh shirin, goh xatarli tush ko'rib, o'sha "birov" qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman... uyg'onishga esa qo'rqqanman... mana endi, uyg'onib, yonverimga qarasam, menga o'xshaganlar ko'p ekan..." Bu so'zlar o'zi yashab turgan tuzumning adolatsizliklarini ko'rgan, nohaq jabr tortgan raisnigina emas, roman personajlarining barchasiga, ular timsolida esa minglab jabrdiydalarga ham tegishli. Ular bu qo'rqinchli tushdan uyg'onib amin bo'ladilarki, ular ishongan g'oyalar puch, bir umr e'tiqod qo'yganlari sarob bo'lib chiqdi. Adib bu tuzumning va unga ishongan odamlarning taqdiridagi ma'nisizliklarni shu tarzda ochib beradi. Romanda insonlar taqdiri orqali mustabid tuzumning g'ayriinsoniy mohiyati ochib beriladi. Yozuvchining aytishicha, "Tushda kechgan umrlar" romanidan bir qancha boblarni xorijda nashr etiladigan "Ikarus" jurnalida ingliz tilida e'lon qilishayotganda "U nimasi bilan sizlarga yoqadi?" deb so'radim. "Unda siyosat yo'q, ya'ni bu - kommunist, bu - fashist, bu - qizil, bu - oq, bu - Do'st, bu - dushman, degan gap yo'q. Bu asarda urush, inson, o'lim, degan uchlik bor», deb javob qilishdi noshirlar². Darhaqiqat, urush va uning oddiy odamlarga keltirgan zararli oqibatlari haqida. Yozuvchi

⁵⁵ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar:4-jild: Tushda kechgan umrlar: Roman, qissa, hajviyalar, hikoyalar, tarjimalar, o'yalar. – T.: Sharq, 2011 yil. 363-bet.

Afgʻon urushi mavzusiga qoʻl urushdan oldin Afgʻonga borgan yigitlarning koʻpi bilan gaplashadi. Lekin asarni boshlashi juda qiyin boʻladi. Shu orada betob boʻlib, kasalxonaga yotganida muhim bir voqea sodir boʻladi: “Oʻshanda kech kuz - noyabr oyi edi. Balkonga chiqib, sigaret chekib tursam, roʻparadagi - yongʻoqmidi, chinormidi, hozir eslolmayman - daraxtdan bir yaproq uzilib, uchib-uchib kelib, oyogʻim ostiga tushdi. Bosgan edim, “qisir-qisir” etib maydalanib ketdi. Shunda boʻlajak romanning birinchi jumlasini tugʻildi: “Kuz oʻlim toʻshagida yotgan bemorga oʻxshaydi, oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi”. Asarning musiqasi topildi! Shoshilinch bilan statsionardan chiqib ketib, “Tushda kechgan umrlar” romanini oʻttiz kunda yozdim. Agar oʻqigan boʻlsangiz, u boshdan oxirigacha hazin bir musiqaga oʻxshaydi: Rustamning qismati ham maʼyus musiqa, Shahnozaning qismati ham, urushda halok boʻlgan Xayriddinning qismati ham maʼyus musiqa”⁵⁶. Shu tariqa adibning buyuk bir romani dunyo yuzini koʻradi. Albatta roman yozilishining koʻplab ijtimoiy omillari mavjud. 1990 yilda XXVIII syezd boʻladi. Unga Oʻzbekistondan Oʻ. Hoshimov ham delegat boʻlib boradi. Oʻshanda Qirgʻizistonda “Ayrin tashkilotlar” qutqusi bilan qirgʻiz va oʻzbek xalqlari orasiga nifoq solingan, “Paxta ishi”, “Oʻzbek ishi” deya bolalarimizni armiyada urib oʻldirishayotgandi. Peshanamizga “Bosmachining bolalari, poraxoʻr, qoʻshib yozuvchi”, degan tamgʻalar bosilgandi. Syezd majlisida Islom Karimov “Paxta ishi”, “Oʻzbek ishi” degan gap oʻzbek xalqiga, butun bir millatga nisbatan tuhmat ekanligini qattiq gapiradi.. Ertasiga Oʻ. Hoshimov ham shu masalada soʻzlab, keying paytda armiyadan Oʻzbekistonga kelayotgan “ikki yuzinchi” yuklar (yaʼni temir tobut)⁵⁷ koʻpayib ketganini, ularning aksariyati Afgʻonistondan emas, mamlakatning oʻzidan yuborilayotganini aytadi. Shunda syezdda qatnashayotgan generallardan biri: “Siz sovet Armiyasiga tuhmat qilyapsiz. Genshtabdan

⁵⁶ Hoshimov Oʻ. Tanlangan asarlar:4-jild: Tushda kechgan umrlar: Roman, qissa, hajviyalar, hikoyalar, tarjimalar, oʻylar. – T.: Sharq, 2011 yil. 363-bet.

⁵⁷ Oʻtkir Hoshimov: "Bu daraxtning nomi edi Yaxshilik, «Markaziy Osiyo madaniyati» gazetasining bosh muharriri bilan suhbat.ziyouz.com

aniqlaymiz, agar gapingiz tasdiqlanmasa, tribunal oldida javob berasiz”, deydi. Shunda yozuvchi “Tribunal emas, lozim bo‘lsa, sud oldida javob beraman, men harbiy emas, delegatman”, deya javob qaytaradi. General kech soat otilarda yuqoridagi masala yuzasidan ma'lumot berishini bildiradi. Haqiqatan ham u soat roppa-rosa o‘n sakkizda minbarga chiqib. “O‘zbekistonga borgan “ikki yuzinchi” yuklar faloncha emas, pistoncha ekan”, deydi. Shunda zaldagilar: “Ikki yuzdan ortiq o‘lim kammi, bitta soldat bolaning o‘ligi borsa ham, fojia-ku bu!” deb qichqirib yuborishadi. Keyin millatimizning jonkuyar adibi O‘. Hoshimov minbarga chiqib. “Boyagi gapingiz uchun mendan emas, o‘zbek xalqidan kechirim so‘raysiz”, deydi. Bu gaplardan ko‘rinib turibdiki, ardoqli adibimizning bu mavzuga qo‘l urishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lib qolmagan. O‘tkir Hoshimov o‘zigacha bo‘lgan boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq, urushdagi qahramonliklar haqida emas, uning asl qiyofasini, kulfatini, baxtsizligini ko‘rsatib berdi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida bir lavha bor. Rustam tankda ketayotib, o‘liklarni mashinaga ortayotgan askarlarni ko‘rib qoladi-da, to‘xtaydi. Tushib qarasa, uning eng yaxshi ko‘rgan do‘sti Temurning o‘ligini ham ortishayotgan bo‘ladi. Temurning afti tanib bo‘lmas darajada pachoqlab tashlangani uchun uni qo‘lidagi tatiurovkadan taniydi. Yana bir dahshatli holat: Temurning olati kesib olingan edi (Afg‘on urushida yaralanib qo‘lga tushgan askarlarnig qulog‘i, burni va boshqa a‘zolarini kesib tashlash holatlari ko‘p bo‘lgan.) Buni ko‘rgan Rustam o‘zini bilmay qoladi, “quturib” ketadi... U bir hovliga tanki bilan bostirib kiradi. Hammayoq chang-to‘zon. Tankdan tushadi. Birpasdan so‘ng ishkom tagidagi qizil ko‘ylakka ko‘zi tushadi. Beixtiyor yaqin boradi. Qarasa, ko‘ylak emas, yiqilib yotgan ayol ekan. Rustam uning ustiga egiladi. “Qo‘rqmang, opa, biz sizga tegmaymiz”, deb yelkasidan tutsa, ayol yonboshga ag‘dariladi. Bu go‘zal ayolning o‘q teshgan bo‘ynidan oqqan qon yarim yalang‘och ko‘ksiga tushadi. Shu payt vayrona kulbadan bir yarim-ikki yoshlardagi ishtonchang bola chiqib, entak-tentak qadam bosib, ayolning boshiga keladi. “Mo‘rjona”, “mo‘rjona”, (“mo‘rjona”, - ona degani) deb, uni ema boshlaydi. So‘ng bosh ko‘taradi-da, chirqillab yig‘lab

yuboradi. Bolaning og‘zidan sut 10 emas, qon oqar edi! Yozuvchi sizni bizga ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan urushning noinsoniy qiyofasi xuddi shunday edi. Bunday fojiga dosh berolmagan Rustam “Otaman! Hammangni otaman! O‘zimniyam otaman!” deb hayqiradi va hushidan ketib, kontuziya bo‘lib qoladi. Uning ruhiy holatidagi o‘zgarishda nafaqat yarador bo‘lishining, balki ana shu manzaralarning ham “hissa”si bor. U urushga bormasdi, uni majbur qilib yuborishdi. Balki Rustam o‘sha ayolni otmagandir, boshqa bir avtomatdan otilgan o‘q tekkandir unga. Lekin o‘lib yotgan ayolning gunohi nima? Urushga borib ota bo‘lish baxtidan mosuvo bo‘lib kelgan Rustamning gunohi nima? Urushda qornidan xanjar yeb o‘lgan Xayriddinning, Temurning gunohi nima? Va nihoyat, sut o‘rniga onasining ko‘ksidan qon emgan go‘dakning gunohi nima? Roman boshdan oyoq mana shu savollarga javob qidiradi. Albatta, har bir iste’dod, ijodkor o‘ziga xoslikka ega. Matyoqub Qo‘shjonov “San’atkor va hayot” nomli tadqiqotida “shunday asarlar borki, hayotiy voqeligi, g‘oyaviy mohiyati jihatidan bir – biriga o‘xshash, ammo shu voqealar talqinida va g‘oyaviy maqsadlarni poetik tahlilida har bir adib o‘z betakror estetik yo‘lidan boradi”. – deya yozadi. O‘.Hoshimov ham o‘ziga xos uslubni namoyish etadi. Yozuvchi «Tushda kechgan umrlar» dagi har bir vaziyatni, tasvirni maromiga etkazib, sirli – jozib tarzda tasvirlaydi. Tasvir ruhiyati rang-barangligi har bir muammo ziddiyatlarini yaxlit gavdalantirish imkonini beradi: “Akam allaqancha gazeta yig‘ib qo‘ygan ekan. O‘qib, hayron bo‘ldim. Birida butun mamlakatni qamoqxonalarga aylantirgan rejim yemirilgani, to‘la demokratiya ro‘yobga chiqayotgani yoziladi, boshqasida “o‘zbek ishi” bo‘yicha qamoqqa olingan obkomlar, raykomlar, raislar la‘natlanadi. Birida odamlarni e‘tiqodi uchun tazyiq ostiga olinganlar qoralanadi, vijdon erkiga yo‘l ochilgani aytiladi, boshqasida otasini dafn etish uchun mozorga borib, Qur‘on tilovat qilgan kommunist felyeton qilinadi... Qiziq”. Kundaliklardan olingan lavhada Rustam afg‘on fojialari iztirobidan tashqari harbiydan keyingi hayoti ham ziddiyatlarga boy bo‘lgan davr hisoblanadi. Uning tasavvurida hayot o‘zgargan, jamiyat adolat sari qadam tashlashi zarurdek tuyulsa-da, ammo bu tushunchalar

faqat uning tasavvuri mahsuli edi, xolos. Chunki otasi xuddi o'sha tuzum qurboniga aylangan, uni adolatsizlik o'z girdobiga tortganligini u to'liq anglab yetmas edi. Otasi Shomansur Shomatov hayoti davomida haq va haqsizlikka qarshi kurashgan shaxs bo'lsada, ammo amaldagi ijtimoiy muhit qurboniga aylangan edi. U uzoq yillar adolatli tarzda kolxozga raislik qilgan bo'lsa-da, ammo o'sha davr ziddiyatlari, ya'ni "paxta ishi" masalasida qamoqqa olinganligini Rustam uning haqligini bilib ozod etish uchun harakat qilib, ijobiy natijaga erisha olmaydi. Xuddi mana shu holat uni iztirobga soladi. Shuningdek, romanda Qurbonoy xola obrazi ham asar badiiy to'qimasida yetakchi o'rin tutadi. U oddiygina farrosh bo'lsa-da, o'z oilasini halol mehnat bilan topgan mablag'i hisobiga tebratar, ba'zan esa mashaqqatli hayot qurboniga aylanganligini o'zi ham sezardi. Ismi jismiga monand obrazda o'zbek ayoliga xos xususiyatlar mujassam.

Ijodda realistik tamoyil ustuvorligi shundaki, yozuvchi hodisani poetik idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki unda ijodiy yondoshuv va estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Joriy munosabat tasvir shiddati uyg'unligini taminlash barobarida xarakter to'laqlonligini ham mantiqan dalolatlaydi. Voqelik keskinligi yoxud ifoda to'qnashuvi badiiy maqsadni aniqlashtiradigan omil, unda muhokama tabiatini anglash tadqiq sahniga chiqadi. Tuyg'u va ongda kechadigan jarayon aslida, bir-birini inkor qiluvchi qutblar, teran falsafagina bu ikki nuqtani jiplashtiradi. Zero, adabiy tafakkur tizimi yaxlitlik asosiga quriladi, poetik unsurlar ziddiyati-yu uyg'unligi yetakchi badiiy xususiyatga evriladi. Binobarin, janr taqozosi va adabiy qonuniyatlar joriyligi taraqqiy topayotgan fikrni izohlaydi: "Xosiyatsiz tush ko'rdim. Otam hovlidagi so'rida yotganmish. Tagida ko'rpacha ham yo'q, quruq taxta ustida yotibdi (qamoqxonalardagi kabi-M.Y). Dada ko'rpacha solib beray desam, indamaydi. Nuqul yig'laydi. Dadamning yig'lashini hech ko'rgan emasdim. Qo'rqib ketibman. Yoniga yugurib borsam, dadam g'oyib bo'lib qopti"¹. Roman tabiatida san'atkor shaxsiyati butunligiga doir xususiyatlar jamlanadi. Yaxlit tizim sifatida voqelik shakli va mazmunini bir-biriga ulaydigan badiiy tushunchada daraja ko'rsatkichi qabarib ko'rinadi. Aynan, tasvir va ifodani

bir muayyan estetik markazga yig'ish adabiy mahoratga chambarchas bog'liq. Aslida, hayotiy material ko'p qirrali va mavhum, ijodiy tanlov pozitivligini esa tahlil aniqligi belgilaydi. Mantiq hamda munosabat 12 zichligi badiiy meyor saqlanishi kafolati, unda real voqelik dalolati qayta ishlanib, poetic tadqiqot ustuvorlashadi: "Ilang-bilang yo'l emish. Bir tomon qumli cho'l. Bir tomon- "zelyonka". "Zelyonka"dan o'q otilayotganmish. Qiziq, avtomat tovushi kelmasmish-da, yonimdan hushtak chalib o'tayotgan o'qlar ovozi aniq eshitarmishman. "Zelyonka"ga otay desam, avtomatim yo'q. Qochay desam, pana joy ko'rinmaydi. Bor bo'yimcha o'zimni yerga otibman... Bir mahal katta yo'ldan BMP yelib keldi. Qarasam, yonimdan shitob bilan o'tib ketyapti. "Olib ketinglar, meni olib ketinglar!" dedim sapchib turib. BMP to'xtamadi. "Obket! –dedim baqirib.-Obket meni!" BMP to'xtadi. Yetib borsam, Xayriddin qo'l cho'zib turibdi. "Chiqing jo'ra, chiqing tezroq!" dedi. BMP ga tortib chiqardi"2.

Yozuvchi O'.Hoshimov asarlaridagi ko'pqatlamlilik eng avvalo muallifning nutqiy foydalanish darajasida namoyon bo'ladi. Uning ijodiy uslubi adabiyotning bosh mezonini hisoblangan milliy qadriyat va badiiy shartlilikning o'zaro munosabatiga asoslangan. Ifoda usuli qudrati yangilik, originallikda emas, balki voqealar hayotiyliigi, tafsilotlar uyg'unligi negizida rivojlanadi. Roman kompozitsion tuzilmasida hissiy-tahliliy uslub ustuvorligi lirik hissiyotga moyillik bilan qorishib ketadi. E'tiqodsizlik, manqurtlik fojiasi va ularning sabab-oqibatlari muallif talqinida eng ayanchli muammoga aylanadi. Binobarin, "Tushda kechgan umrlar"da Komissar "o'n besh yoshimda chekist bo'lganman" deya ta'kidlaydi. Qahramonning keyingi mulohazalari mushohadani to'ldiradi: chekist haqiqiy chekist bo'lib tug'ilishi kerak. Ko'rinadiki, san'atkor Soat G'aniyev qiyofasidagi ko'r-ko'rona e'tiqodni inkor etmaydi. Aniqrog'i, hukm-xulosa chiqarishni birlamchi vazifa deb hisoblamaydi. Yaqin o'tmishimizdan ma'lumki, kommunistik mafkura targ'iboti yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, kishilarda ishonch hissini uyg'otgan. Komissar ham yangicha e'tiqodni yoqlagan, farovon va ozod jamiyat haqidagi tasavvurlarga ishongan tipik umumlashma hisoblanadi. Undagi maslak

insonni bunyodkorlik ishlariga otlantirishga qodir quvvatga ega. Aslida qahramonning fojiasi ham jamiyat ma'naviy mezonlarining buzilishiga borib taqaladi. Shu nuqtada obrazning tipik sharoit hamda davriy o'zgarishlarga bog'liq holda shakllanishi oydinlashadi: 13 "Yugur-yugur! -deb o'yladi Komissar ensasi qotib. -Umringni uzaytirmoqchimisani? Xex! Ko'chani kesib o'tayotganingda paq etib mashina urib ketsa -tamom! Qarabsanki, eshiging oldida qo'shaloq tobut turibdi! Ikki qavatli uchastkang xotiningga qoladi. Darvoqe, ikki qavatli koshonani qanday qurdiykin, bu? Xo'p, professorsan. Xo'p, ana, oylinging sakkiz yuzdir. Sakkiz yuz so'm maosh bilan yuz ellik minglik qasr solib bo'ladimi? Poraxo'r! Hammasi poraxo'r! Tag'in bular yoshlarga adolatdan va'z o'qiydi. Mauzerni yo'ldan urganlar ham shunaqa domlalar! Yoshsan, professor, yoshsan! Aqalli, o'n besh yosh kattaroq bo'lganingdami? Elliginchi yillarda bir marta so'roq bersang, sichqonning inini ming tangaga sotib olgan bo'larding".⁴ Qahramonning ichki monologi undagi e'tiqodning bir necha qirralarini ochib beradi: "o'z-o'zidan gumonlangan chekist haqiqiy chekist emas". E'tiqod muallif talqinida Soat G'aniyevning turmush tarziga aylanib ketgan. U hatto prinsip uchun onasidan ham voz kechadi. Biroq Komissar milliy an'analardan butunlay ajralgan shaxs fojiasini aks ettiradi. Shunga qaramasdan, uning butun hayot tarzida ham kommunistik siyosatning, ham chekistlik a'molining alomatlari sezilib turadi. Jumladan, Sovmin xodimi bilan nahor oshiga borganda ham ikki nuqtada qahramonning haqiqiy chekistligi zohir bo'ladi. "Komissar toqati toq bo'lib, mashinadan tushdi. Uyg'otishning oddiy usulini ham bilmaydi, bu galvars! Derazani mushtlash kerak! Mana bunday! Ha, barakalla! Darrov chiroq yondi. Darvoza ortida sho'ltillagan qadam tovushi eshitildi. -Kim? -dedi erkak kishi xavotirlanib. Komissar ko'nglida g'urur hissini tuydi. Senga hisob berib o'tirish qoluvdi endi! -Oching! -dedi dag'dag'a aralash".⁵⁸ "Komissar miyig'ida kulib qo'ydi. "Demak, meni duch kelgan metro bekatiga tashlab ketasan! Gapir, Sovmin! Nega indamaysan? -dedi

⁵⁸ Hoshimov.O'. Saylanma. Ikki jildlik.2-jild. Hadikli tushlar.-T: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.2002. 209-bet 1 Ko'rsatilgan manba.210-bet

xayolan xitob qilib. –Xex! Albatta indamaysan-da! Yaxshilab titkilab ko‘rilsa, o‘zingni biografiyangdan ham xohlagancha illat topiladi!”⁶ Nutqiy faoliyat Soat G‘aniyev qiyofasini oydinlashtiradigan muhim xususiyatlardan biridir. Aniqroq aytganda, qahramon o‘y-xayollari o‘z-o‘zini fosh etadigan qurolga aylanadi. Dastlabki talqinda organ xodimining g‘ururi va e‘tiqodiga sadoqati qayta uyg‘ongandek taassurot uyg‘otadi. O‘z maslagini haq deb biladigan chekist na jamiyatdagi o‘zgarishlar, na milliy ma‘naviyat ifodasini tan oladi. Undagi qorishiq tabiat: ishonchsizlik tuyg‘usi, alamzadalik kayfiyati hamda nafrat hissi tipik manqurt xarakterini kasb etadi. Aslida qahramon ruhiyatini shakllantirish an‘ana va zamon, milliy mentalitet va ongdagi jiddiy yangilanish mushtarakligidan oziqlanadi. Komissar obrazi takomili O‘zbekistonga yordam uchun kelgan Grigoriy Vasilevni eslatadi, to‘g‘rirog‘i ikki muhit, ikki millat turmush-tarzida voyaga yetgan qahramonlarni tor manfaatparastlik, xudbinlik, milliy an‘analarni mensimaslik birlashtirib turadi. Biroq, rus yigitidan farqli o‘laroq Soat G‘aniyevning o‘z maqsadi, e‘tiqod tarzi mavjud. Ammo bu e‘tiqod tarzi jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Undagi ulkan ma‘naviy-axloqiy muammolar teranlashishiga imkon yaratadi. Grisha esa kayf-safo, mayishatni hayotning mazmuni deb biladi. Personajlarning fikr doirasidagi yakdillik milliy qadriyatlarga munosabatda ko‘rinadi. Komissarda bot-bot uyg‘onib turadigan g‘urur hissi o‘z davri kelishiga ishonch bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, uning xarakteriga berilgan chizgilarda aks etadi. Taklif qilingan mutaxassis esa milliy e‘tiqod, ma‘naviyat hamda axloq tamoyillaridan yiroq bir kimsa. “Adabiyotshunoslik ilmi aytadiki, badiiy asarni ko‘tarib turgan ustun – bu uning badiiyati. Badiiyatning bo‘lsa o‘z asoslari, mezonlari bor. Bular mazmun va shakl birligi, tasvirdagi me‘yor va haqqoniylik, ijodiy dard samimiyati, muallifning tasvir etilayotgan voqelikka estetik bahosi, obraz yaratishda betakrorlik, pafos, shartlilik, til badiiyati kabilardir”⁵⁹. Quvonarlisi, adib romanda badiiy mazmunga munosib shakl topa

⁵⁹ B. Sarimsoqov. Badiiylilik asoslari va mezonlari. –T.: 2004, 90-91-betlar.

olgan. Rustam, Soat G'aniyevich, Qurbonoy xola kabi obrazlar muallif badiiy niyatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Yozuvchi XX asrning 80-yillaridagi hayotni ustalik bilan tasvirlagan. Asarning o'tgan asrning so'ngida mamlakatimiz mustaqillikka erishganligidan keyin yozilganligi, ijtimoiy hayotni bor buticha ko'rsatish, uni yirik planda tasvirlash imkonini yaratdi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev ham "Tushda kechgan umrlar" romanini mustaqillik yillarida yozilgan romanlarning ichida qo'lga ilinadiganlaridan deb aytadi. Bundan ko'inib turibiki, asar adabiyotshunos olimlar tomonidan ham ijobiy kutib olingan. Asarda oshkoralik va tanqidiy ruh kuchli. Yozuvchi o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, kishilar ongi va ruhiyatida tarkib topgan insoniylik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari hislatlarni ulug'lash bilan birga adolatsizlik, mansabparastlik, nopoklik, diyonatsizlik kabi illatlarni ochib tashlagan.⁶⁰ Adib romanda bu kabi illatlarning kelib chiqish sabablarini chuqur va asosli dalillaydi. "Paxta ishi" jarayonlari boshlanib, brigadirlar tabelchilar, kolxoz raislari, raykom va obkomlarga bu o'p'qonning domiga tortiladi. Shular qatori Rustamning otasi Shomansur Shomatov ham. Rustam Afg'ondan kelgach otasining ishi bo'yicha bir necha idoralarga murojat qiladi. Lekin hech bir idoradan uni qiziqtirgan masala bo'yicha javob ololmaydi. Bu o'rinda uning respublika bosh prokurori bilan bo'lgan suhbat "o'zbek ishi"ning butun mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Adibning maqsadi o'sha dahshatli «O'zbek ishi» deb atalgan qatag'onni yoritish bo'lsada, Komissar obrazi orqali SSSR tuzumining zo'ravonlik asosiga qurilganligini ochib beradi. Bunda adib "O'zbek ishi" asoslarini ochish uchun to'rtta davrni qamrab oladi. O'tgan asrning o'ttizinchi yillaridagi qatag'on, urush yillaridagi tozalash, urushdan keyingi qatag'on va afg'on urushi. Ana shu to'rt davr voqealarining tasviri, to'g'rirog'i to'rt davrdan olingan yaxlit epizodlar "O'zbek ishi" ning kelib chiqishiga asos bo'lganini ko'rsatadi. To'g'ri, bu o'rinda jasoratli, irodasi

⁶⁰ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar:4-jild: Tushda kechgan umrlar: Roman, qissa, hajviyalar, hikoyalar, tarjimalar, o'ylar. – T.: Sharq, 2011 yil. 371-bet.

bukulmas, mehnatkash inson Shomansur Shomatov obrazi o'sha ijtimoiy muhitning qurboni sifatida namoyon bo'lgan! "Otang Shomatov Mansur pripiska qilgani, katta miqdorda pora olib, pora bergani uchun qamoqqa olindi...- Sizlar adashayapsiz, mening otam unaqa odammas, bir umr halol ishlagan". Bu o'rinda otasining begunohligini isbotlash uchun tinimsiz yugurgan, ammo tergovchi Shevelev, "o'zbekning boshiga qiron solish uchun kelgan general Amebartsumyan kabi shaxslarning maqsadi, ma'naviy qiyofasi, vahshiylik timsoli ekanligini voqealar zahirida Ilhom Shamatov bilan ular o'rtasidagi suhbatlarda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi". Asarda ijtimoiy muhit ta'sirida xarakteri shakllangan Soat G'aniyev obrazi ham juda haqqoniy tasvirlangan. Uning xarakteridagi bo'yin egmaslik, cho'rt kesarlik, shafqatsizlik bolaligidayoq mavjudligini voqealar tasvirida ko'ramiz: "-Ha -a, komissar! Qani, bir g'ayrat qil-chi, ko'ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo'larkan!... Soat tag'in oqimga qarshi suzishga tushdi... Bora-bora qo'llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi... o'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi... – Eshitib qo'yinglar! -dedi Soat alam aralash g'azab bilan. - Men komissar bo'laman! Albatta bo'laman! Hammangni otaman!" (O'sha asar, 34-36 betlar) Bu satrlarda komissar bo'lish orzusida yurgan, bolalikning beg'ubor damlarini o'z boshidan o'tkazyotgan Soat G'aniyevning xarakteridagi xususiyatlar ifodalangan. Komissar umri davomida hayot oqimiga qarshi yuradi. Asar boshida keltirilgan va ramziy ma'noda tasvirlangan. «O'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini», - anglagan komissar hayot oqimiga qarshi harakat qiladi. Natijada, o'z farzandi ham unga qarshi chiqqanda azoblar iskanjasida qoladi: «Qarang, bu olifta intelligentni! O'z otangni tergashni kim qo'yibdi senga! Zamon qanaqa bo'lganini sen qayoqdan bilasan! Inqilob g'alabalarini himoya qilish kerakmidi? Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Bundan tashqari harbiy qasamiyodga sadoqat, ofitserlik burchi, degan gaplar bor!", - deya o'zini oqlashga harakat qiladi. Bu obraz haqida adabiyotshunos U.Normatov shunday yozadi: "Komissar bilan Nazira ikkisi ikki olam. Komissar - mustabid tuzumning hukmron mafkuraning

qilich va qalqoni, tuzum yetishtirgan “siyosiy hushyorlik” yozuvlik, shafqatsizlik timsoli. Nazira esa nafosat, poklik ramzi”. Romanda muallif qo‘llagan badiiy usllardan biri asar tarkibida afsona-rivoyatlarning kelishidir. Ma'lumki, afson va miflar adabiyotning to‘ng‘ich namunalari hisoblanadi. Insoniyat tafakkurining mahsuli bo‘lgan, ajdodlar boy tafakkuring nodir namunasi sanalgan mif, afsona, rivoyatlar yozuvchi badiiy niyatini ifodalashda va qaramonlar ichki dunyosini ochib berishda kalit vazifasini o‘tagan. Jumladan, Qurbonoy xola tilidan aytilgan afsonalar shunchaki keltirilmagan. “Ular asardagibir-biriga qarama-qarshi turuvchi ikki qutb—komissar va Qurbonoy dunyosini ochishga xizmat qilgan”¹. Komissar Soat G‘anievich nazarida Qurbonoy xola hech kim emas. U oddiy farrosh ayol xolos. Komissar uchun bunday odamlarning tariqcha hurmati yo‘q. Ularning bari aybdor, mutelar. Lekin mana shu chalasavod kampir Xudoga bo‘lgan imon-e‘tiqodi va ma‘naviy qiyofasi bilan komissardan ustun turadi. Komissar va Qurbonoy xola obrazlarining qarama-qarshi qutblarda aks ettirilishi boisi ham shunda. Roman tili ham juda ravon, yozuvchi topgan ichki musiqa tufayli kuyday o‘qiladi. O‘rni bilan ishlatilgan xalq tiliga xos maqol, matallar hikmatli so‘z va iboralarning ishlatilishi ham asar badiiyatiga xusn qo‘shgan. Asarda muallif ilgari surgan g‘oya va tanlangan mavzu originalligi, kutilmagan yechimga ega ekani bilan ahamiyatlidir. Undagi o‘rtaga qo‘yilgan masalalarga insoniyat tegrasida ming yillardan buyon o‘z yechimini izlaydi. Inson chin ma’noda Yaratganning eng go‘zal mavjudoti, shu bilan birga o‘z taqdiri oldida ojiz banda. Asar obrazlari qalbining tubtubidagi o‘zi yashab turgan tuzumning ma‘nisizligini his etadi. Tiriklikdan, foniyl dunyoda kezishdan maqsad nimadaligini tushunishni istagan va oqibatda o‘zi kechirayotgan umrining mazmunsiz ekanini anglab dahshatga tushgan qahramonning taqdiri esa fojiali kechadi. Bu roman o‘zini inson deya bilguvchi kishilar ommasiga qarata aytilgan mulohazalar sabab yaratilgan deb aytish mumkin. Unda yozuvchi badiiy tasvir vositalaridan, interer, portret, peyzaj, tashbeh, timsollardan foydalangan. Ushbu asar bemaqsad urushlar va mustabid tuzumning kishilarimiz hayotiga solgan ayanchli oqibatlari xususida xukm chiqaradi. Yozuvchi-hayotning

sinovchan va ehtirosli tadqiqotchisi. U hayot hodisalarini o‘z asariga kiritar ekan, bu voqealarga o‘z munosabatini, u yoki bu tarzda bildirmay qo‘ymaydi. Badiiy asarda yozuvchi pozitsiyasining bo‘lishi katta ahamiyatga ega. O‘tkir Hoshimovning asarlarida atroflicha sodir bo‘layotgan har bir narsani o‘zbekning ko‘zi bilan ko‘rib dunyo voqealariga sof o‘zbekcha munosabat bildirish yetakchilik qiladi. U har bir asarida ijtimoiy hayotimizdagi muhim muammoni ko‘tarib chiqqan. Aynan shu tufayli yozuvchining deyarli har bir asari kitobxonlar tomonidan iliqkutib olingan, qalbidan muqim o‘rin egallagan.

Romandagi to‘y epizodida orsizlik, qo‘rqoqlik singari tuban ma’naviy sifatlar milliy belgilar tarzida namoyon bo‘ladi. Yuzlab odamning birgina kelgindini andishasizligi oldida indamay bo‘yin egib turishi tasviri, yuraksizlik, o‘zbekdan qo‘y-odamlar tarbiyalashda yuksak natijaga erishganligining yorqin dalili bo‘lgan.

Ey! Shovqin-suroningni to‘xtatasanmi yo‘qmi? To‘yxona suv quygandek jim-jit bo‘lib qoldi. Kelinning dugonasiga tantanavor alpozda so‘z berayotgan to‘y boshining dami ichiga tushib ketdi. Shaxnoza boshini ko‘tarib qaradi-yu, shundoq tepasida, to‘rtinchi qavatning ochiq derazasidan engashib turgan maykachan barzangini ko‘rdi. Birgina kelgindi Grishaning do‘q-po‘pisasi bilan butun boshli to‘y suv quygandek jim bo‘lib qoladi. Bu vaziyatga dosh bera olmagan Rustam, atayin o‘yin kulgini avj oldiradi. Keyingi voqealarga Rustam ko‘z yuma olmaydi. Devor tomonda o‘tirgan ayollar ustidan bir chelak suv to‘kiladi. Shunda ham hech kim hech narsa demaydi. Xalqimizda “mehmon otangdan ulug” degan maqol bor. Grisha chetdan kelgan mehmon bo‘lganligi sababli u hammaga hurmadsizlik qilishiga qaramasdan, mezbon bir og‘iz yomon gap aytmaydi. Faqatgina Rustam bunga dosh bera olmaydi va oxir oqibat bu tomosha Grishaning musht yeyishi bilan yakunlanadi. Keyingi voqealarni kuzataylik, shuncha gap so‘z bo‘lib o‘tgandan keyin ham to‘y egasi Grishanikiga keladi:” Gap bunday qo‘shni - qariya vazminlik bilan muqaddimani uzoqdan boshladi. – Men Ahmadaliyevman. Bugungi to‘yning egasi. O‘g‘limni uylantirdim. Grisha istehzoli jilmaydi.

– Tabriklayman! - To‘yxonaga tushib tabriklasangiz ham bo‘lardi, - dedi qariya sof rus tilida. – Uch kun avval to‘yga aytib chiqsam yo‘q ekansiz.

– Maqsad? – Boshimda bitta-yu bitta o‘g‘lim bor. -.Shu bolaning to‘yini o‘tkazay, deb yigirma besh yil yig‘ib-terdim. . Qisqaroq! – dedi Grisha jerkib.

– Yaxshi - Qariya negadir xo‘rsindi. – Yomon ish qildingiz qo‘shni - Men sizni o‘quvchingiz emasman! – dedi ezmachurik qariyani gapini kesib. Qariya xafa bo‘lmadi. – Siz – yangi odamsiz – dedi vazminlik bilan. – Maqsad! – dedi Grisha tahdid bilan. – Maqsad shuki, xalqning milliy udumlarini haqorat qilmang! – qariya qo‘lidagi sellofan qopchasini uzatdi. – bu – sizning nasibangiz! Grisha esankirab qoldi. – Pora, deng! – dedi hushini to‘plab”⁶¹ Qo‘shnisiga shuncha haqoratlar yog‘dirsa ham indamaydi, qaytaga unga yana mehribonchilik ko‘rsatib, to‘y egasi, uning haqqini olib chiqadi. Garchi buni Grisha pora deb hisoblagan bo‘lsa ham. Balki bu xususiyat pora hisoblanar, lekin bizda emas.

Mana haqiqiy oliyjanoblik! Qaysi el, qaysi millat vakili shunday jasorat ko‘rsatgan bo‘lardi!? Hech qaysi!!! To‘y tafsilotlari rus millati vakili Grigoriy tomonidan sharhlanadi. Qahramonning kinoyaviy, istehzoli nutqi tabiiy asoslarga ega. Negaki, Grigoriy O‘zbekistonga yordam berish uchun kelgan mutaxassis sanaladi. Unda allaqachon millat haqida salbiy fikr uyg‘otilgan. Uning fikricha hamma o‘zbeklar poraxo‘r, bosmachi va o‘g‘ri. Davrning bo‘ronlarida, mustabid tuzumning taloto‘plarida aynan o‘zbek millatining necha minglab farzandlari qurbon berilgani tarixiy faktlardan bizga ma’lum. Asardagi ana shu davrning, tuzumning eng katta qurboni ham Qurbonoydir. Qurbonoy-o‘zbek ayollarining timsoliga o‘xshaydi. Unda haqiqiy o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan andisha, mehr-oqibat, iymon, pokizalik saqlanib qolgan.To‘g‘ri, uning ismi haqida asarning bir o‘rnida to‘xtab o‘tiladi. Bu Komissar navbatdagi “tozalash”ni o‘tkazayotgan paytda, Qurbonoylarning uyida yapon rezidentiga yozilgan xatni tintish jarayonida

⁶¹ .O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. Toshkent Yangi asr avlodi, 2014. 21-bet.

yuz beradi. “Qurbonoy emish! Xo‘p topibsanmi, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug‘ilgan. Maktabda o‘qituvchilik qilasan, uyingda Qur‘on o‘qiysan. Ilon! Munofiq!” Qizaloq hamon onasini quchoqlab turar, chamasi dadasining oldiga uchib borib bo‘yniga osilgisi kelar, ammo notanish “amaki”dan qo‘rqar edi.” Bu o‘rinda yozuvchining niyati o‘sha davrda dinga, diniy marosimlarga munosabat qanday bo‘lganligini ko‘rsatish uchungina Qurbonoy ismini tanlaganligi biroz haqiqatdan chetroq tuyuladi. Albatta, biz ta’kidlagan fikrlarni yozuvchi o‘ylagani aniq. Biroq, meningcha, Qurbonoy obrazi asarda davrning eng katta qurboni sifatida gavdalanadi. Holbuki, u go‘dakligidan boshlab qancha-qancha siyosiy zug‘umlarni ko‘rgan, bobosidan, otasidan va so‘ngida onasidan ayanchli holda ajragan edi. Bu voqealar, zug‘umlar uning yuragini olib qo‘ygan edi. Shuning uchun ham u taqdirga tan bergan, yozig‘ida nimaiki bo‘lsa, xudodan ko‘rguvchi edi. Bir qaraganda Qurbonoy obrazi asarda biz istaganchalik vazifa bajarmayotgandek tuyuladi. Uning asar bosh qahramoni Rustam bilan bir “dom”da istiqomat qiluvchi farrosh ayol ekanini bilamiz. Qurbonoy o‘rniga boshqa obraz kiritilsa yoki umuman kiritilmasa ham bo‘ladigandek. Biroq, gap bunda emas, Qurbonoy bilan Rustam o‘rtasidagi munosabat unchalik chuqurlashmagan bo‘lsa-da, davr muhiti, tuzum kishilari haqidagi xulosalarimizning yana ham quvvatliroq bo‘lishida Qurbonoy obrazining o‘rni kattadir. Chunki, uning taqdiri, o‘tmish fojiasi bevosita Komissar bilan bog‘liqdir. Komisar esa, necha minglab qurbonoylarning boshiga yetgan jamiyatning “qo‘li” hisoblangan. Komissar xarakterining to‘laonli ochilishida Qurbonoy obrazining roli kattadir. Komissar Qurbonoyning butun umrini, yoshligini poymol qilgan shaxs. Otasi, To‘lagan akani tuhmat bilan qamatib yuboradi. Onasi Fotimani ham nomusiga tegib, uning umriga zomin bo‘ladi. Lekin Qurbonoy bularning hech qaysiga javob qaytarmaydi. Hammasini Xudoga soladi. Komissar Sovet hukumatining manqurti butun umr kommunizmni quraman deb yashaydi. Davr, ijtimoiy muhit shunday ediki, hattoki, ta’riflab berish mushkul bo‘lgan darajada, kishilar e’tiqodi “dogma” holatiga keltirilgan edi. Komissar ham ana shunday e’tiqodi qotgan, o‘zi uchun qat’iy

normalarni yaratib olgan-“prinsipial” kimsa edi. Uning ruhiyat olamiga, psixologik va ma’naviy qiyofasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zgalar fikrini tan olmaydigan, o‘z fikrida “sobit”, o‘zini jamiyatning eng kerakli ustuni, ya’ni uni “yot unsur” lardan tozalovchi kishi deb biluvchi kimsa ekanini bilib olamiz. U hech kimga ishonmaydi, hattoki farzandlari, xotini, yaqinlariga ham. Yozuvchi uning bu qiyofasini sekin-astalik bilan dalillab boradi. Davr jamiyat o‘zgarsada, bu shaxs o‘zgarmay qolaveradi. Buning natijasida u farzandlaridan ayriladi. Shu o‘rinda Qurbonoyni bir gapini keltirishni lozim topdim. Jahonda eng donishmand xalq bilasizmi bilasizmi, kim? Avstraliya aborigentlari! Og‘ir jinoyt qilganni qamamaydi. Otmaydi, osmaydi. Yolg‘iz qoldiradi. Bitta o‘zini. Mana o‘n yildan oshdiki komissar tanho Bitta o‘zi !? Romandagi tarjimai holda, Komissarning hech qaysi millatga mansub emasligi va Sovet hukumati oldidagi beqiyos hizmatlari aytiladi. - Savolni men. - Yig‘ishtiring demagogiyani! So‘roq qilishni bilmas ekansiz. Umuman sistemangiz aynib ketgan. Tartib yo‘q. Tartib bo‘lsa, Shomatovni organga ishga olmas edingiz. - Kechirasiz grajdanin o‘rtoq Komissar. Bu gaplarni siz qayoqdan bilasiz? - Men hamma narsani bilaman. Bu sohada ish boshlaganimda sizning otangiz ham tug‘ilmagan edi.¹ Ha, uning hamma narsadan xabardor bo‘lib turishi o‘zi va jamiyat uchun eng zarur hol edi. “Ba’zilar organ deganda nuqul jazo beruvchi tashkilotni tushunadi. Unaqa emas. Organ jamiyatni yot unsurlardan himoya qiladi. Shunday ekan, uning qo‘ligina emas, “qulog‘i” ham yaxshi ishlashi shart. Har qanday tashkilotda, hatto yamoqchining do‘konida ham “quloq” bo‘lsa ziyon qilmaydi. To‘g‘ri-da, vaqti-vaqti bilan “tozalash” o‘tkazib turmasa boshqarib bo‘ladimi bu turfa jamiyatni! Urushdan keyingi “tozalash” ham bejiz qilingani yo‘q. Ayniqsa, olifta intelligentlar haddidan oshib ketdi. Gazeta-jurnallarda sovet jamiyatini masxara qiladigan narsalar paydo bo‘la boshladi. Maktab o‘qituvchisidan tortib olingacha –hammasi “dono!”. Hammasi- “daho!” Xex!” Asardan keltirilgan ushbu parchadan Komissar obrazi, uning ruhiy olami, ma’naviy qiyofasi haqida yanada aniqroq tasavvurga ega bo‘lish mumkin. U haqdagi xulosalarni jamlashga harakat qilish mumkin. Ushbu asarda Inson-Urush-

O'lim g'oyasi nihoyatda teran yoritilgan. Asar katta bir davrni qamrab olgan. Bu davrda esa, insonning tabiiy ehtiyoji-erk bo'g'ilgan, jamiyatni yakkahokim mafkura-sovet mafkurasi boshqargan edi. Asardan maqsad davrni inkor qilish, hozirgi kunga nisbat berib, salbiy fikrlar aytish emas, balki butun bir davr-sho'ro mafkurasining intihosida shu jamiyatda ozmi-ko'pmi yashagan insonlarning ruhiyatlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi va bu o'zgarishlar adabiyotimizda qay tarzda akslanganini aniqlash va tahlil qilishdir. Komissar davrning "qo'l-oyog'i", "qulog'i" ga aylangan kimsa. U o'zini butkul jamiyatni unsurlardan tozalashga baxshida etgan edi. Go'yo, bu uning uchun muqaddas vazifa edi. Shunday bo'lsa-da, u shaxs sifatida shakllanmayotgan, ruhan tozalanishga harakat qilmayotgan, aksincha, o'zining oniy ojizligidan-da g'azablanadigan edi. U uchun har qanday fikr quvvatsiz, bu fikrning egasi esa doimo undan ancha "pastda" ko'rinar edi. Roman so'ngida komissar hayoti poyoniga yetib qolgan bo'lsada, biroq u, shu umri davomida shaxs sifatida shakllanmadi, balki sho'ro mafkurasining "maxsus odami" sifatida yashab o'tdi. Uning kuzi allaqachon kelgan. Lekin Komissar shunday tubanlashib ketganki, bu haqiqatni tan olgisi kelmaydi. O'ylab qaralsa, uni hamma tark etdi. Naziradek ayol (xotini), farzandlari, kelinlari undan yuz o'girdi. Keyingi xotinidan u vafo topmadi. Na bir do'st, na bir suyanchiq qolmadi. So'ngida esa, u e'tiqod qo'ygan jamiyat, mafkura tanazzulga yuz tutdi. Shunday bo'lsa-da, u aynan shu holatni-haqiqatni anglab yetishdan mahrum. Chunki, u, butunlay, inson qiyofasidagi hayvonga aylanib ulgurgan, har qanday insoniy his-tuyg'ulardan mosuvo, "qotma" ga aylangan mahluq edi. Onadan tug'ilmagan jonzot yo'q. Jannatdan yer yuziga haydalgan Odam Ato, Momo Havo, Azozil va ilonni istisno qilganda, barcha jonzotni ona tuqqan. Hadislarida aytilganidek har bir go'dak tug'ilganda musulmon bo'lib tug'iladi. Ammo ulg'aygan sari uning dini ham, fe'l-atvori ham o'zgarishi mumkin. Bu muhitga, muhitdagi tarbiyaga bog'liq. Ajabki, bo'ritabiat komissarlarni ham ona tuqqan. Soatni ham iymoni butun ona dunyoga keltirgan. Biroq keyinchalik muhitning ta'siri bilan ularning hammasi oqpadarlik tavqi-

la'natini bo'yniga osgan. Buni komissar misolida ko'rishimiz mumkin. Badiiy ijodda ruhiy tahlilning o'rni va ahamiyati beqiyos. Har qanday badiiy asarning darajasi unda inson qalbi haqidagi haqiqat qay yo'sinda, qanday ifoda etilgani yoki tasvirlanganligiga ko'ra belgilanadi. Badiiy asarlar markazidagi inson qiyofasi uning ruhiyati tahlili orqali ochib beriladi. San'atkor-ijodkorlar yaratgan asarlarga e'tibor qaratilsa, jahon adabiyotining yetuk durdonalari sanalmish asar mualliflari ruhshunosinsonshunos sifatida qalam tebratganliklarining guvohi bo'lish mumkin.

. O'tkir Hoshimov o'zining so'ngi romani "Tushda kechgan umrlar" romanida yigirmanchi-o'ttizinchi yillar, urush davri tozalashlari, urushdan keyingi ziyolilar qatag'oni, afg'on urushi va "paxta ishi" repressiyalarini xronologik izchillikda yoritadi.

Inson ruhiyati juda keng olam bo'lib, undagi hissiyot va tuyg'ular ham anglab bo'lmaz darajada cheksizdir. Xuddi shu his-tuyg'ular insonda ikki xil shaklda o'z ifodasini topadi: birinchisi anglangan, ma'lum mantiqqa ega bo'lgan, tashqi dunyoga nisbatan o'zining qat'iy xulosa va yo'nalishiga ega bo'lgan tuyg'ular. Bu tuyg'u insonning jamiyatga, odamlarga, atrof-muhitga munosabati va bular haqidagi ma'lum tushunchaga ega bo'lgan qarashlarni ifoda etadi. Bularning hammasini ong sintez qilib beradi, ya'ni ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari, ongga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud bo'lgan, obyektiv olam bilan tinimsiz aloqaga kirishib turuvchi hislar. Bu kabi hislar inson ruhiyatining asosini tashkil etadi. Garchi biz biror ishni qilganda, gapirayotganimizda, o'zimizni tutishimiz, holatlarimiz bizga anglangan, ma'lum bo'lgan va xuddi biror mantiqqa bo'ysunganday bo'lib tuyulsa-da, ammo, shu hislarni yuzaga chiqaruvchi, shu tushunchalarga turtki beruvchi asosiy narsa-ong osti hislaridir. Inson ruhiyatida ongli faoliyat, ongli hislardan ko'ra anglanmagan hislar ko'lam jihatidan cheksizdir. Masalan, biz oldimizdan o'tib ketgan mushukni payqamay qolsak-da, ong osti hislari uni o'ziga qabul qiladi va ma'lum vaqtdan so'ng uni o'zi qabul qilgan ramzlar orqali tushimizga uzatadi. Shuning uchun ham tushimiz bizga hamisha g'ayritabiiy tuyuladi. Tushdagi voqea, hodisa, holat yoki

obraz aynan ong osti hislarining tashqi dunyoni qabul qilish ramzlari bo‘lib, odam ongli faoliyatdan to‘xtagan, ya’ni uyqu paytida bu hislar inson miyasiga o‘zi qabul qilgan ramzlarni tarqata boshlaydi.

Roman epik hodisa bo‘lgani holda undagi biz uchun eng muhim jihatlardan biri subyektiv ibtido (ya’ni, asarda tasvirlangan narsaning o‘zigina emas)dir desak, yanglishmagan bo‘lib chiqamiz. Zero, roman ijodkor tomonidan ko‘rilgan, idrok etilgan va qayta yaratilgan borliqdirki, unda muallifning o‘zi yashagan yoki asarda aks ettirilgan davr (jamiyat va inson)ni qanday tushunganiyu baholagani – dunyoyu davr konsepsiyasi o‘z ifodasini topadi. Avvalroq aytdikki, klassik tushunchadagi roman ijtimoiy-shaxsiy ehtiyoj mahsulidir. Mazkur ehtiyojni qondirish uchun ijodkorning hayot materiali(dispozitsiya)ni badiiy idrok etishiyu ideal asosida qayta ishlab badiiy reallik(kompozitsiya)ka aylantirishi taqozo qilinadi. Voqelik bilan muntazam muloqot asosida amalga oshgan ijodiy jarayon (badiiy tafakkur) asar strukturasida muhrlansa, muallif anglagan haqiqatlar asar butunligi(sistema)da o‘z ifodasini topadi. Modomiki romanning badiiy voqeligi muallif ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida qayta yaratilgan borliq ekan, u qanchalik obyektiv tasvirlanmasin, bari-bir ijodkor subyektini o‘zida aks ettiraveradi. Zero, muallif subyektini roman situtasiyasidayoq, ya’ni unda personajlarning joylashtirilishiyu har birining asar voqeligida ko‘zga tashlanadi. Yuqoridagi mulohazalarimizdan ayon bo‘ladiki, muallif konsepsiyasini bitta-ikkita obrazgina (albatta, ularning roli katta bo‘lishini inkor etmaymiz) emas, asarning badiiy voqeligi–unda yaratilgan yaxlit dunyo obrazi ifodalar ekan. Shunga ko‘ra, asar strukturasidagi har qaysi obrazning bunda muayyan roli bor, zero, dunyo obrazi shu katta-kichik obrazlar tashkil qilayotgan butunlikdir. XX asr o‘zbek adabiyoti o‘ziga xos an‘analari, badiiy mezonlar asosida shakllandi. Hozirgi o‘zbek nasri ravnaqida jiddiy o‘sish-o‘zgarishlar yuz berdi. Jahon adabiyotiga xos ilg‘or ijodiy an‘analarni realistik yo‘sinda tasvirlovchi, badiiy tadqiq etuvchi asarlar bilan bir qatorda yangicha talqin uslubi va yangi shakliy izlanishlar yuzaga keldi. Adabiyotimizda xilma-xil falsafiy zaminga asoslangan adabiy-ijodiy tamoyillar

paydo bo'ldi. Ularning ildizlari 80-90 yillar adabiyotiga, o'sha davr hayotiga bog'lanadi. Aniqroq qilib aytganda, o'z mafkurasini odamlar ongiga singdirib, "mixlab tashlagan" jamiyatning yaroqsizligi, tanazzuli oqibatlari, fojialari milliy adabiyotimizda ham xilma-xil insonlar taqdiri orqali ochib berildi. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlaridagi jamiyatda yuz bergan iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar, tabiiyki, insonlar hayotiga ta'sir etmay qolmadi. Shu sababdan, o'sha davr muhiti adabiyotda yangicha inson obrazini yaratilish va voqea-hodisalarga sog'lom munosabatni ifodalash ehtiyoji tug'ildi.

Tarixiy haqiqatni davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta – haqqoniy baholash ham ma'naviy, ham ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Mavjud holat vatan, ozodlik, millat mavzulari ustuvorligini mustahkamlashda muayyan mohiyatni yuzaga chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, mavzu tahlili milliy ong bilan munosabati doirasida yoritish shuni ko'rsatadiki, joriy masala tadqiqoti uch xil yo'sinda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tipologik talqin tarixiy haqiqatni teran anglashga yo'l ochadi. Zamondosh qalbidan o'rin olgan va kelajak avlod tajribasida asqotadigan taomillar millat mentalitetiga manfaat keltirishi shubhasiz.

Uchinchidan, milliy qadriyatlariga munosabat teranlashayotgan pallada tarixiy mavzu talqini milliy mansublikka daxldorlik kasb etadi. Agar qiyosiy adabiyotshunoslik asarlarni o'rganishda ularning nozik qirralarini ochib berishga xizmat qilsa, bu uning eng katta yutug'idir. Chunki, biron asar boshqa asarga solishtirilgandagina uning ko'lamdorligini, mavzuviiy-mazmuniiy boyligini, yozuvchi mahorati hamda ijodiiy individualligini anglash mumkin bo'ladi.

Badiiy asar badiiy kommunikatsiya vositasi ekanligi, kommunikatsiyaga kirishayotgan subyekt uchta asosiiy maqsad (reprezentativ, ekspressiv, apelyativ)ni ko'zlashini ilgari aytgandik. Dramatik va epik unsurlar obyektivlik illyuziyasini hosil qilsalar-da, muallif ongi-yu qalbida qayta ishlanganliklari uchun ham subyektivlikdan holi emaslar. Ayni paytda, qahramonlar hayotida yuz berayotgan voqealar–tasavvurimizdagi "sahna"da kechayotgan ko'rinishlar – o'z holicha ham o'quvchiga ta'sir qila oladi. Shunisi ham borki, dramadagi kabi bu o'rinda ham

muallif shaxsi qisman dialoglarga singdirib yuborilgan. Ko‘ramizki, muallif badiiy voqyelikda akslangani kabi, badiiy voqyelik ham muallif orqali akslanadi. Demak, “Kecha”dagi epik, dramatik va lirik unsurlar o‘zaro organik birikib, uyg‘un butunlikni tashkil qiladiki, ularning har birini alohida olib ko‘rishga intilishimiz shartli – faqat asarni tushunish yo‘lidagi amallardan biri sanaladi.

Voqea-hodisalarga salbiy munosabat, inkor ruhining kuchliligi, hodisaning dahshatli manzarasini keskin, qabariq tarzda chizib berish, hodisa mohiyatini bor ziddiyatlari, qahramon ruhiyatini butun murakkabliklari bilan o‘quvchiga his qildirish uchala adib ijodiga xos fazilatlardan biri sanaladi. Shuningdek shaxs tabiatining ayrim jihatlarinigina aks ettiruvchi asarlar bilan bir qatorda, inson ruhiyati, borlig‘iga xos umumiy xarakter-xususiyatlardan alohida chizgilarga o‘tuvchi tasvir uslubini namoyon qiluvchi yo‘nalish inson ruhiyatining keng olam ekani, uning hech qanday qolip-u andozalarga sig‘maydigan, cheksiz, turfa holatlarini badiiy jihatdan inkishof etishga urinish singari yaratilgan badiiy asarlar haqiqatdan ham an‘anaviy realizm qoliplarini yorib chiqib, adabiyotda yangi badiiy hodisalarga aylanmoqda.

Psixologik tahlil muammosini o‘zbek romanlari misolida tahlil qilgan munaqqid H.Umurov ta’riflaganidek: «inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati – adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi xususiyatlaridan biri» hisoblanadi. Buni romandagi inson qalbining nozik jilolari: fe’l-atvori, ruhiyati, ko‘ngil talpinishlari badiiy talqin etilganida kuzatish mumkin. Yozuvchi mahorati hayot materialini badiiy aks ettirishda rang-barang tasvir vositalaridan nechog‘li unumli foydalana olganligi bilan o‘lchanar ekan, roman janri cheksiz imkoniyatlarga egaligi bilan boshqa adabiy janrlardan jiddiy tavofutlanadi. Adib unda inson hayotining solnomasini mufassal ifodalashga diqqatini qaratadi. Boshqacha aytganda, odamzot takomilidagi muhim evrilishlar badiiy shakl miqyoslarini belgilab beradi. Epik tasvir turfaligi syujet qismlarini shartli va teran mohiyat sari yo‘naltiradi. Natijada odamzot turmush tarzi haqqoniyligi tasvirni yaxlitlashtiradi.

Inson ruhiy borlig'i, uning o'y-kechinmlari, orzu-armonlari, maqsad-intilishlarini tasvirlash hamisha badiiy adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Tadrijiy takomillashib, rivojlanib kelayotgan o'zbek romani qiyofasi hamda nufuzi kechagidan tubdan tafovutlanadi. Yangilanayotgan badiiy tafakkur miqyoslari yangicha talqinlarni idrok etishni taqozo etmoqda. Har bir davr badiiyat solnomasi mohiyatida millat orzulari aks ettiriladi. Davr hodisalari, zamon o'zgarishlari inson qalbida aks-sado beradi. Ijtimoiy-madaniy, siyosiy-adabiy kayfiyatlar oqimi qalbga yo'naladi, uning zarblariga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asar qalbning o'ta shaxsiy, shu barobarda o'ta ijtimoiy mahsuli bo'lganligi bois, zamonning o'zgarayotgani, tafakkurning yangilanayotgani unga ham o'z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday o'zgarishlar, o'sishlar tasvir oynasi. Unda g'oya taraqqiyoti, inson ongi va ma'naviyati o'sish tarixi, ijobiy yangilik kasb etish jarayonini kuzatish mumkin. Shunga ko'ra bir davrda yaratilgan qahramon boshqa bir davrda yaratilgan qahramondan farq qiladi, bir ijodkor yaratgan xarakter o'zga ijodkor qayta tiklagan iroda yo'nalishidan tubdan tafovutlanadi. Biroq joriy qahramon tabiatida mushtarak jihatlar ham mavjudki, holat, eng avvalo, tarix falsafiy-badiiy tadqiqoti jarayonida yanada bo'rtibroq ko'zga tashlanadi. Har qanday badiiy asar ham aniq bir hayot haqiqatini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bunda yozuvchining iste'dodi, mahorati va matonati eng muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "Iste'dod-murakkab ijtimoiy muhit. Iste'dod-yozuvchining ijodiy kuchlari kompleksi va uning ijod qilish ishtiyoqi, shunga layoqati, qobiliyati"⁶². Shuning uchun ham iste'dodi yuksak adiblar asarlarida o'z davrining ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etib turadi. Bu narsa esa asar qahramonlarining faoliyati va xarakter xususiyatlari orqali ifodalanadi. Illo, "Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir"⁶³. Badiiy asarni to'laligicha

⁶² Ishoqov Y. "Xamsa"da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy "Xamsa"si (tadqiqotlar). – T., Fan, 1986. – 64b.

⁶³ Aristotel'. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – 149 b.

namoyon bo'lishi uchun qahramon va uning ruhiyati masalasi birinchi o'rindagi masalalardan biri hisoblanadi

O'tkir Hoshimovning badiiy niyati ham o'tish davri, ya'ni asrimizning 80-90-yillari hayotini Rustam, Shahnoza, Komissar, Qurbonoy va boshqa obrazlarning taqdirleri, afg'on urushining ayanchli oqibatlari, "O'zbek ishi" tufayli minglab halol, mehnatkash kishilar tuhmatlar bo'ronida qolib, poraxo'rlikda yoki pora berishda ayblanganliklari, inson erkini bo'g'uvchi, shaxsiyatini poymol qiluvchi, barcha huquqlaridan mosuvo etuvchi jamiyat millionlab kishilar boshiga ham ruhiy, ham jismoniy qiynoqlar solganini haqqoniy suratda ko'rsatishga qaratiladi. Asar bosh qahramonlari Rustam, Komissar, Qurbonoylardir. Bu uchlik-obrazlar asarning g'oyaviy konsepsiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Roman o'ziga xos obrazlar tizimiga ega. Unda Quroni Karimda keltirilgan "ilk syujet" bilan bevosita bog'liq. "Roman obrazlar sistemasining asos-qurilmasini tashkil etuvchi ilohiy axborot negizidagi obraz-triadani qayta ishlash tajribasi yevropa romanchiligi an'analariida mavjud edi. Adabiyotshunos U. Jo'raqulov fikricha, mumtoz dostonchiligimizda bu uchlik – oshiq, ma'shuqa, raqib tarzida talqin qilingan. "Tushda kechgan umrlar" romanida alohida tarzda rivojlangan har bir syujet liniyasida bu uchlikning elementlarini topish mumkin. Masalan, Rustam-Shahnoza, Sanjar (Lekin u bosh qahramonlar hayotiga ta'sir o'tkazadigan darajada kuchli raqib emas) hamda Fotima-To'lagan-Soat uchligi. Rustamning baxtiga Sanjar emas, u yashab turgan tuzum chang soldi. To'lagan va Fotimaning baxtiga esa juda kuchli raqib – Soat chang soladi. U "ilk" syujetdagi shayton obraziga qaysidir ma'noda juda mos keladi. Komissar obrazi murakkab obrazlardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, harakatlarini, faoliyatini oqlab ham, qoralab ham bo'lmaydi. Nazarimda, u, sovet davrining ramziy ifodasiga o'xshaydi. Asarni o'qish davomida, ko'proq, uning salbiy xususiyatlari ko'zga tashlansa-da, biz uni butunlay inkor eta olmaymiz.⁶⁴ Roman voqealari Rustamning oxirgi kundaligidan

⁶⁴ Jo'raqulov U. Nazariy poetika asoslari. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2015 yil, 164-6 37.

boshlandi va asta sekin Qurbanoy xolaning har kungi yumushlariga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Romanning asosiy voqealari to‘rt oy ichida bo‘lib o‘tadi. Ya’ni Rustamning vafotidan uning o‘limi haqidagi ish yopilguncha. Qistirma epizodlarda romanning asosiy voqealariga qahramonlarning kundaligi, xotiralari, xatti – harakatlari, o‘y –fikrlari, ustaliklari tarzida mohirlik bilan singdirib yuboriladi. Roman bosh qahramoni Rustam oliygoh talabasi, Sovuq urush tufayli yuzaga kelgan Afg‘on urushi qatnashchisi, ayni chog‘da jabrlanuvchisi. U afg‘on urushidan kontuzyaga uchrab, eng achinarlisi, majruh holda uyiga qaytadi. Yozuvchi Rustamning kundaliklari orqali afg‘on urushi janglarini tasvirlar ekan bu ma’nisiz urushning mohiyatini, mohirlik bilan ochadi. Urushdan qaytgan Rustam, o‘z hayotini izga tushirishga urinadi, Taassufki, Rustamning hayoti endi o‘nglanmaydi. U tirik o‘likka aylangan edi. Bunday holatda, ruhiy azoblardan o‘lib qutilishdan boshqa chora qolmagandek go‘yo. Rustam-ku Afg‘ondan majruh bo‘lib keldi. Uning xotini Shahnoza esa, tinch hayotida, ota–onasining bag‘rida ham bu urushning asoratlarini achchig‘ini tortib ko‘radi. Asarda roman voqealarini harakatga keltiruvchi, obraz komissar obrazi harakatlantiriladi. Komissar obrazi orqali adib o‘ttizinchi yillar qatag‘onlarining butun dahshatini, urush davri va urushdan keyingi qatag‘onlarning mohiyatini ochib beradi. Aytish kerakki, Komissar yig‘ma obraz.. Kamissar SSSR ning timsoli, bu narsa muallifning kamissarga bergan tarifgida ham o‘z aksini topadi. Mana o‘sha tarif: “G‘aniyev Soat G‘aniyevich 75 yoshda. Ittifoq miqyosidagi pentsioner millati - yo‘q. So‘qqa bosh. Avval sudlanmagan”. Yozuvchi bu qahramoning yoshlik paytlaridagi noqobil ishlarini shunday ko‘rsatib beradiki, xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar va shu kulfatlarni battar og‘irlashtirgan o‘z ichimizdan chiqqan manqurtlar ekanligiga o‘quvchining ishonchi komil bo‘ladi. Soat G‘aniyev otasining izidan borib, otasining inqilobiy faoliyatini ko‘rib ulg‘aygan va “o‘n besh yoshidanoq komissar bo‘lgan” U o‘sha kezlardayoq qo‘shnisining devori nima uchun o‘zlarinikidan balandligini so‘raydi. Otasi qo‘shnisi eshonning sinfiy dushmanligini, sirlarini odamlardan yashirmoq uchun devori baland ekanligini aytadi. Soatning tafakkuri

birinchi qadamlardayoq ana shunday egri yo‘ldan ketadi. Asta-sekin o‘z tamoyillarini ishlab chiqadi. U organda ishlar ekan hammaga dushman deb qaraydi, hammadan gumonsirashni o‘zining oilaviy burchi deb biladi. “Yuz foiz hammadan hatto o‘zining xotinidan, bolasidan gumon qilmagan kishidan haqiqiy chekist chiqmaydi.” Bu uning hayotdagi amoli. Shu tarzda komissar yoshligida birga o‘ynab katta bo‘lgan bolalarning ustidan tuhmatlar uyishtirib ularni qamatadi. O‘zining tuzumga sadoqatini isbotlash uchun ko‘pgina yaqin odamlarining yostig‘ini quritish bilan cheklanmay so‘roq paytida ularni jismonan azoblashning juda dahshatli yo‘llarini o‘ylab topadi. Hatto onasining ta’ziasiga ham kela olmaydi Bu obraz orqali yozuvchi e’tiqodsiz, imonsiz kishi, faravonlikka, baxt – saodatga erishishning yakka–yu yagona yo‘li sotqinlik, josuslik deb bilishini aniq hayotiy lavhalarda ko‘rsatadi. Sotqinlik dardiga girifdor bo‘lgan bunday kimsalar pul berilsa bas, hamma narsani, hatto padari buzrukvori-yu, oq sut bergan onasidan ham tonadi. E’zozlaydigan, sajda qiladigan g‘oyasining bo‘lmasligi insonni oddiy ijrochiga aylantirib qo‘yadi. O‘tkir Hoshimov afg‘on urushiga borib halok bo‘lib kelayotgan yigitlar, ham jismonan sog‘lom qaytganlari ruhan kasalmand bo‘lib qolganini “Tushda kechgan umrlar” romaniga Rustamni bosh obraz sifatida olib kirishga asos bo‘ldi. Pokiza o‘yli, rost so‘zli, ezgu amalli Rustamning xatti-harakatlari, kechinmalari kitobxonni o‘ziga rom qiladi. Uning o‘z quroldoshlari Temur va Hayriddinga munosabatida, Shaxnozaga muhabbatida, onasini ayashlarida, otasi uchun kuyinishlarida ulkan insoniy samimiyat bor. U ichdan ma’rifatli odam. Asarda olamning butun alamli jihatlari Rustam taqdiri orqali tasvirlangan deyish mumkin. Asarni tub ildizi urushdan oldingi qatag‘on yillari bilan boshlanadi. Romandagi Komissar obrazi orqali so‘nggi ellik yil ichida yuz bergan zolimliklar namoyon bo‘ladi. O‘tkir Hoshimov 20-yillar adabiyotida ko‘klarga ko‘tarilgan Komissar – hukumat va partiyaning suyangan tog‘ini salbiy tip sifatida talqin etdi. Komissar xarakterida sho‘ro tuzumi tarbiyalagan barcha xususiyatlar aks etgan. Soat G‘aniyevich millat degan tushunchani tan olmaydi. Iymonli, e’tiqodli odamlar – uning raqiblari. U har bir gap so‘zida diniy odamni

haqorat qilishga tayyor. Komissarning asosiy yashash qoidalaridan biri 80-yillarda o'zbek millati boshiga tushgan falokat - "o'zbeklar ishi" deb atalmish qatag'onni yagona shu Komissar, uning timsolida komissarlar quvonch bilan kutib oladi. U o'zining davr-davroni qaytib kelgandek quvonib ketadi. Adib Komissarning bolaligini ham ko'rsatadi, bolaligidagi xatti-harakatlari ham zolimona bo'lganligini tasvirlaydi. U Komissarni goh suvga cho'kib ketayotganda ham yomonligini shumtaka sifatida, goh arziyas bir bahona bilan odamlarni qamoqqa olishini tasvirlaydi va natija o'laroq ichini fisq-u fasod boylagan Komissarning yaxlit karakteri ko'z oldimizda gavdalanadi. Garchi adibning maqsadi o'sha dahshatli "o'zbeklar ishi" deb atalgan qatag'onni mo'ljallagan bo'lsa-da, Komissar tipik obrazi orqali butun boshli tuzumning zo'ravonlik asosiga qurilganini ochib beradi.

O'tkir Hoshimov asarda urush tasviri va ko'lamini asta-sekin rivojlantirib boradi. Qahramonlar ruhiyatiga urush singib fojialarga befarq bo'lib qolgan qahramonni ham shunday tasvirlarni voqealar girdobiga tashlaydiki ular o'zini yo'qotib qo'yish darajasida ruhiy zo'riqishni boshdan kechiradi. Adib "o'zbeklar ishi" asoslarini ochish uchun ham to'rtta davrni ham qamrab oladi: o'tgan asrning 30-yillaridagi qatag'on, urush yillaridagi SMERSh davri, urushdan keying qatag'on, afg'on urushi. Ana shu to'rtta davr voqealarining tasviri, to'g'rirog'i, to'rtta davrdan olingan yaxlit epizodlar "o'zbeklar ishi"ning kelib chiqishiga asos bo'lganligini dalillar bilan badiiy bo'yoqlarda ko'rsatadi. Romanning anchagina boblarida afg'on urushi tasvirlanadi. Adib bu adolatsiz urushning butun fojiasini, g'ayriinsoniyligini ro'y-rost tasvirlaydi. Mina portlaganda qo'li bir tomonga, boshi bir tomonga uchib ketgan yigitning jon taslim qilishi, yurtini sog'ingan askarning nuqul o'limni tush ko'rishi, himoyasiz afg'on qishloqlarining kuli ko'kka sovirilishi manzaralari o'quvchi qalbini larzaga soladi. O'tkir Hoshimov romanda Afg'on qishloqlaridagi uylarni tasvirlaganda qabrlarga o'xshatadi. Qishloqdagi begunoh odamlar halok bo'layotganligini yosh bolalar yetim bo'lib qolayotganligini, bunga esa aybdor insonni topish kitobxonni hukmiga havola bo'lsada, Rustam o'zini aybdor sanaydi. Qonli manzaralar qarshisida o'yga toladi.

Bu urush xalqlarga faqat kulfat olib kelishi mumkinligini anglab yetgandi. Biroq u jonini saqlash uchun qon to‘kishi shart edi, aks holda uning o‘zi qurbon bo‘lar edi. U begunoh afg‘on ayolini otib qo‘yganda, qanchalar gunohga botganini anglaydi. Yozuvchi fojialarning ildizlari chuqur, hamma gap mustabid tuzumning mohiyatida ekanini ochib tashlaydi. Yozuvchi tomonidan qo‘llangan har bir badiiy tasvir vositasi, asarni bayon etish usuli, syujetning qay tarzda uyushtirilishi, personajlarning o‘ziga xos tarzda tasvirlanishi bir narsaga yozuvchining badiiy niyati, asarning asosiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. O‘tkir Hoshimov o‘zbek xalqining chinakam farzandi sifatida millatimiz boshiga tushgan og‘ir fojiani ildizi bilan ochib bergan. O‘z qalbini og‘ritgan, xalqimizning og‘riqli nuqtalari xususida mushohada yuritgan. Eng muhimi, buni mahorat bilan uddalagan.

II BOB BO‘YICHA XULOSALAR

1. Shaxs psixikasini yoritish har kimda turlicha kechadi. Adabiyot inson ruhiyatini kashf etish san‘atidir. Jahon adabiyotida shunday so‘z san‘atkorlari borki, ular yaratgan xilma-xil obrazlar zamonlar osha yashab kelmoqda.. O‘zbek adabiyotining bir qadami milliy zamindan suv ichgani kabi, bir qadami umuminsoniy g‘oyalar bag‘rida yetilib kelmoqda. Shubhasiz, O‘tkir Hoshimovning jiddiy tajribalari – qissa-yu, romanlari, hikoyalari fikrimizning yorqin dalilidir;

2. O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” asarida ichki monologlar qahramonlar hayotida, dunyoqarashida, o‘z-o‘ziga munosabatida o‘zgarishlar yuz berganda kuzatiladigan keskin va noqulay vaziyatlardagi personaj ruhiyati betakror tasvirlangan. Muallifning ochiq-oydin ko‘rinmay turgan ishtiyoqi, sujet va xarakterologiyaning muayyan muammoga qaratilganligi, xarakteristikaning zichligi, qissago‘ylikning yuqori darajada lirikligi asarda badiiy psixologizmni tayin etgan.

3. O‘tkir Hoshimov tush motiviga ulkan badiiy-estetik vazifa yuklaydi. Asarlaridagi adabiy tushlar qahramonlar taqdirini avvaldan bashorat qilib beradi. Ramzlar tili orqali qahramonlar ichki olamidagi silsilalar yoritib beriladi, tush badiiy detali ko‘magida xarakterlar ruhiy tahlilga tortiladi.

4. O‘tkir Hoshimov qahramon haqidagi to‘la tasavvurni kitobxon fantaziyasiga ishonib topshiradi-da, uni tasvirlash bobida bor-yo‘g‘i bir nechta yorqin detal bilan cheklanib qo‘ya qoladi. Yozuvchining diqqati personajning alohida qirralariga qaratilgan bo‘lishi mumkin, qolganini esa o‘zimiz, hayolimizda tiklaymiz, chizib olamiz.

UMUMIY XULOSA

Globalashuv jarayonining badiiyat olamiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazganini tasvir etilayotgan hodisotlar jiddiy talqinlarni yuzaga chiqayotganida ko‘rishimiz mumkin. Roman mavzu-mundariyasi, epik kengliklari, tavsir xilma-xilligi bugungi kunga kelib, anchayin kechagiga nisbatan farq qiladi.

Jahon adabiyoti tarixida bo‘lgani singari ming yillik o‘zbek adabiyotida ham badiiy psixologizm ildizlari turkiy mifologiya, o‘zbek xalq folklori: epos, xalq qissachiligi, mumtoz qissachilik an‘analaridan kelib chiqadi. Badiiy psixologizm qator manbalarda yozuvchi – personaj –o‘quvchi yoki ijodiy jarayon – badiiy asar – o‘quvchi ichki olami formulasiga bo‘ysunishi aytiladi. Haqiqatdan ham, badiiy psixologizm shu uchlik doirasida zamon, makon va individual ijodkor munosabatining hosilasi o‘laroq takomillashib boradi. Zamonaviy o‘zbek nasrini kompleks kuzatish asnosida kelingan xulosalar fikrimizga yaqqol dalil bo‘ladi. O‘zbek romanlarida badiiy psixologizmning kuchayishi, voqe-ahodisalar tasviridan

inson ongi, psixologik olami takomili natijasida milliy romanchiligimiz tadrijiy o'sgan. Ruhiy tahlil imkoniyatlari kengaya boshladi. Ijtimoiy muammolardan ko'ra ko'proq, inson ruhiyatini birinchi planga chiqarib tasvirlash va shu orqali jamiyat hayotiga nazar tashlash bugungi adabiyotning bosh mezoniga aylandi. Yozuvchi endi erkin, mustaqil bir tarzda ijod qila boshladi. O'tgan sobiq ittifoq davri mafkuraviy tazyiqlar adabiyotni xolis fikrlardan tamomila bo'g'ib, biqiq bir holga solib qo'ygani barchamizga ma'lumdir. Mustaqillik sharofati jahon estetikasi va madaniyatini o'rganishga keng yo'l ochib berdi. Buning amaliy ifodasi sifatida J.Joys, A.Kamyu, F.Kafka kabi faylasuf yozuvchilar asarlarining o'zbek kitobxonlariga badiiy tarjima san'ati orqali yetib kelganligidadir. Shunga hamohang xalqimizning so'nggi yuz yil ichida orziqib kutgan istiqlol madaniy hayotimizda, ham adabiyotimizda sermazmun asarlarning tug'ilishiga zamin hozirladi. Bu davrda bir avlod vakillari yaratgan ilk asarlaridanoq olim-u munaqqidlar e'tiboriga tushib, kitobxonlar mehrini qozona boshladi. Bular Sh.Bo'tayev, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, L.Bo'rixon, T.Rustam, S.Vafo, U.Hamdani kabi yozuvchilardir.

“O'tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosi” deb nomlangan tadqiqotimizda biz asosan, xarakterning ochib berilishidagi qo'llanilgan unsurlarga e'tibor qaratdik. Bular o'z navbatida yozuvchining mahoratidan darak beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'tkir Hoshimov qahramon xarakterini individuallashtirishda o'ziga xos usul va yo'sinlardan foydalanadi. Masalan, har bir detalga umumruhiyatga, millatga tegishli zalvor yuklaydi. Shu masalalardan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda quyidagicha xulosa yasadik:

1. Bubungi kunda badiiy asarni turli rakurslardan turib talqin etishga imkon beradigan turli-tuman metodlardan foydalanilmoqda. Psixoanaliz, xarakterologiya, psixopoetika kabi insonshunoslik sohalarining har bir inson ichki olamini tasvirlashning yangi versiyalarini taklif qilmoqda. Shunday ekan bunday turli-

tuman metodologiyalarning adabiyotdagi psixologik tasvir tamoyillari rivojiga ta'siri borasidagi imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish juda muhimdir.

2. Psixologizm bevosita-muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o'z-o'zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita –qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko'rsatish formasida amalga oshiriladi . Ijod mahsuli qaysi janrda yozilganidan qat'iy nazar, badiiy asar strukturasida ham, uning g'oyaviy-obrazli mazmundorligida ham o'zini namoyon qilish orqali psixologizm matnni badiiy jihatdan uyushtirishning barcha qatlamlarini ich-ichiga singib ketadi. Bu esa, psixologizm-badiiy asar poetikasining konstruktiv komponenti ekanligidan dalolat beradi.

3. Psixologizm orqali yozuvchi qahramon ichki dunyosini, psixologiyasini o'z uslubi orqali ochib beradi. Unda yozuvchi ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, galyutsinatsiya, tush kabi psixologik tasvir vositalaridan foydalanib, qahramon ichki olamini ochib beradi.

4. Psixologizm ijodiy niyatni ochish yo'lidagi muallif urinishlarini nozik badiiylashtiradi, asardagi qahramon tasvirida ichki bir zaruratdeknamoyon bo'ladi, kitobxonga xolisona tarafdorlik hissini uyg'otadi. Eng muhimi, badiiy asarda qahramon ruhiy olamining rang-barang, ayni paytda, kitobxon anglashi zarur bo'lgan asosiy, yetakchi qirralarini ochadi.

5. Shaxs psixikasini yoritish har kimda turlicha kechadi. Adabiyot inson ruhiyatini kashf etish san'atidir. Jahon adabiyotida shunday so'z san'atkorlari borki, ular yaratgan xilma-xil obrazlar zamonlar osha yashab kelmoqda. Shubhasiz, O'tkir Hoshimovning jiddiy tajribalari – qissa-yu, romanlari, hikoyalari fikrimizning yorqin dalilidir;

6. O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" asarida ichki monologlar qahramonlar hayotida, dunyoqarashida, o'z-o'ziga munosabatida o'zgarishlar yuz berganda kuzatiladigan keskin va noqulay vaziyatlardagi personaj ruhiyati betakror tasvirlangan. Muallifning ochiq-oydin ko'rinmay turgan ishtiyoqi, sujet va xarakterologiyaning muayyan muammoga qaratilganligi, xarakteristikaning

zichligi, qissago'ylikning yuqori darajada lirikligi asarda badiiy psixologizmni tayin etgan.

7. O'tkir Hoshimov tush motiviga ulkan badiiy-estetik vazifa yuklaydi. Asarlaridagi adabiy tushlar qahramonlar taqdirini avvaldan bashorat qilib beradi. Ramzlar tili orqali qahramonlar ichki olamidagi silsilalar yoritib beriladi, tush badiiy detali ko'magida xarakterlar ruhiy tahlilga tortiladi.

8. O'tkir Hoshimov qahramon haqidagi to'la tasavvurni kitobxon fantaziyasiga ishonib topshiradi-da, uni tasvirlash bobida bor-yo'g'i bir nechta yorqin detal bilan cheklanib qo'ya qoladi. Yozuvchining diqqati personajning alohida qirralariga qaratilgan bo'lishi mumkin, qolganini esa o'zimiz, hayolimizda tiklaymiz, chizib olamiz.

Psixoanalizni maydonga keltirgan eng muhim ijtimoiy-siyosiy faktorlar

	Ijtimoiy-siyosiy faktorlar nomi	Mazmuni
	Freydizm	Freydizmni yuzaga keltirgan ijtimoiy-tarixiy, madaniy omillar nimalardan iborat edi? Ma'lumki, Zigmund Freyd yashagan XIX asr oxiri, XX asr boshlari butun Yevropada kapitalistik munosabatlarning qaror topish davri bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu davr ijtimoiy hayotdagi yangilanish davri bo'ldi. "G'arbiy Yevropa va Amerika matbuotida Freydning g'arb odami psixologiyasiga kuchli ta'sir

		ko'rsatgan g'oyalarini Kopernik, Darvin va Eynshteyn g'oyalariga tenglashtirilganini juda ko'p martalab ko'rish mumkin". Bu kashfiyotlardagi mushtaraklik - inson va uning borliqdagi o'rniga yangicha yondashishdadir. Kopernik geotsentrik nazariyani rad qildi, geliotsentrik nazariyani boshlab berdi, shunga ko'ra, inson koinotdagi yagona ongli mavjudot emasligiga ishora qildi. Ch.Darvin esa inson va hayvonning kelib chiqishini bir manbaga bog'laydi, shunga ko'ra inson mavjudot olamining markazida turmaydi deb hisoblaydi. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi ham inson tafakkurining bir qadam olg'a ketganligi nishonasi bo'ldi.
	Revolutsion ko'tarilish	XIX asr oxiri, XX asr boshlarida yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi barcha davlatlarni qamrab oladi. XVII asrda Angliyada boshlangan burjua revolyutsiyasi keyingi asrlarda Fransiya (XVIII asr oxiri), Italiya (XIX asr ikkinchi yarmi), Germaniya (XIX asr o'rtasi), Avstriya (XIX asr o'rtasi), Vengriya (XIX asr o'rtasi), Chexiya (XIX asr o'rtasi) singari Yevropa mamlakatlarida, AQSH (XIX asr ikkinchi yarmi)da bo'lib o'tdi; Rossiya inqilobiy ko'tarilishlar girdobiga mahkum etildi. Bir tarafdin, absolyut monarxiyani saqlab qolishga jon-jahdi bilan intilgan eski hukumat vakillari kuchaytirgan terror; ikkinchi tarafdin, ko'pchilik ommaning yangi ijtimoiy tuzilma talabi yo'lida har qanday kurashdan qaytmasligi turli mamlakatlarda odamlar o'rtasida dushmanlik kayfiyatini,

		qon to'kilishini behad avjga chiqardi. Deylik, Rossiyaning bir qancha liberal-demokratik islohotlarni amalga oshirgan (krepostnoylik huquqining, tan jazosining bekor qilinishi, sudlarda xalq maslahatchiligining joriy etilishi kabi) imperatori Aleksandr II ham, revolyutsionerlar tomonidan o'nlab marta suiqasd uyushtirilishiga qaramay, demokratik islohotlarni mujassamlashtirgan konstitutsiyani imzolashga, ya'ni samoderjaviyening qudratini rasman zaiflashtirishga uzoq vaqt ikkilanib turdi; pirovardida esa, inqilobchilar uyushtirgan suiqasdning qurboniga aylandi. Aleksandr III taxtga o'tirishi bilan absolyut monarxiya yana eski o'zanlariga qaytdi.
	Mustamlakachilik	Bu davrda dunyo miqyosida mustamlakachilik kayfiyati ham o'sib bordi; rivojlanmagan yurtlarga egalik qilish da'vosidagi mustamlakachilik istilolari Janubiy va Shimoliy Amerikani, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Afrika hamda Osiyoning ko'pgina mamlakatlarini qamrab oldi. Mustamlaka orttirish yo'lida turli yirik mamlakatlar o'rtasida ixtiloflar ham, mustamlaka mamlakatlardagi milliy-ozodlik harakatlari ham o'sib bordi. Bir tarafdin, yangi kapitalistik munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan revolyutsion xatti-harakatlar va ayni paytda burjuaziya va pomeschchiklarga qarshi xalq g'alayonlari bir mamlakat doirasida; ikkinchi tarafdin, o'z mustaqilligi uchun bosh ko'targanlar bilan mustamlaka hukmronligini saqlab qolish tarafdorlari o'rtasidagi keskin to'qnashuvlar, bundan tashqari, yirik

		mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar turli mamlakatlar doirasida insoniyatni ommaviy o‘lim va ijtimoiy jazavalarga mahkum qildi. Butun dunyo haq-huquq, boylik va hokimiyat talashuvlari girdobida qoldi.
	Materialistik ta’limot	G‘arbiy Yevropada Karl Marksning ta’limoti paydo bo‘ldi va turli mamlakatlarda ko‘pchilik ommani o‘ziga jalb qildi. Marksizm falsafasining chuqur analiziga berilishdan saqlanib, mavzuga aloqador birgina holatni ta’kidlash lozim: marksizm insoniyat hayotidagi barcha voqea-hodisalar, taraqqiyot va krizislarni ijtimoiy-iqtisodiy, mulkiy munosabatlarga bog‘lab tushuntiradi. Tabiiyki, bu xil qarash Freydni befarq qoldirmagan. U o‘zining “Dunyoqarash haqida” nomli ma’ruzasida marksizmning o‘z davrida insoniyat hayotining barcha sohalarida istisnosiz obro‘ qozonganligini e’tirof etaturib, shunday deydi: “Odamlarning jamiyatdagi fe’l-atvorini tabiiy ravishda faqat iqtisodiy motivlar belgilaydi, deyish mumkin emas. Bir xil iqtisodiy sharoitlardagi turli shaxslar, irqalar, xalqlarning o‘zlarini turlicha tutishlaridan iborat hech qanday shubha uyg‘otmaydigan fakt iqtisodiy motivlarning yagona hukmron ekanligini rad qiladi”.
	Sho‘ro davri	Sobiq sho‘ro davrida freydizmga qattiq taqiq qo‘yilishining bosh sabablaridan biri ham marksizmning psixoanalizda qattiq tanqidga uchrashi, bu ikki ta’limot metodologiyasining, psixik taraqqiyot mexanizmini izohlash prinsiplarining bir-biridan tubdan farq qilishidadir. XX asrning 20-yillari o‘rtalaridanoq Z.Freyd

		asarlarini tarjima va nashr etish ham; shuningdek, amaliyotda Freyd nazariyasi va metodlarini qo‘llash ham taqiqlab qo‘yildi.
--	--	---

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom hamda shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. –B.78.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 360 b.

II. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

1. Гинзбург, Л.Я. О психологической прозе. О литературном герое. СПб.: Азбука, 2016.

2. Литературная энциклопедия терминов и понятий; под ред. А.Н.Николукина. М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/>).

3. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. - М.: Флинта: Наука, 2011.

4. Д.Қуронов ва б. Адабиётшунослик луғати. Т.Академнашр, 2013.

5. Н. Г. Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Литературная критика. Библиотека "Огонек". М.: "Правда", 1974 (http://az.lib.ru/c/chernyshevskij_n_g/text_0240.shtml).

6. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2007.

7. <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html>

8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.:Фан. 1983; яна:“Хамса”да бадий психологизм типлари//Алишер Навоий “Хамса”си (тадқиқотлар). –Т:Фан, 1986.

9. Машрабова Г. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достонида рухият тасвири // Навоийга армуғон. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2003.

10. Золотухина, О. Б. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу для студ. спец. -Гродно: ГрГУ, 2009.

11. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xarakter-uz/>

12. С.Л. Рубинштейн. Учение о характере/Отрывок из монографии С.Л.Рубинштейна "Основы общей психологии" (<https://www.psychologyonline.net/articles/doc-451.html>)

13. Барабаш О.В. Психологизм как конструктивный компонент поэтики романа Л.Н. Толстого "Анна Каренина": диссертация кандидата филологических наук.-Москва, 2008 (<http://www.dslib.net/russkaja-literatura/psihologizm-kakkonstruktivnyj-komponent-pojetiki-romana-l-n-tolstogo-anna.html>).

14. Қуроноф Д. Адабиётшуносликка кириш. – А.: Ҳаёт нашриёти, 2002.

15. Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.Фан, 1983.

16. Н.Қобилова. Жек Лондон ва Абдулла Қахҳор ижодида бадий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)дисс. – Бухоро, 2020.

17. Qurbonov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т. А.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

18. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. – Т., Fan. 1983; shu muallif. “Xamsa”da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy “Xamsa”si (tadqiqotlar). – Т., Fan, 1986. – 63-81-b

19. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Т.: Маънавият, 2000. 27-бет.

20. Sulton I. – Metodning imkoniyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1974 – 5-son 12-b
21. Jo‘raqulov U. - Hududsiz jilva - b53
22. Umurov H. - Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi – Toshkent. Fan, 1983 – 11-12-b
23. Straxov I.V. Psixologicheskiy analiz v literaturnom tvorchestve: posob. dlya stud. /V 5 ch./-Saratov: Izd. Saratovskogo universiteta, 1973–CH. 1.S. 14.
24. Nazarov B. Davr va qahramon // O‘zbek adabiy tanqidchiligi. –T.: Fan. 1979. 96, 215 – betlar.
25. Quronov D va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari luʼfati. –T.: «Akademnashr» 2010 y. 277-bet.
26. Skaftimov.A.P. Nравstvennie iskaniya russkix pisateley. – M., 1972. S 437.
27. Ishoqov.Y. “Xamsa”da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy “Xamsa”si (tadqiqotlar). – T.,Fan,1986. – 64b.
28. Aliev.A. Istiqlol va adabiy meros. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 272 b.
29. Aliev.A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiya, 2000– 630 b.
30. Aristotel’. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980. – 149 b.
31. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 546 b.
32. Karimov.N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 533 b.
33. Karimov H. Istiqlol davri she’riyati. –Toshkent: Zarqalam, 2005. – 79 b.
34. Karimov H. Istiqlol davri nasri. – Toshkent: Zarqalam, 2007. – 96 b.
35. Karimov H. O‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2008. – 122 b.
36. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 287 b.

37. O‘tkir Hoshimov. Saylanma 2 jildlik. Toshkent Sharq, 1998. 439-bet.
38. O‘tkir Hoshimov. Saylanma 2 jildlik. Toshkent Sharq, 1998. 440-bet.
39. O‘tkir Hoshimov . Saylanma: 2 jildlik. 1-j. T.; “SHarq”, 1998, 481-bet
40. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy tarixiy jarayon. II jild. -T.: Fan, 1979. –B
41. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. Toshkent Yangi asr avlodi, 2014. 21-bet.
42. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika asoslari. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2015 yil, 164-6 37.
43. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. – Toshkent: 2005. – 119 b.
44. Normatov U. Ustoz ibрати. –Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 126 b.
45. Normatov.U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 351 b.
46. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrir,2010. – 385b.
47. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi. –T: O‘zbekiston.-2010. B. 270.
48. Nikolina. N.A. Filologicheskiy analiz teksta. Ucheb. posobie. – M: Akademiya, 2003. – 253 s.
49. Nurmatov.M. Tanqid va estetika. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1976. – 169 b.
50. Psixoanaliz asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004– 142 b.
51. Boboyev.T “Adabiyotshunoslikka kirish” 485-bet. Toshkent 2002 yil O‘zbekiston nashriyoti.
52. Прието А. Морфология романа//Семиотика.- М.,1983.- С.371
53. Sh.I.Botirova. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari misolida). filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – Qarshi, 2019. – 159 b.
- 54.E.S.Achilova. Sujet, obraz, uslub xususiyatlari (“Tushda kechgan umrlar” romani asosida) Til va adabiyot ta’limi jurnali 2022-yil, 3-son, 26-27-betlar

55.E.S.Achilova. O‘tkir Hoshimovning ”Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida psixologik tasvir. Til va adabiyot ta’limi jurnali.2022-yil 5-son, 40-42 b

56.E.S.Achilova O‘tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosi. Xalq ta’limi jurnali. 2021-yil 5-son, 88-91 b

Internet saytlari

1. <http://www.tuit.uz>
2. <http://www.ziyo.net.uz>. O‘zbekiston respublikasi talim sayti.
3. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BADIY PSIXOLOGIZM MUAMMOLARI	6
1.1. Badiiy psixologizm masalasining nazariy jihatlar.....	6
1.2. Qahramon xarakterining namoyishida ruhiy tahlilning o‘rni.....	32
I Bob yuzasidan xulosalar.....	42
II.BOB. O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BADIY PSIXOLOGIZM MASALALARI	43
2.1. O‘tkir Hoshimov hikoyalarida psixologik tasvir.....	43
2.2. “Tushda kechgan umrlar” romani qahramonlari ruhiyati tahlili.....	57
II Bob yuzasidan xulosalar.....	88
UMUMIY XULOSA.....	89
Jadvallar.....	92
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	96